

O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi



Toshkent farmatsevtika instituti

Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti

MUTAXASSISLIKKA KIRISH MODULIDAN O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 900000 – Sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot

Ta`lim sohasi: 910000 – Sog`liqni saqlash

Ta`lim yo`nalishi: 60911000 – Dori vositalarini standartlashtirish,
sertifikatsiyalash va sifat menejmenti



Toshkent – 2021

**O`zbekiston Respublikasi
Sog`liqni saqlash vazirligi**

Toshkent farmatsevtika instituti

Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH MODULIDAN
O`QUV-USLUBIY MAJMUA**

| | |
|---------------------------|--|
| Bilim sohasi: | 900000 – Sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot |
| Ta`lim sohasi: | 910000 – Sog`liqni saqlash |
| Ta`lim yo`nalishi: | 60911000 – Dori vositalarini standartlashtirish, sertifikatsiyalash va sifat menejmenti |

Toshkent – 2021

Modulning ishchi o'quv dasturi Toshkent farmatsevtika instituti Kengashida 2021 yil "31" 08 " " 2 -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Mutaxassislikka kirish modul dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

F.S.Jalilov – Toshkent farmatsevtika instituti, Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti kafedrasida dotsenti, farm.f.n.
Sh.A.Jabbarova – Toshkent farmatsevtika instituti, Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti kafedrasida assistenti

Taqrizchilar:

Usmonaliyeva Z.U. - Toshkent farmatsevtika instituti, Toksikologik kimyo kafedrasida mudiri, farm.f.n., dotsent
M.M.Xamdamov - "Dori vositalarini standartlash ilmiy markazi" direktori, PhD

Modulning O'quv uslubiy majmuasi sanoat farmatsiyasi soha uslubiy kengashining 2021 yil "31" 08 dagi 1 son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengashi raisi



V.R.Xaydarov

Modulning o'quv uslubiy majmuasi Institut Markaziy uslubiy Kengashning ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. 2021 yil "31" 08 " " 1 -son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi



Z.A. Yuldashev

Modulning o'quv uslubiy majmuasi Institut Kengashining 2021 yil "31" 08 " " 1 -son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Kengash kotibi



V.R.Xaydarov

MUNDARIJA

| | | |
|------|---|-----|
| I. | O'QUV MATERIALLARI..... | 5 |
| 1.1. | MA'RUZA MASHG'ULOTLARI MATERIALLARI | 5 |
| 1.2. | SEMINAR MASHG'ULOTLARI MATERIALLARI..... | 77 |
| II. | MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI..... | 113 |
| III. | GLOSSARIY..... | 114 |
| IV. | ILOVALAR | 124 |
| 4.1. | Fan dasturi..... | 124 |
| 4.2. | Ishchi fan dasturi..... | 143 |
| 4.3. | Tarqatma materiallar..... | 165 |
| 4.4. | Testlar..... | 168 |
| 4.5. | Baholash mezoni..... | 174 |
| V. | ADABIYOTLAR RO'YXATI..... | 179 |

I. O`QUV MATERIALLARI

1-MA`RUZA. MODULNING MAQSADI VA VAZIFALARI. MUTAXASSISLIKKA KIRISH MODULINI UMUMIY TAVSIFI.

Ma'ruza rejasi:

1. Oliy ta'lim tizimida qabul qilingan hujjatlar
2. Mutaxassislikka kirish modulining umumiy tavsifi
3. Mutaxassislikka kirish modulining maqsadi.
4. Mutaxassislikka kirish modulining vazifalari

Tayanch so`z va iboralar: *.Farmatsevtika, sifat, modul, sifatni ta'minlash, kimyo fanlari, biologik fanlar.*

O`quv modulinig dolzarbligi va oliy ta'limdagi o`rni

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamalakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, PQ-4310 "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-moduli tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini ijrosini ta'minlash maqsadida, yuqori darajada ma'naviy va ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash ilmiy asoslangan, xalq manfaatlariga javob beruvchi dasturni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Mutaxassislikka kirish moduli o`quv rejaning umum kasbiy modular blokiga taaluqli bo'lib, 1 kursda o`qitiladi. Kimyo va biologiya fanlari bu modulni o`zlashtirishda zamin hisoblanadi. Bu mutaxassislik modullari uchun zamin bo'lib, ularning kirish qismi hisoblanadi.

Modulni o'rganish jarayoni farmatsevtika tarixi, soha qonun hujjatlari normalari, mutaxassislik modullarini farmatsevt tahlilchi mutaxassisligini o`zlashtirishdagi o'rni farmatsevtika faoliyati va tashkilotlar, o`z mutaxassisliklari bo'yicha kasbiy faoliyat turlari va mazmuni haqida tushuncha beradi.

1. O`quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. Modulning maqsadi:

Modulni o`qitishning asosiy maqsadlari: talabalarni tanlangan mutaxassislik rekvizitlari bilan tanishtirish, o'quv dasturi, mutaxassislikni o'zlashtirish jarayonida individual modullarning o'rni va bilimlari, mutaxassislarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan asosiy talablar, farmatsevtik ishlab chiqarishda va boshqa tibbiy va farmatsevtika tashkilotlarida aholini sifatli dori-darmon bilan ta'minlash bilan shug'ullanadigan korxonalarda kelajakdagi kasbiy faoliyatlari to'g'risida fikrlarni shakllantiradi.

2.2. Modulning vazifalari:

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko`zda tutiladi:

- talabalarni institut ta'limi tizimi va o'ziga xos xususiyatlari, institut tarixi va an'alarini o`zlashtirish;
- sohaning rivojlanishining tarixiy jihatlarini o`zlashtirish;
- Sohaga xos bo'lgan terminologiyaning asosiy tushunchalari va asoslari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish;
- talabalarni farmatsevtika sohasidagi faoliyat turlari va sohadagi kasbiy tayyorgarlikning o'ziga xos xususiyatlari bilim va ko'nikmaga ega bo'lish;
- olgan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash, uni tashviqot va targ'ibot qilish malakasini egallash.

2.3. Modul bo'yicha talabalarining bilim ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Talaba:

- institut tarkibi (bo'limlarning funktsiyalari bilan birga);

- bitiruv malakaviy ishlari va bitiruv malakaviy ishlarini yozishga bo'lgan talablar;
- ushbu yo'nalish bitiruvchisining malaka xususiyatlari;
- dori vositalarining aylanishi sohasida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar va ta'riflar;
- dorilarni yaratish va tadqiq qilishning asosiy bosqichlari;
- farmatsevtning farmatsevtika faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar;
- farmatsevtika mahsulotlari sifatining asosiy ko'rsatkichlarini baholash usullari;
- yangi bilimlarni olish usullari v.b. haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- ilmiy adabiyotlar va boshqa axborot manbalarini izlash bo'yicha farmatsevtika faoliyati;
- olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish;
- olingan bilimlardan institutda muvaffaqiyatli o'qish uchun foydalanish;
- farmatsevtika faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish;
- zamonaviy modulning asosiy muammolarini hal etish;
- mustaqil ravishda va guruh sifatida tadqiqotlar o'tkazish;
- olingan bilimlardan asosiy muammolarni, farmatsevtika, metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti sohasi rivojlantirish yo'nalishlarini va istiqbollarni tushunishda foydalanish v.b. *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
- farmatsevtika biznesini zamonaviy axborot bilan ta'minlash manbalaridan foydalanish usullari;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, oliy ta'limning maxsus terminologiyasidan va lug'atdan foydalangan holda yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish;
- o'quv, ma'lumotnoma, adabiyotlar bilan ishlash, ma'lumotni tizimlashtirish va undan aniq kasbiy muammolarni hal qilishda foydalanish ko'nikmalari;
- global farmatsevtika bozorida ro'y berayotgan global jarayonlar va muammolarni tushunish;
- Faoliyatning turli sohalarida metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti hamda farmatsevtik bilimlarning asoslaridan foydalanish, ijtimoiy, etnik, konfessiyaviy va madaniy farqlarni bardosh bilan qabul qiladigan jamoada ishlash;
- kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilish;
- olingan bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

3. Asosiy qism

3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

1- mavzu. Modulning maqsadi va vazifalari. Mutaxassislikka kirish modulini umumiy tavsifi. Kasbiy faoliyat sohasi. Bitiruvchining ilmiy, tashkiliy va ishlab chiqarish faoliyati. Bitiruvchining malaka xususiyatlari. Butun o'quv jarayoni davomida o'rganilgan modullarning qisqacha tavsifi. "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti" ixtisosligi uchun maxsus modullar. Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (farmatsevtika sohasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim yo'nalishi istiqboli

2- mavzu. Farmatsevtika sohasi va uning rivojlansh tarixi. Farmatsevtika sohasi, tarixi. Farmatsevtika va tibbiy ramzlar va emblemalar. Ibtidoiy jamiyat va qadimgi dunyo davrida tibbiyot va t farmatsevtika: O'rta asr oxirlarida farmatsevtika va tibbiyot. Uyg'onish va Islohot davrida dorixona va tibbiyot.

3-mavzu. O'zbekistonda farmatsevtika sohasining rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sohasining rivojlanish tarixi, uning bosqichlari va bugungi kuni.

4-mavzu. O'zbekistonda farmatsevtika ta'limining shakllanishi. Toshkent farmatsevtika institutning tashkiliy tuzilmasi. Institut tarixi va rivojlanish yo'nalishlari. Toshkent farmatsevtika institutning tashkiliy tuzilmasi. Institut tarixi va rivojlanish yo'nalishlari. O'quv jarayonining turlari va shakllari. Institutda talabalar ishini tashkil etish. Bitiruvchilarni yakuniy davlat attestatsiyasi.

5-mavzu. Farmatsevtik faoliyat haqida tushuncha. Farmatsevtik faoliyat turlari. Farmatsevtik faoliyat haqida tushuncha. Farmatsevtik faoliyat turlari. Farmatsevtik faoliyatni

qonuniy asoslari. Farmatsevtikdagi asosiys tushunchalar va ularning ta'rifi. Original dori vositalari. Generik dori vositalari.

6 - mavzu. Sifat tushunchasi. Farmatsevtikada sifat. Farmatsevtikada sifat tushunchasi. Asosiy atamalar. Dori vositalari sifatini ta'minlash tizimi bu eng avvalo dori vositalarining xavfsizligi, xom ashyo va oraliq maxsulot sifati, texnologik jarayon, asbob-uskunalar, tahlil usullari, mutaxassislar kvalifikatsiyasi, me'yoriy hujjatlar va xokazo (GMP, GLP, GCP, GDP, GPP, GRP, GXP), dori vositalar sifati, faolligi, xavfsizligi, sifatini ta'minlash, sifatni ta'minlash tizimi, dori vositalar sifat mezonlari, standart operatsion jarayon, sifat spetsifikatsiyasi, nazorat strategiyasi, farmatsevtik sifat tizimi)

7 - mavzu. Farmatsevtikada metrologiya. «Metrologiya to'grisida» gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (1993 yil 28 dekabr). Asosiy atamalar. Farmatsevtik taxlilda metrologik usullarning qo'llanilishi. Taxlil natijalarining ishonchliligi. O'lchash xatoliklari. Mhlarning metrologik nazorati, tekshirilayotgan ko'rsatkichlarni aniqlash, ularni baholash, tahlil qilish, tahlil usullarini va asboblarini tanlash, ularning davlatlararo standartlar, davlat standartlari talablariga javob berishini aniqlash. Metrologik ekspertiza maqsad va vazifalari, ekspertizadan o'tishi kerak bo'lgan hujjatlar, O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablar.

8- mavzu. O'zbekistonda dori vositalarini standartlash va sertifikatlash tizimi va rivojlanish istiqbollari. Dori vositalarining sifatiga qoyilgan talabar. O'zbekistonda dori vositalarini standartlash tizimi va rivojlanish istiqbollar. Standart. Standart namunalar. Standartlash usullari, me'yoriy hujjatlari. Dori vositalarining sifatini baholash va nazorat qilish. Dori vositalarining sifatini baholashning asosiy bosqichlari va usullari. Sertifikatsiya tushunchasi, obekti, subekti va maqsadi. Sertifikatsiyalash uchun asosiy talablar. Mahsulotni sertifikatlashdagi bosqichlari. Sertifikatlash shartlari. Majburiy sertifikatlash. Ixtiyoriy sertifikatlash. Standartlash va sertifikatlash moduli.

9-mavzu. O'zbekiston Respublikasida sanoat farmatsiyasining rivojlanish istiqbollari. Zamonaviy sharoitda O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatining rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatining shakllanishi. Sanoat farmatsiyasining rivojlanishidagi milliy xususiyatlar. Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalari. Ularning tuzulishi. Sanoat miqyosida ishlab chiqariladigan dori turlari tahlilining o'ziga xosligi.

10-mavzu. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha mutaxassis haqida umumiy ma'lumotlar va uning va vazifalari. Umumiy ma'lumotlar, kasbiy standartga kiruvchi mehnat vazifalarining ta'rifi, Umumlashtirilgan mehnat vazifalari tavsifi. Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va sanoat ob'ektlari namunalarini tanlash va hisobga olish bo'yicha ishlarni olib borish. Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish vositalarini sinovlarini (laboratoriya ishlarini) boshqarish.

11-mavzu. Dori vositalari sifatini ta'minlash va boshqarish modulining mohiyati. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida dori vositalarining sifatini ta'minlash bo'yicha mutaxassis. Dori vositalari sifatini ta'minlash va boshqarish modulining mohiyati, maqsad va vazifalari. Dori vositalari sifatini ta'minlash va boshqarish modulini o'rganishdan asosiy maqsad bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sohasi uchun xalqaro standartlarni joriy etishni o'rgatadi. Umumiy ma'lumotlar, kasbiy standartga kiruvchi mehnat vazifalarining ta'rifi, Umumlashtirilgan mehnat vazifalari tavsifi. Dori vositalarini ishlab chiqarishda farmatsevtika sifat tizimi bilan bog'liq ishlarni bajarish. Dori vositalarini sanoat ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni birga olib borish va ishlab chiqish. Dori vositalarini ishlab chiqarish uchun farmatsevtik sifat tizimi jarayonlarini boshqarishni tashkil etish.

12-mavzu. Dori vositalarini ishlab chiqarish validatsiyasi moduli. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) bo'yicha mutaxassis. Dori vositalarini ishlab chiqarish validatsiyasi modulining mohiyati, maqsad va vazifalari. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) bo'yicha mutaxassis haqida umumiy ma'lumotlar va uning va vazifalari Umumiy ma'lumotlar, kasbiy standartga kiruvchi mehnat vazifalarining ta'rifi, Umumlashtirilgan mehnat vazifalari tavsifi. Dori vositalarini ishlab chiqarish

sohasida validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) ni amalga oshirish. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) ni boshqaruvi

13-mavzu. Farmatsevtik injenering va biotexnologiya modullari, asosiy termin va tushunchalari, me'yoriy hujjatlar. Farmatsevtik injenering va biotexnologiya modullari, tarixi, unda qo'llaniladigan asosiy termin va tushunchalar. Dori moddasi, dori turi va dori preparati tushunchalari. Dorilarni tayyorlashga, sifatini baholashga taalluqli me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish. Dori tayyorlash jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalar, ishlash prinsiplari.

14-mavzu. Tibbiy-biologik modullarining mohiyati, maqsad va vazifalari. Farmakologiya va klinik farmatsiya modulining tuzilishi, nazariy asoslari, ob'ektlari va terminologik tizimi. Farmakologiyaning qisqacha tarixi, vazifalari va muammolari. Farmakologik terminlar. Mikrobiologiya haqida tushuncha va rivojlanish tarixi. Umumiy bakteriologiya: bakteriyalar klassifikatsiya va morfologiyasi

15-mavzu. Farmatsevtik kimyo va farmakognoziya modullarning farmatsevtika sohasidagi o'rne va rivojlanish istiqbollari. Farmatsevtik kimyoning tuzilishi, nazariy asoslari, ob'ektlari va terminologik tizimi. Zamonaviy farmatsevtik kimyoning qisqacha tarixi, vazifalari va muammolari. Dori vositalarni olish usullari. Farmatsevtik tahlilda qo'llaniladigan reaktivlar, indikatorlar, titrlangan, bufer. eritmalarni tayyorlash va titrini aniqlash usullari. Dori moddalarining umumiy farmakopeyaviy tahlil usullari. Dori moddalarining tasvirlanishi va eruvchanligini aniqlash usullari. Dori moddalarining chinligini aniqlashning xususiy va umumiy usullari. Umumiy va xususiy yot moddalarini aniqlash usullari. Farmakognoziya moduli dorivor o'simliklarni izlab topish, morfologiyasini o'rganish, biofaol moddalarini kimyoviy va sifat reaksiyalarini o'rganadi. O'simliklarni biofaol moddalariga qarab tasniflanishi, qo'llanilishi kabi vazifalar tushuntiriladi.

16 -mavzu. Toksikologik kimyo modulining mohiyati, maqsad va vazifalari. Toksikologik kimyo tuzilishi, nazariy asoslari, ob'ektlari va terminologik tizimi. Zamonaviy toksikologik kimyoning qisqacha tarixi, vazifalari va muammolari. Toksikologik kimyoda ishlatiladigan usullar.

17 -mavzu. Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va Farmatsevtik ishlab chiqarishda marketing va menejment modullarning mohiyati, maqsad va vazifalari. Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va Farmatsevtik ishlab chiqarishda marketing va menejment modullarning mohiyati, maqsad va vazifalari hamda muammolari. Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va Farmatsevtik ishlab chiqarishda marketing va menejment modullarning farmatsevtik ishlab chiqarish sohasidagi o'rne va rivojlanish istiqbollari

18-mavzu. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari va kelgusidagi istiqbollari ta'lim. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari va kelgusidagi istiqbollari ta'lim. Talabalar ilmiy jamiyati. Iqtidorli talabalar bo'limi. Davlat stipendiyalari. Kurs ishi va bitiruv ishini yozish va dizayniga qo'yiladigan talabalar, malaka ishlari.

3.2. Moduldagi seminar mashg'ulotlari mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsifalar:

3.2.1. Seminar mashg'ulotlarining mavzular ro'yhati:

1-mavzu. Modulning maqsadi va vazifalari. Mutaxassislikka kirish modulini umumiy tavsifi

2-mavzu. Farmatsevtika sohasi va uning rivojlanish tarixi O'zbekistonda farmatsevtika sohasining rivojlanish bosqichlari

3-mavzu. O'zbekistonda farmatsevtika ta'limining shakllanishi. Toshkent farmatsevtika institutning tashkiliy tuzilmasi. Institut tarixi va rivojlanish yo'nalishlari

4 - mavzu. Sifat tushunchasi. Farmatsevtikada sifat. Farmatsevtikada metrologiya

5- mavzu. O'zbekistonda dori vositalarini standartlash va sertifikatlash tizimi va rivojlanish istiqbollari. O'zbekiston Respublikasida sanoat farmatsiyasining rivojlanish istiqbollari

6-mavzu. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha va sifatini ta'minlash, validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) mutaxassislar haqida umumiy ma'lumotlar va uning va vazifalari

7-mavzu. Farmatsevtik injenering, biotexnologiya va tibbiy-biologik modullarining mohiyati, maqsad va vazifalari

8-mavzu. Farmatsevtik kimyo, toksikologik kimyo va farmakognoziya modullarning farmatsevtika sohasidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari

9-mavzu. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari va kelgusidagi istiqbollari ta'lim

3.2.2. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Seminar mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'yidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Seminar mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

O'quv amaliyotni o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan:

1. farmatsevtika biznesini zamonaviy axborot bilan ta'minlash manbalaridan foydalanish usullari;
2. Kasbiy faoliyatni axloqiy me'yorlar va farmatsevtika etikasi va deontologiyasining axloqiy tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshirish
3. zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, oliy ta'limning maxsus terminologiyasidan va lug'atdan foydalangan holda yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish;
4. o'quv, ma'lumotnoma, adabiyotlar bilan ishlash, ma'lumotni tizimlashtirish va undan aniq kasbiy muammolarni hal qilishda foydalanish ko'nikmalari;
5. global farmatsevtika bozorida ro'y berayotgan global jarayonlar va muammolarni tushunish;
6. Faoliyatning turli sohalarida metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti hamda farmatsevtik bilimlarning asoslaridan foydalanish, ijtimoiy, etnik, konfessiyaviy va madaniy farqlarni bardosh bilan qabul qiladigan jamoada ishlash;
7. kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining a sosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilish;
8. olingan bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yhati:

UK 1¹. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va axloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UKK 1¹. Zamonaviy kompyuter vositalari, tarmoq texnologiyalari, ma'lumotlar bazalari va bilimlardan foydalangan holda ilmiy va professional ma'lumotlarni qidirishning amaliy qobiliyatiga ega;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Farmatsevtik hujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

UKK 4. Faoliyatning turli sohalarida farmatsevtik bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UKK 5. Kasbiy faoliyatni axloqiy me'yorlar va farmatsevtika etikasi va deontologiyasining axloqiy tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshirish qobiliyati;

¹UK- umumiy kompetentsiya

²UKK – umumiy kasbiy kompetentsiya

UKK 6. Faoliyatini aks ettirish asosida o'zini takomillashtirish va o'zini rivojlantirish qobiliyati, yangi vaziyatlarga moslashish, to'plangan tajribani haddan tashqari baholay olish, uning imkoniyatlarini tahlil qilish, yangi g'oyalarni (ijodkorlik) shakllantirishga moyilik.

Modul davomida o'quv(klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar: Mutaxassislikka kirish modulidan o'quv(klinik) amaliyot rejalashtirilmagan

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yhati:

1. Hozirgi zamon farmatsevtika modullarining rivojlanish tarixi
2. O'zbek farmatsevt olimlariuning soha rivojiga qo'shgan hissasi
3. Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti sohasi rivojiga hissa qo'shgan olimlar
4. Rivojlangan davlatlarda farmatsevtik sifat tizimida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar
5. O'zbekiston farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalari va ularning turlari
6. Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalari sifat bo'limlari tashkiliy tuzulishi
7. Sifat bo'yicha xalqaro va milliy tashkilotlar
8. Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti sohasining jahon hamjamiyatdagi rivojlanish istiqboli

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan modulning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modullar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, biologik tekshiruv asboblari, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqotishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan modullar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- keys (real vaziyatli masalalar asosida case-study) echish.
- grafik organayzerlarni ishlab chiqish va to'ldirish;
- maqola va tezis yozish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo'llash.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Mutaxassislikka kirish moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda qo'yidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajer, mulyaj va simulyasion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning (fanning) bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va farmatsevtik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;

- CASE (real farmatsevtik vaziyatlar va farmatsevtik vaziyatli masalalar asosida case-study) echish;
 - modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.
 - Talabaniq mustaqil ishi o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kengaytirilgan ma'lumotlarni yig'ish, buning uchun axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish, olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish va aniq dori vositasining sifatini nazorat qilishda qo'llay olishdan iborat bo'lib, uning turlari va shakllari turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar talabaniq mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha kafedrada ishlab chiqilgan va muntazam yangilanib boradigan uslubiy qo'llanmalarda keng yoritilgan.
 - Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbaalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.
- Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:** "Mutaxassislikka kirish modulidan kurs ishi (loyihasi) rejalashtirilmagan

2-MA'RUZA. FARMATSEVTIKA SOHASI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI.

Ma'ruza rejasi:

1. Farmatsevtika sohasi, tarixi.
2. Farmatsevtika va tibbiy ramzlar va emblemalar.
3. Ibtidoiy jamiyat va qadimgi dunyo davrida tibbiyot va farmatsevtika: Bobil, Misr, Xitoy, Hindiston, Tibet, Yunoniston, Rim

Tayanch so'z va iboralar: *Farmatsevtika, farmatsevt, Ibn Sino, Aristotel, Gippokrat, Galen, farmatsiya, farmatsevtik korxonalar, dori shakli*

Farmatsevtika - bu dorivor moddalar va moddalarni ishlab chiqarish jarayonining ishlab chiqarish va texnologik muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan farmatsiyaning bir qismi.

Ma'lumki, farmakologik xususiyatlarga ega bo'lgan ko'plab kimyoviy birikmalar o'zlarining davolanmagan holatlarida foydasiz yoki zararlidir. Farmatsevtika preparatlari bunday moddaga ma'lum bir davolash usuli va foydalanish uslubiga ega bo'lgan bemorlarning ma'lum bir guruhini davolash uchun mos keladigan noyob doza shaklini beradi.

"Farmatsevtika" va "farmatsiya" ni turli xil tarixiy bosqichlar, dori-darmonlarni ishlab chiqarishga ikki xil yondoshish sifatida ko'rish mumkin. Asrlar davomida dorixonalar tomonidan qo'llanilib kelinadigan an'anaviy usul, cheklangan miqdordagi dori-darmonlarni tayyorlash va tarqatish uchun "dorixonalar" (dorixonalar) ning "jimlig" sharoitida samarasiz qo'l mehnati (asosan, dori-darmonlarga bo'lgan mahalliy ehtiyojni qondirishga qaratilgan) iborat. Shu tarzda olingan dorilar yetarli darajada standartlashmaganligi bilan ajralib turadi, ko'pincha ularni qabul qilgan bemorlarda istalmagan yon reaksiyalarni keltirib chiqaradi.

Ushbu samarasiz (global savdo maqsadlari uchun) usulning nomukammalligi 19-asrning boshlarida, birinchi marta (AQShda) ommaviy ravishda standartlashtirilgan, yuqori samarali va iqtisodiy jihatdan ancha foydali dori-darmonlarni sanoat ishlab chiqarishi paytida aniq bo'ldi. Dorixonalar farmatsevtika rivojlanishining yangi texnologik bosqichiga, dori vositalari va dorivor moddalarni ishlab chiqarishning zamonaviy uslubiga aylandi.

Dorixonalar - lotincha "farma" dan - tibbiyot, ya'ni dorixonalar tibbiyot haqidagi fan. "Apoteka" so'zi kelib chiqishi yunoncha. Uning asl ma'nosi ixtisoslashgan yoki umumiy do'kon yoki ombor. Biroq, vaqt o'tishi bilan semantik yuk o'zgardi va endi bu so'z barcha tillarda sog'liqni saqlash

muassasasi, zamonaviy ma'noda dorixona degan ma'noni anglatadi. Dorixona o'sha qadimgi zamonlarda paydo bo'lgan, odamlar o'z kasalliklarini davolash uchun vositalarni izlay boshlaganlar. Dorixonalarni (apoteka) dori-darmonlarni saqlash joyi sifatida birinchi marta eslatib o'tamiz, biz Gippokratda (miloddan avvalgi 400 yilda) uchrashamiz. Klavdiy Gallen (mil. 131-207) dorixona (officina) nafaqat saqlash uchun, balki dorivor preparatlarni ishlab chiqarish uchun joy sifatida gapiradi. Evropada birinchi dorixonalar milodiy 1100 yilda paydo bo'lgan. e. Monastirlarda. Rohiblar dori-darmonlarni tayyorlab, muhtojlarga bepul tarqatishdi. Shu bilan birga, retseptlar birinchi marta "Cum Deo!" So'zlari bilan boshlangan paydo bo'ldi. (Xudoning marhamati bilan!). Faqat 100 yil o'tgach, Venetsiyada Solerna tibbiyot maktabining rivojlanishi tufayli birinchi shahar dorixonalari ochila boshladi. Ular uchun mutaxassislar shogird-shogird-usta sxemasi bo'yicha o'sha paytda keng tarqalgan amaliy usul bilan tayyorlandi. Ushbu zanjirning o'tishi talabaning tirishqoqligi va qobiliyatiga qarab 10 yildan 15 yilgacha davom etdi. 11-asrning oxirigacha Evropada hech qanday dorixonalar mavjud emas edi, chunki u erda kerakli mahsulotni sotib olish yoki buyurtma qilish mumkin bo'lgan savdo muassasalari mavjud edi. Odamlar shu maqsadda o'simliklarni, minerallarni va boshqa ingredientlarni yig'ish va qayta ishlash orqali o'zlarining "tayyorgarliklarini" yaratdilar. Shu bilan birga, aniq sabablarga ko'ra ikki xil "mutaxassis" dan bir xil vositani topish mumkin emas edi: ularning har biri o'zlarining g'oyalari va afzalliklari bo'yicha g'iyohvand moddalar ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. O'sha paytdagi uslubiy va tizimli yondashuvlar bo'yicha eng ilg'or laboratoriyalarda va monastirlarda maktablarda ishlagan rohiblar edi. Hech bo'lmaganda, o'sha erda monastir olimlari tomonidan to'plangan va o'rganilgan g'iyohvand moddalar va dorivor o'simliklarga oid farmakopeya maqolalari to'plamidan boshqa hech narsa bo'lmagan dastlabki manbalar saqlanib qolgan. Ushbu qo'lyozmalarda o'simliklarni yig'ish va etishtirish metodologiyasi, ularni qayta ishlash usullari va terapevtik foydalanish bo'yicha tavsiyalar batafsil bayon etilgan. Darhaqiqat, biz aytishimiz mumkinki, Evropa farmatsevtika maktabi monastirlik kiyimi bo'lgan ushbu noma'lum farmatsevtlarga qarzdor. "Apoteka" terapevt, jarroh, farmatsevt va professor bo'lgan bitta monastir maktablari Bolonya, Parij, Oksford, Salamanka, Praga, Geydelberg va boshqa Evropadagi davlat universitetlarining ilmiy imkoniyatlarini ushlab turolmadi. cho'qqisi XIII asr o'rtalariga to'g'ri kelgan shaharlar. O'sha paytda juda mashhur bo'lgan yuzlab turli xil dori-darmonlarni va ulardan foydalanish usullarini o'z ichiga olgan arab farmatsevtika maktabi Italiya va Frantsiya universitetlarida ham shifokorlar, ham talabalar tomonidan faol o'rganilmoqda. Dorixonalarda arab maktabining tarafdorlari har qanday joyda aromatarii, qandolat mahsulotlari va statsionarlarni, ya'ni har xil, har xil va mazmundagi mur va fors qo'lyozmalariga muvofiq tuzilgan tuzlar, haplar va kukunlarni hidlaydilar. "Farmatsevt" atamasi - Lotin provizatori - bu farmasevtning davolanish jarayonida muhim roli haqida gapiradigan, bashorat qiladigan, taxmin qiladigan, shifokor tashxis qo'yadi va farmatsevt kasallikning yo'nalishini oldindan biladi va dorilar yordamida oldindan belgilaydi, tuzatadi kurs va undan keyingi rivojlanish. Ispaniyada birinchi to'liq farmakopeya ishlab chiqarildi - bu dorilarni tayyorlash qoidalari to'plami.

Qadimgi tibbiyot adabiyotlariga ko'ra, davolash muassasalarida dorilarni tayyorlash bo'yicha maxsus laboratoriya (dorixonalar) mavjud bo'lganligi azaldan ma'lum. Ular Qadimgi Misr, Xitoy va Hindistonda davolash muassasalarida eramizdan bir necha asr ilgari tahlil ishlarini olib borishgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, birinchi mustaqil davlat tomonidan cheklangan dorixona 754-yili Bag'dod shahrida ochilgan. Bunday dorixonalar keyinchalik boshqa davlatlarda ham paydo bo'la boshladi, jumladan, XI asrda Ispaniyaning Kordova va Toledo shaharlarida, XIII—XIV asrlarda esa Puza va Tallin shaharlarida bunday dorixonalar ochildi.

Hozirgi O'zbekiston hududida va umuman, O'rta Osiyoda qadimdan tibbiyot muassasalarida, dorixona-laboratoriyalarida bemorlar uchun dorilar tayyorlanganligi ma'lum. Bular to'g'risida qadimiy qo'lyozmalarda ma'lumotlar bor va arxeologik qazilmalar materiallari ham buni to'liq tasdiqlaydi. Alohida ta'kidlash lozimki, G'azna (X asr), Samarqand (XI asr), Hirot (XV asr), Buxoro (XVII asr) shaharlaridagi shifoxonalarda dorixonalar bo'lganligi yozib qoldirilgan. O'z davrining taniqli tabiblaridan bo'lgan Abu Hamid an-Naxshabiy Hirot shifoxonasida ishlab, dori moddalarining ta'sirini chuqur va har tomonlama o'rgangan. U o'z ma'lumotlarini umumlashtirib,

Abu Rayhon Beruniy bilan mingdan ortiq dorivor o‘simliklar va mineral moddalar xossalarini aks ettirgan «Kitob as-Saydana fit tib» kitobini yaratdi.

Tibbiyot ravnaqiga Aristotel, Hippokrat, Galen va o‘z davrining mashhur olim va tabiblari qatori, jahon fani, xususan, tabobat ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan Markaziy Osiyo tuprog‘idan yetishib chiqqan, vatandosh allomalarimizdan biri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sinoning tabobatdagi xizmatlari buyukdir. U o‘z asarlarida eng qadimgi fanlardan biri bo‘lgan tib- biyotning o‘zidan oldingi ming yillik taraqqiyotiga yakun yasabgina qolmay, uni yangi, yuqori bosqichga ko‘tardi, o‘z kuzatuvlari bilan boyitdi, hatto bu fanning keying asrlarda erishgan bir qancha yutuqlarini oldindan ko‘ra bildi. Ibn Sinoning tabobat va dorishunoslikka oid eng yirik shoh asari «Tib qonunlari» kitobi hisoblanadi. Uzoq vaqt mobaynida tibbiyot fanining mufassal qomusi hisoblangan bu asarda inson sog‘lig‘i va kasalliklariga oid barcha masalalar mantiqiy tartibda to‘la bayon qilingan.

«Tib qonunlari» asari anatomiya, fiziologiya, patologiya, terapiya, farmatsiya, gigiyena va boshqa masalalarni o‘z ichiga oladi. Besh jildli bu kitobning ikkitasi oddiy va murakkab dorilar to‘g‘risida bo‘lib, Ibn Sino 758 ta o‘simliklar, hayvonotlar va minerallardan dori vositalari tayyorlash, saqlash va ishlatilishini to‘liq va batafsil bayon qilgan. Ibn Sinoning bu asari Yevropada 5 asr mobaynida, har bir shifokorning ish joyida, ularning mehnat faoliyati uchun zarur va kerakli bo‘lgan o‘quv-amaliyot quroli bo‘lib xizmat qilgan.

Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, har bir dorida o‘zining ta‘sir etish xususiyati bo‘lib, bu xususiyat odam organizmida o‘zgarishga uchraydi. Bunda Ibn Sino o‘sha zamondagi dorilar haqidagi nazariy tushunchaga asoslangan. O‘rta asrlarda dorilarning xususiyati va ta‘siri nazariy jihatdan quyidagicha tushunilgan: har bir dori qabul qilingandan so‘ng inson tanasida undagi tug‘ma harorat ta‘sirida faollashadi. Undagi quvvat potentsiali holatidan kinetik holatga o‘tadi. Shundan keyingina Ibn Sino dori ta‘sirini sinab ko‘rish kerakligini ta‘kidlaydi. Ibn Sino zamonida dorilar o‘simliklar va hayvon a‘zolaridan olingan. Uning o‘zi ham, asosan, shu uch manbani ko‘rsatgan. U o‘simliklardan olinadigan dorilarga ko‘proq ahamiyat bergan. Ularni qay vaqtda yig‘ish, qanday sharoitda quritish, saqlash va ishlatish usullarini to‘liq bayon qilgan. X asrning oxiri — XI asrning boshlarida Xorazmdagi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy va ijtimoiy yuksalish, ilm ahliga hurmat-e‘tibor, mehr-muruvvat o‘sha davrning eng mashhur va ko‘zga ko‘ringan olimlarini Gurganchda to‘pladi. Abul Abbas Ma‘mun ibn Ma‘mun taxtga o‘tirgach, Xorazm shohlar saroyidagi ilmiy an‘analarni davom ettirib, olimlarga alohida e‘tibor bilan qaradi va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Manbalarda Ma‘mun saroyida olimlarning katta guruhi to‘planganligi va Xorazmshoh ularga homiylik qilgani e‘tirof etilgan.

farmatsiya –dori vositalarining xususiyatlari, muomalasi va dori turlarini tayyorlashni har taraflama o‘rganadigan fan.

farmatsevt -dorishunos mutaxassis. Xozirgi kunda oliy ma‘lumotli mutaxassis tushuniladi (assistent farmatsevt - o‘rta maxsus ma‘lumoti bo‘lgan mutaxassis).

farmatsevtik korxonona -dori moddalari, dori vositalari yoki shakllarini ishlab chiqarish bo‘yicha sanoat korxonasi;

3-MA`RUZA. O`ZBEKISTONDA FARMATSEVTIKA SOHASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

Ma'ruza rejasi:

1. O‘zbekistonda Farmatsevtika sohasining rivojlanish tarixi
2. Farmatsevtika sohasiga hissa qo‘shgan allomalar
3. O‘zbekistonda sanoat farmatsevtika sohasining rivojlanish istiqbollari

Tayanch so‘z va iboralar: *jahon fani, dorixonona, dori saqlash muddati, sanoat farmatsiya.*

Hozirgi O‘zbekiston hududida va umuman, O‘rta Osiyoda qadimdan tibbiyot muassasalarida, dorixonona-laboratoriyalarida bemorlar uchun dorilar tayyorlanganligi ma‘lum. Bular to‘g‘risida

qadimiy qo'lyozmalarda ma'lumotlar bor va arxeologik qazilmalar materiallari ham buni to'liq tasdiqlaydi. Alohida ta'kidlash lozimki, G'azna (X asr), Samarqand (XI asr), Hirot (XV asr), Buxoro (XVII asr) shaharlaridagi shifoxonalarda dorixonalar bo'lganligi yozib qoldirilgan. O'z davrining taniqli tabiblaridan bo'lgan Abu Hamid an-Naxshabiy Hirot shifoxonasida ishlab, dori moddalarining ta'sirini chuqur va har tomonlama o'rgangan. U o'z ma'lumotlarini umumlashtirib, Abu Rayhon Beruniy bilan mingdan ortiq dorivor o'simliklar va mineral moddalar xossalarini aks ettirgan «Kitob as-Saydana fit tib» kitobini yaratdi. Tibbiyot ravnaqiga Aristotel, Gippokrat, Galen va o'z davrining mashhur olim va tabiblari qatori, jahon fani, xususan, tabobat ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Markaziy Osiyo tuprog'idan yetishib chiqqan, vatandosh allomalarimizdan biri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sinoning tabobatdagi xizmatlari buyukdir. U o'z asarlarida eng qadimgi fanlardan biri bo'lgan tibbiyotning o'zidan oldingi ming yillik taraqqiyotiga yakun yasabgina qolmay, uni yangi, yuqori bosqichga ko'tardi, o'z kuzatuvlari bilan boyitdi, hatto bu fanning keyingi asrlarda erishgan bir qancha yutuqlarini oldindan ko'ra bildi.

Abu Ali ibn Sino (Avisenna)

Avisenna nomi bilan tanilgan, ensiklopedist-olim, faylasuf va shifokor Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Hasson ibn Ali ibn Sino (980-1037) Sharq va Yevropa davlatlari olimlari orasida yuksak nufuzga ega bo'lgan.

Avisenna 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Buxoroda u madrasaga o'qishga kirdi, u yerda Qur'onni va grammatika, stilistika va she'riyatni o'rgandi. Ibn Sino yoshligida Buxoroning eng boy kutubxonalaridan keng foydalanishi uning tibbiy va umumilmiy tayyorgarligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ibn Sino o'sha paytda Sharqning eng ilg'or madaniy markazi bo'lgan Somoniylar davlatining iqtisodiy va madaniy gullab-yashnashi davrida olim sifatida shakllangan va rivojlangan. Siyosiy voqealar tufayli XI asrga kelib ushbu madaniy markaz qo'shni Xorazmga ko'chib o'tganda, Ibn Sino bu yerda tashkil etilgan olimlarning birlashmasiga, ya'ni Ma'mun akademiyasiga a'zo bo'ldi. Ibn Sino ushbu "akademiyada" eng taniqli olim Al Beruniy, taniqli shifokor Abul-Hasan-Xammar bilan birga ko'rsatgan faoliyati uning ijodiy va ilmiy faoliyatining eng samarali davriga to'g'ri kelgan. 1017 yildagi yangi siyosiy voqealar tufayli Ibn Sino Xorazmdan qochadi. Keyinchalik uning ilmiy va amaliy tibbiyotdagi faoliyati va hayoti Eronning Hamadon va Isfaxon shaharlarida kechdi. Bu yerda u kasalxonaga asos soldi. Bir muncha vaqt mobaynida u davlat ishlari bilan ham mashg'ul bo'lgan. Ibn Sino falsafa, matematika, fizika, astronomiya, kimyo va boshqa ko'plab sohalarda ko'plab ishlarni qoldirdi. Ammo tibbiyot va dorishunoslik sohasida, birinchi navbatda, dunyoga mashhur "Tib qonunlari" ularning eng sarasi hisoblanadi. Ko'p asrlar (600 yil) mobaynida bu asarning arab, fors, turk tillarida Sharq mamlakatlarida, lotin tilida barcha G'arbiy Yevropa universitetlarida tibbiyotni o'rganishda majburiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. "Tib qonunlari"ning lotin tilidagi eng ishonchli tarjimasini Plempiyga tegishli bo'lib, u 1658 yilda L'vovda nashr etilgan.

"Tib qonunlari" 1019-1020 yillarda yozilgan. Unda Ibn Sino 20 yil davomida to'plangan va tizimlangan barcha ma'lumotlar aks ettirilgan. "Tib qonunlari" beshta kitobdan iborat bo'lib, anatomiya, fiziologiya, patologiya, terapiya, jarrohlik, gigiena, ovqatlanish masalalarini qamrab oladi.

Asosiy reseptlar tahlili shuni aniq ko'rsatadiki, Ibn Sino o'zining salafiy merosxo'ri va davrining tibbiyot darajasini bilgan. Masalan, murakkab dorilar uchun resept alifbo tartibida emas, balki 70 dan ortiq komponentlardan tashkil topgan eng murakkab preparatlarni yozishdan boshlangan.

Keyinchalik oddiy reseptlar va ularning tayyorlash usullari izchil ta'rifi kelgan. Beshinchi kitobning birinchi qismida "Farmakopeyada joylashgan murakkab dorilar to'g'risida" deb nomlangan. Bu eng keng hajmli va X asrgacha qo'llanilgan barcha murakkab dorilarni (katta taryoqlar va taryoq uchun kulchalar, katta va kichik bo'tqalar, kukunlar, yalash uchun dorilar, siroplar va quyultirilgan sharbatlar, pilyulalar, moylar, plastirlar va boshqalar) tavsiflovchi 12 ta mustaqil maqolalardan iborat. Jami 508 murakkab dorilarni tarkibi va tayyorlash usullari jamlangan. Ibn Sino qaynash, kuydirish, sovutish, yuvish, ratifikasiya qilish va aralashtirish kabi texnologik jarayonlarni dori vositalari —kuchil (terapevtik faolligiga) ta'sirini o'rganib chiqdi. U

kimyoga qiziqqan va bu sohada ko'p ishlagan. U fermentasiya, koagulyasiya, erish, sublimasiya kabi kimyoviy jarayonlar bilan tanish edi.

Dori saqlash muddati aniqlashga katta e'tibor berdi. U uzoq muddatli saqlashni dori vositasi samaradorligini pasaytirishiga haqli ravishda ishongan. Ibn Sinoning aytishicha, "issiq iqlim sharoitida dorilar sovuqdan ko'ra qisqa muddatda o'z hususiyatlarini saqlab qoladi". "Tib qonunlari"ning muallifi og'riqni yengillashtiradigan yoki kamaytiruvchi dorivor moddalarning tibbiy amaliyotida o'rganish va tatbiq etishda katta ahamiyatga ega. Bu anesteziologiyaning dastlabki bosqichlari edi. U dori vositalarining giyohvandlik va og'riqsizlantiruvchi xususiyatlariga ega bo'lishini bilgan va ulardan foydalangan. Masalan, belladonna, dolchin, mandragora, afyun, sovuq, qorni og'riqsizlantiruvchi vosita sifatida qo'llagan.

Shunday qilib, Ibn Sino mashhur O'rta Osiyo olimi bo'lib, uning asarlari uzoq asrlar davomida tibbiyot fanining nazariy va amaliy asoslari sifatida xizmat qilgan. Uning "Tib qonunlari" ko'p marta qayta nashr etilgan va XVII asrga qadar Yevropa va Sharq mamlakatlaridagi oliy o'quv yurtlarida o'ta muhim qo'llanma bo'lib kelgan.

Ibn Sino zamonida dorilar o'simliklar va hayvon a'zolaridan olingan. Uning o'zi ham, asosan, shu uch manbani ko'rsatgan. U o'simliklardan olinadigan dorilarga ko'proq ahamiyat bergan. Ularni qay vaqtda yig'ish, qanday sharoitda quritish, saqlash va ishlatish usullarini to'liq bayon qilgan.

X asrning oxiri — XI asrning boshlarida Xorazmdagi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy va ijtimoiy yuksalish, ilm ahliga hurmat- e'tibor, mehr-muruvvat o'sha davrning eng mashhur va ko'zga ko'ringan olimlarini Gurganchda to'pladi.

Abul Abbas Ma'mun ibn Ma'mun taxtga o'tirgach, Xorazm shohlar saroyidagi ilmiy an'analarni davom ettirib, olimlarga alohida e'tibor bilan qaradi va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Manbalarda Ma'mun saroyida olimlarning katta guruhi to'planganligi va Xorazmshoh ularga homiylik qilgani e'tirof etilgan.

1670-yili Buxoro xoni Subhonqulixon «Dor ush-shifo» shifoxonasini qurdirgan. Xonning o'zi tez-tez u yerga kelib, bemorlarni ko'rgan holda ularga davolashni belgilardi. U yoz paytlarida uchraydigan oshqozon-ichak kasalliklarining oldini olish uchun kunjut (kundut) ishlatishni tatbiq etdi. Demak, bu yerda laboratoriya yoki dorixonona bo'lgan va dorilar tayyorlab, dori vositalarini saqlashgan.

Bekobod shahri atrofidagi Munchoqtepa qo'rg'oni tekshirilganda, o'z tarkibida simob saqlovchi yarimsuyuq holatdagi malham solingan shisha idish topilgan. Ma'lumki, sharq tabobatida turli malhamlar keng qo'llanilgan.

1983-yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi olimlari guruhi shahardan 50 km uzoqda joylashgan Paykend qadimiy qal'a xarobalarida XIII asrga mansub bo'lgan bir imoratni topadilarki, u hamma ko'rsatkichlari bo'yicha o'sha paytdagi dorixonani eslatadi. Bu markaziy xona va ikki laboratoriyadan iborat bo'lib, u yerdan turli shisha, sopol idishlar, mumli shisha idishlar, dumaloq tubli idishlar, qaysiki, yonida yana teshik naylar chiqqan, sferakon idishlar va boshqalar topilgan.

XIX asrning 70-yillarida Turkiston Rossiya qaramog'iga o'tgandan so'ng, bu yerlarda harbiy lazaretlar ochilib, undagi shifo- korlar mahalliy aholiga ham tibbiy yordam ko'rsata boshladi.

1868-yilda Toshkentda harbiy lazaret (shifoxona) ochilib, u 1870-yilda 415 o'rinli harbiy gospitalga aylantirildi. Shu vaqtda xuddi shunday gospitallar Samarqand, Farg'ona, Andijon, Namangan shaharlarida ham ochildi. Bu gospitallar qoshida dorixonalar ham bo'lib, ular o'sha yerda yashovchi aholiga ham erkin ravishda dori-darmon sota boshladi.

1874-yilning mayida Toshkent shahar hokimiyati tomonidan shahar dorixonasi ochildi. Dorixonada kambag'al mahalliy va rus aholisiga dori-darmonlar bepul berilar edi.

1880-yili Toshkent shahrining ruslar yashaydigan qismida Turkiston o'lkasida birinchi bo'lib aholiga erkin holda dori sotiladigan dorixonona provizor I.I. Krauze tomonidan tashkil qilindi. 1901-yilda provizor G.F. Qoplon tomonidan Toshkentda, ya'ni ruslar yashaydigan qismida erkin savdo qiluvchi dorixonona ochildi. 1903-yilda esa eski shaharda uning shoxobchasi (filiali) qilib yana bir dorixonona ochildi. Xuddi shu yillarda Samarqand, Qo'qon, Buxoro, Kogon shaharlarida ham erkin savdo qiluvchi dorixonalar ochildi.

Shunday qilib, Toshkentning ruslar yashaydigan hududida 70 minglik aholiga 11 dorixona xizmat qilsa, mahalliy xalq yashaydigan hududdagi 170000 aholiga 1 ta ham erkin dorixona yo'q edi, faqatgina 1913-yilda eski shaharda birinchi erkin savdo qiluvchi dorixona ochildi. 1917- yilga kelib, O'zbekistonda 46 dorixona bor bo'lib, ulardan 29 tasi shaharda va 17 tasi qishloqda faoliyat ko'rsatgan.

Oktabr to'ntarishidan keyin respublikamizda dorixonalar ishi asta-sekinlik bilan rivojlana bordi. 1922-yil 1-avgustda Toshkent shahrida Sog'liqni saqlash komissariati qoshida dorixona boshqarmasi tashkil qilindi. Bu chora-tadbirlar natijasida shahar va qishloqlarda dorixonalar soni asta-sekin ko'payib, aholini dori-darmonlar, tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash ishlari yaxshilana boshlandi.

O'zbekistonda sanoat farmatsevtika sohasining rivojlanish istiqbollari

Respublikamizda sanoat miqyosida dori preparatlari ishlab chiqish Respublikamiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab juda rivojlana boshladi. Mustaqilligimiz boshida ishlab chiqarish korxonalarini atigi 2 ta bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ular soni 150 taga yaqinlashib qoldi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, Respublika rahbariyati va xukumati tomonidan aholini dori ta'minoti sifatini oshirish va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilashga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar;

Bular –O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996 yil 29-avgustda —Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi va 1997 yil 25-aprelda —Dori vositalari va farmatsevtik faoliyat to'g'risidagi qonunlarni qabul qilinishi va ularni amaliyotga joriy etilishi bilan bu qonunlar ijrosini ta'minlash maqsadida chiqarilgan qator qonunosti hujjatlarida o'z aksini topgan

4-MA'RUZA. O'ZBEKISTONDA FARMATSEVTIKA TA'LIMINING SHAKLLANISHI. TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTINING TASHKILY TUZILMASI. INSTITUT TARIXI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI.

Ma'ruza rejasi:

1. O'zbekistonda farmatsevtika ta'limi haqida ma'lumotga ega bo'lish
2. Farmatsevtika institutining tashkiliy tuzilmasi haqida ma'lumotga ega bo'lish
3. Farmatsevtika institutining rivojlanish tarixi haqida ma'lumotga ega bo'lish

Tayanch so'z va iboralar: *yo'nalish, fakultet, mutaxassislik, kadr.*

1900 yillarida eng dolzarb va muhim masalalardan biri — bu oliy va o'rta farmatsevt mutaxassislarning yetishmasligidir. Shuning uchun joylarda farmatsevtlar yo'qligi sababli, dorixonalarda feldsherlar ishlar va shunga ko'ra, dorixonalar soni kam edi. Bu muammolarni hal qilish uchun O'zbekistonda o'tgan asrning 20-yillarida tibbiy ta'lim va mahalliy kadrlarni tayyorlashga asos solindi. 1918-yili Toshkentda birinchi o'rta tibbiy bilim yurti ochildi va u O'lka musulmonlar tibbiy maktabi deb nomlandi.

1927-yili «Farmatsevtika», «Tish texnigi» bo'limlari, 1929-yili «Akusherlik», keyinroq «Sanitarfeldsherlik» (1935-yil), «Feldsher- laborant» (1951-yil), «Tibbiy hamshira» (1968-yil), «Hamshira ishi mutaxassisi» (1997-yil) kabi bo'limlar ochildi. Bu o'quv dargohida 1927—1940-yillari 632 nafar mutaxassis tayyorlandi. Undan tashqari, 1938—1940-yillarda 112 nafar farmatsevt, ya'ni o'rtama'lumotli mutaxassislari tayyorlandi.

Urushdan keyingi yillarda respublikamizda dorixonalar tarmoqlari tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi.

O'zbekistonda farmatsevtika ta'limining shakllanishi: Farmatsevtlarga ehtiyoj har davrda ham katta bo'lgan. Bu muammo bizning yurtimizda ham mavjud bo'lgan. Dastlab farmatsevtika yo'nalishi O'lka musulmonlar tibbiy maktabi qoshida tashkil etilgan. Keyinchalik mamlakatimiz

hayotida katta o'zgarish, yana bir tarmoqning rivojlanishiga sabab bo'lgan oliy dargoh Farmasevtika instituti tashkil etildi. Bu institut 1937 yil 16-iyulda Sog'liqni saqlash komissariatining 155-buyrug'i asosida tashkil etildi. Toshkent farmatsevtika instituti 83 yil davomida ko'plab oliy ma'lumotli, yuqori salohiyatli kadrlarni yetkazib bermoqda.



Institutning yuqori ilmiy salohiyatini e'tiborga olib, ilmiy izlanishlarni ta'lim yo'nalishlariga to'liq mos kelgan holda farmatsiyaning quyidagi asosiy yo'nalishlariga qaratilmoqda:

Mahalliy dorivor o'simliklar va koordinatsion birikmalar asosida mukammal dori vositalari yaratish va tibbiyot amaliyotiga tadbiiq etish. Amaliyotga joriy etilgan generik dori vositalarini yangi takomillashgan texnologiyalarini ishlab chiqish. Farmatsevtik va toksikologik tahlil usullarini takomillashtirish. O'zbekistonda qayd etilgan dori voitalari va tibbiy buyumlarning marketing va farmakoiqtisodiy tahlili. Fiziologik faol moddalar va biologik faol qo'shimchalarning farmako-toksikologiyasini o'rganish. Institut olimlari olib borgan izlanishlar natijalari asosida 2017 yilda e'lon qilingan ishlar soni 709 bo'lib, shulardan 222 ta maqola va 487 ta tezislar, 4 ta monografiya, 7 ta uslubiy qo'llanma chop etildi, 10 ta ixtironi qayd qilish uchun intellektual mulk agentligiga talabnoma topshirildi. Institut xodimlari tomonidan 2 ta patent olindi, 8 ta patentning amal qilish muddati davom etmoqda.

Instituda bajarilayotgan tadqiqot ishlarining innovatsion ishlanmalar bilan yakunlanishiga alohida ahamiyat beriladi. Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tomonidan e'lon qilinadigan innovatsion va amaliy loyihalar tanlovlarida institut xodimlari o'z ilmiy loyihalari bilan muntazam ishtirok etib, bugungi kunda 6 ta amaliy va 3 ta innovatsion loyihalar ustida ishlar davom ettirilmoqda.

Instituda bajarilgan ilmiy ishlar natijasi 2008-2017 yillarda o'tkazilgan "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasi"da namoyish etildi va 78 nomdagi preparatlar Davlat ma'lumotlar bankiga kiritildi. Instituda yaratilgan ilmiy ishlanmalarining amaliyotga tadbiiqini yanada faollashtirish hamda Respublikamizga kirib kelayotgan dori preparatlarni standartlash maqsadida 2002 yilda "Dori vositalarini standartlash ilmiy markazi" tashkil etildi. Tashkil etilgan vaqtdan boshlab 15 yil davomida ilmiy markaz xodimlari tomonidan institut ilmiy ishlanmalarini amaliyotga tadbiiq bo'yicha katta amaliy va uslubiy yordam berib kelinmoqda. Ilmiy markazda xom ashyo va substansiyani standartlash ishlari amalga oshirildi hamda xom ashyo va substansiyaga VFM loyihalari ishlab chiqilishi keng yo'lga qo'yilgan.

1992-yildan institutda Respublikamizda farmatsevtika fani va amaliyotining ko'zgasiga aylangan "Farmatsevtika jurnali" muntazam ravishda nashr qilina boshladi. Jurnalning www.farjur.uz nomli web-sayti yaratilgan.

Bugungi kunda institutimizda 296 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritmoqda; ularning 15 nafari professor, 76 dotsent, 205 nafari esa kata o'qituvchi va asisstentlardir. Institutda quyidagi fakultetlar mavjud:

- Farmatsiya fakulteti
- Sanoat farmatsiya fakulteti

- Toshkent farmatsevtika instituti va Sankt-Peterburg davlat kimyo farmatsevtika universiteti bilan qo'shma fakultet

- Farmatsevt kadrlar malakasini oshirish fakulteti

Toshkent farmatsevtika institutining kafedralari viloyatimizning boshqa tibbiyot institutlarida ham tashkil etilgan. 2018 yilda Samarqand davlat tibbiyot instituti,

Andijon davlat tibbiyot institute va Nukus tibbiyot institutlari qoshida farmatsiya yo'nalishi tashkil etilgan. Shu jumladan PharmPark va uning qoshida Farmatsevtika texnologiya institutini tashkillashtirish ishlari olib borilmoqda. PharmaParkning tashkil etilishi kelajakda farmatsevtika sohasining rivojlanishi uchun yana bir qadamdir.

Farmatsevtika sanoati bugungi kunda mamlakatimizda jadal rivojlanib kelayotgan sohalardan biridir. Institut farmatsevtika sohasini rivojlantirish uchun har yili 300 dan ziyod kadrlarni xalq xo'jaligiga etkazib bermoqda. Institutimizda 4 ta fakultet bakalavriatura va magistratura bosqichlarida kadrlar tayyorlamoqda. Institutda Farmatsiya, Qo'shma fakultet, Sanoat farmatsiyasi va Farmasevtlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakultetlarida 11 mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Institut Umumjahon sog'liqni saqlash tashkilotining Yevrobo'limi bilan Markaziy Osiyo davlatlari uchun farmatsevtika ta'limini isloh qilish bo'yicha maxsus loyihada Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Pokiston, Hindiston, Xitoy oily oquv yurtlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qilinmoqda.



5-MA'RUZA. FARMATSEVTIK FAOLIYAT HAQIDA TUSHUNCHA. FARMATSEVTIK FAOLIYAT TURLARI.

Ma'ruza rejasi:

1. Farmatsevtik faoliyat haqida tushuncha.
2. Farmatsevtik faoliyat turlari.
3. Farmatsevtik faoliyatni qonuniy asoslari.

4. Farmatsevtikdagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflari.

Tayanch soʻz va iboralar: *farmatsevtik faoliyat, litsenziyalash, sertifikat, farmakopeya.*

Farmasevtika faoliyati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Farmasevtika faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya besh yil muddatga beriladi. Litsenziya muddatini uzaytirish uchun farmasevtika tashkilotining rahbaridan 144 soatdan kam bo'lmagan xajmdagi malaka oshirganligi to'g'risida sertifikat talab etiladi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy- tadqiqot ishlari, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, hamda dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Farmatsiya dorivositalarining xususiyatlari, muomalasi va dori turlarini tayyorlashni har taraflama o'rganadigan fan.

Farmatsevtik korxonalar -dori moddalari, dori vositalari yoki shakllarini ishlab chiqarish bo'yicha sanoat korxonasi.

Tayyor dori turi – dozalangan va ishlatish uchun qulay ma'lum shaklga ega dori shaklidir.

Dori preparatlari – dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llashga tayyor dori vositalari.

Farmakopeya — grekcha pharmakon — dori yoki zaxar, poieo — tayyorlash bo'lib dori vositalari sifatini, ularni tayyorlash, sifat-miqdor jihatidan nazorat qilishni, saqlash shart- sharoitlarini va nomlanishini belgilaydigan davlat standartlari to'plami.

Farmakopeya maqolasi — dori vositasi uchun farmakopeya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan normativ- texnik hujjat.

Dori vositalarining, tibbiy buyumlarning davlat reestri — rasmiy hujjat bo'lib, u tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar ro'yxati. Dori vositalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yangi farmakologik vositalarni izlashni, keyinchalik ularning xossalari o'rganishni, farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining tarkibini ishlab chiqishni, dori moddalarini (substansiyalarni) va dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishni, belgilangan tartibda klinik oldi tadqiqotlarni o'tkazishni, farmakologik vositalarining yoki dori vositalarining xavfsizligiga, sifatiga va ularning sifatini nazorat qilish usullariga doir talablar ko'rsatilgan normativ-hujjatlarni tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari tibbiy buyumlarning yangi turlarini izlashni, keyinchalik ularning texnik xususiyatlarini o'rganishni, ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishni, tibbiy buyumlarning xavfsizligiga, sifatiga va ularning sifatini nazorat qilish usullariga doir talablar ko'rsatilgan normativ-hujjatlarni tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish, ularni ishlab chiqarishni hamda ularning sifatini nazorat qilishni tashkil etish qoidalariga muvofiq seriyali ishlab chiqarishdan iborat bo'lib, u to'liq texnologik sikl bo'yicha yoki uning alohida bosqichlari bo'yicha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini ishlab chiqarish taqiqlanadi

Davlat ro'yxatidan o'tkazish, eksport, ilmiy-tadqiqot ishlari, klinik- tadqiqotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish, ularni davlat ro'yxatidan o'tkazmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilar dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifatini nazorat qiluvchi ichki idoraviy xizmatlarga ega bo'lishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni qadoqdash tamg'alash hamda joylash-o'rash qoidalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizasiya qilish faqat dorixonalar hamda ularni filiallari tomonidan amalga oshiriladi.

Dori vositalarini chakana realizasiya qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi reseptlar bo'yicha tasdiqlangan Reseptsiz beriladigan dori vositalarini ro'yxatiga ko'ra reseptsiz amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yoki dorixonalar tomonidan tayyorlangan dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizasiya qilishga ruxsat beriladi.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini xarid qilish, chakana realizasiya qilish hamda ulardan foydalanish taqiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizasiya qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Dorixona dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizasiya qilishni, shuningdek, ularni tayyorlashni amalga oshirish uchun tegishli lisenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs shaklida yoki yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi shaklida tashkil etilishi mumkin. Dorixonalarning filiallari, davolash- profilaktika muassasalarining dorixonalari ham dorixonalar jumlasiga kiradi.

Dorixonalar sanitariya va gigiena ashyolarini, shifobaxsh oziqlantirish mahsulotlarini, ma'danli suvlarni, shuningdek, davolash-kosmetika mahsulotlarini, biologik faol qo'shimchalarini realizasiya qilinishi uchun tegishli hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirishi mumkin.

- Dorixona mudiri oliy farmasevtika ma'lumotiga ega bo'lishi kerak.
- Dorixona filialining mudiri farmasevtika ma'lumotiga ega bo'lishi kerak.
- Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, berish, realizasiya qilish qoidalariga va ularning sifatini ta'minlovchi saqlash sharoitlariga dorixonalar tomonidan rioya etilishi kerak.
- Dori vositalari dorixonalarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalaridan (substansiyalardan) tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Tayyorlashga ruxsat etilgan dori vositalari ro'yxatiga kiritilmagan dori vositalarini tayyorlash ta'qiqlanadi.

• Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, shuningdek, ularni saqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydigan tartibda dorixonalar tomonidan amalga oshiriladi.

Farmatsevtika faoliyatining 7 ta turi mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish
- Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish
- Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish
- Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash
- Dorivor o'simlik xom ashyosini qadoqlash va ulgurji realizatsiya qilish
- Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari
- Dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifatini nazorat qilish

6-MA`RUZA. SIFAT TUSHUNCHASI. FARMATSEVTIKADA SIFAT.

Ma'ruza rejasi:

- 1.Sifat boshkaruvi sohasida qo'llaniladigan tushuncha va terminlar.
- 2.Standartlashtirish to'g'risidagi qonun
- 3.Standartlashtirish ishlarini, tashkil etish, boshqarish va ta'minlash.
- 4.Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar.

Tayanch soʻz va iboralar: *Sifat boshqaruvi, meʼyoriy hujjatlar, meʼyoriy hujjatlar*

Sifat – bu isteʼmolchilik xohishlarini va raqobatbardoshlik shakllanishini vujudga kelishiga hal qiluvchi taʼsir koʻrsatuvchi asosiy koʻrsatkichdir. Sifat - obʼyektning belgilangan va koʻzlangan talablarini qondirish xususiyatlariga tegishli koʻrsatkichlari majmuasi (MS ISO 8402: 1994); Sifatga talablar – aniq talablarni ifodalash yoki ularni obʼyektning sotishga va tekshirishga imkon beruvchi, koʻrsatkichlariga qoʻyilgan sifat va miqdor talablari toʻplami koʻrinishiga oʻtkazish (MS ISO 8402: 1994. p. 2.3). ISO 8402—94 xalqaro standarti sifat boʻyicha terminlarni oʻrnatadi, ularni mohiyatiga va ISO 9000 «Sifat tizimi» seriyasi standartlarida qoʻllanilishiga izoh beradi. Obʼyekt — bu individual ravishda taʼrif berish va koʻrib chiqish mumkin boʻlgan tushuncha. U keng koʻlamdagi tushuncha boʻlib, oʻz ichiga faqat mahsulotni emas, balki faoliyat turi yoki protsessni, tashkilot yoki shaxsni oladi.

Mahsulot faoliyat yoki protsess natijasi sifatida koʻriladi. Mahsulot xossalari — buyumni yoki ashyoni yaratilishida, ekspluatatsiyasida yoki ishlatilishida namoyon boʻluvchi obʼyektiv xususiyati. Mahsulot belgisi uning barcha xossalari yoki holatlarini aks ettiruvchi sifat va miqdor koʻrsatkichlari.

Mahsulot sifati koʻrsatkichi — mahsulot sifatini tashkil qiluvchi bir yoki bir nechta xossalarning miqdoriy koʻrsatkichi boʻlib, uning yaratilishi, ekspluatatsiyasi va ishlatilishining aniq sharoitlariga nisbatan koʻrib chiqiladi. Sogʻliqni saqlash sohasida standartlashtirish – Sogʻliqni saqlash sohasidagi standartlash obʼyektlariga qoʻyilgan talablarini oʻz ichiga olgan MHning butun hayotiy sikli davrini oʻz ichiga olgan, meʼyoriy hujjatlar va tashkiliy texnik amallar yigʻindisi.

Sogʻliqni saqlash sohasida standartlashtirishning yoʻnalishlari Standartlashtirish - standartlashtirish obʼyekti, standartlashtirish sohasi kabi tushunchalar bilan chuqur bogʻlangan. Standartlashtirish obʼyekti - bu standartlashtirish lozim boʻlgan yoki oʻtkazilgan mahsulot, ish yoki xizmat(protsess). Standartlashtirish sohasi - bu standartlashtirish obʼyektlari majmuasi. «Standartlashtirish toʻgʻrisida»gi qonun Oʻzbekiston Respublikasida standartlashtirishning qonuniy asoslari 1993 y 28 dekabrda №1002 XII sonli «Standartlashtirish toʻgʻrisida»gi qonuni bilan oʻrnatilgan. «Standartlashtirish toʻgʻrisida»gi qonun tartibga soladi:

- ✓ Standartlashtirish ishlarini tashkillashtirishni
- ✓ Standartlashtirishning mʼeyoriy elementlarini mazmuni va qoʻllanilishini
- ✓ Standartlashtirish ishlarini axborot bilan taʼminlanishini
- ✓ Davlat talablariga rioya qilishni
- ✓ Davlat tekshiruv va nazoratini tashkil qilish va oʻtkazish qoidalarini
- ✓ Davlat standartlashtirish, davlat tekshiruv va nazorati ishlarini moliyaviy taʼminlash
- ✓ Davlat standartlarini qabul qilishni ragʻbatlantirish
- ✓ Standartlashtirish organlari va xizmatlarini

Respublikada standartlashtirish ishlarini optimal darajada tashkil etish, boshqarish va taʼminlashni olib boradilar:

- «Uzstandart» Agentligi - sohalararo mahsulotlar boʻyicha
- Oʻzbekiston Respublikasi qurilish Davlat qoʻmitasi (UzDavqurilish) — qurilish va loyihalash sohasida:
- Oʻzbekiston Respublikasi tabiatni muxofaza qilish qoʻmitasi (Goskompriroda) - tabiiy resurslardan foydalanishni tartiblashtirish sohasida:
- Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni Saqlash Vazirligi (Minzdrav) — tibbiy mahsulotlar, tibbiy texnika, dori vositalari, sanoatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarda inson uchun zararli moddalar boʻyicha.

Oʻzbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi - xarbiy qurilish, loyihalash, qurol-aslaxa sohasida. Standartlashtirish boʻyicha mʼeyoriy hujjatlar Oʻzbekiston Respublikasida standartlashtirish boʻyicha quyidagi kategoriya mʼeyoriy hujjatlari ishlatiladi: xalkaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar; OʻzR davlat standartlari; Soha standartlari;



Texnik shartlar; Korxonalar standartlari; Chet ellar milliy standartlari; administrativ-territorial standartlar. Iste'molchilarga sotiladigan mahsulotlar standartlari va ularga kiritilgan o'zgartirishlar "Uzstandart" agentligi organlarida bepul Davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. "Uzstandart" agentligi organlarida qayd etilgan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar, Davlat axborot fondini tashkil qiladi. Davlat nazoratining organ va ob'ektlari Standartlarning majburiy talablariga, standartlashtirish bo'yicha boshqa qonun aktlariga xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tamonidan rioya qilinishini Davlat nazoratini «Uzstandart» agentligi, Davarxitektqurilish, Davtabiatqo'mita, SSV va ularning territorial organlari, hamda kompetentsiyasi doirasida boshqa vakolatga ega Davlat boshqaruv organlari amalga oshiradi. Standartlarning majburiy talablariga amal qilinishni Davlat nazoratini amalga oshiradilar: «Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida»gi qonun Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar texnik reglamentlar, standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar, sanitar, veterinar-sanitar, fitosanitar qoida va me'yorlar, shahar qurilish, ekologik qoida va me'yorlar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar; texnik reglament - mahsulot, ishlar va xizmatlar xavfsizligining majburiy talablarini o'rnatuvchi, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar; umumiy texnik reglament - bir turdagi guruhdagi mahsulot, ishlar va xizmatlar xavfsizligining majburiy talablarini o'rnatuvchi, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar; maxsus texnik reglament - umumiy texnik reglamentda ko'zda tutilmagan aloxida turdagi mahsulot, ishlar va xizmatlar xavfsizligining majburiy talablarini o'rnatuvchi, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar. Texnik reglamentlarni ishlab chiqishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlarning qo'llanilishi. Texnik reglamentlarni ishlab chiqishda texnik jihatdan tartibga solish sohasida mahsulot, ishlar va xizmatlarning xavfsizlik kriteriyalarini o'rnatuvchi milliy va xalqaro me'yoriy hujjatlar ishlatiladi. Texnik reglamentlarda isbotlovchi asos sifatida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlarning to'liq yoki qisqartirilgan matnlari keltiriladi. Texnik reglamentlarga rioya qilish barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy. Texnik reglamentlarni kuchga kiritilishi bilan avval qabul qilingan ko'rsatilgan mahsulot, ishlar va xizmatlarni standartlashtirish bo'yicha belgilangan me'yoriy hujjatlar majburiylik xarakterini yo'qotadi va o'rnatilgan tartibda xohishiga ko'ra qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'rinishga o'tadi. Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari Insonning hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarni va Davlat mol-mulki xavfsizligini ta'minlash; Atrof-muhit himoyasini, hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash; Savdoda texnik to'siqlarni bartaraf etish; Iste'molchilarni mahsulot, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga nisbatan noaniq fikrlarga olib keluvchi harakatlarni oldini olish. Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy printsiplari: texnik reglamentlar qo'llanilishining shartligi; texnik reglamentlar qo'llanilishi birligi; texnik reglamentlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro me'yoriy hujjatlarga mutanosibliigi; texnik reglamentlar, ularni ishlab chiqish, qabul qilish va chop etish qoidalari bo'yicha ma'lumotlarning samaradorligi.

Texnik jihatdan tartibga solishning Davlat tizimi quyidagilardan iborat : O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli Davlat organlari - Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash O'zbek Agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi arxitektura va qurilish Davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi , O'zbekiston

Respublikasi mudofaa Vazirligi; Kompetentsiyasi doirasida, texnik jihatdan tartibga solish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari O'zR Sog'liqni Saqlash Vazirligi vakolati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligining majburiy shartlarini ta'minlash sohasidagi texnik jihatdan tartibga solish, ularning tarkibida inson hayoti va sog'lig'i uchun zararli moddalar, kasallik chaqiruvchi organizmlar miqdori, ularni kirib kelishi va tarqalishini oldini olish, tibbiy ashyolar, vositalar, tibbiy texnika va dori vositalarini ishlab chiqarish va qo'llash ishlarini tashkillashtiradi va ta'minlaydi. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatga ega Davlat organlari tarkibida, ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlar, texnik reglamentlarga o'zgartirishlar va to'ldirishlar ekspertizasini o'tkazish, jumladan shu reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar va ular bo'yicha xulosalar tayyorlash uchun tashkil etiladi. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari faoliyati, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tamonidan tasdiqlangan qarorga asosan amalga oshiriladi. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlari Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlari Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari tarkibida tashkil etilib, umumiy va mahsus texnik reglamentlar ishlab chiqish, texnik reglamentlarga o'zgartirish va to'ldirishlar, jumladan shu reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar kiritish uchun tashkil etiladi. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlari faoliyati, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash Agentligi tamonidan tasdiqlangan tartibga asosan amalga oshiriladi.

7-MA`RUZA. FARMATSEVTIKADA METROLOGIYA.


Ma'ruza rejasi:

- 1.«Metrologiya to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (1993 yil 28 dekabr). Asosiy atamalar.
- 2.Farmatsevtik tahlilda metrologik usullarning qo'llanilishi. Tahlil natijalarining ishonchliligi.
- 3.Dori vositalarining sifatini nazorat qilish va standartlashda metrologiyaning roli
- 4.Metrologik ekspertiza maqsad va vazifalari, ekspertizadan o'tishi kerak bo'lgan hujjatlar, O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablar

Tayanch so`z va iboralar: *Metrologiya, «Metrologiya to'g'risida»gi Qonun, O'lchashlar, yagona o'lchamlar birligi*

«Metrologiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Metrologiya" so'zi grekcha *metros*-kenglik va *logos* o'qish ma'nosini bildirib, kenglik haqida o'qish, aniqroq ma'noda esa o'lchovlar haqidagi fan demakdir. Zamonaviy tarixiy metrologiya fanining vazifasi insoniyat tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida qo'llanilgan o'lchov birliklari tarixi va ularii hozirgi davr o'lchov birliklariga muvofiqiligini yoritish, ajdodlarimizning bebaho merosini kelajak avlodlarga yetkazishdan iboratdir. Tarixiy metrologiya ijtimoiy-iqtisodiy, xo'jalik, huquq, madaniy tarixni o'rganishda zarurdir. O'lchovlar rivoji avvalo jamiyatning ishlab chiqarish holatlari bilan bog'liqdir.

Ba'zi manbaalarda XIX asr oxiridan kitob va traktlarda metrologiya termini uchrashi qayd etiladi. Vaholanki o'lchovshunoslik poydevoriga ajdodlarimiz juda qadimdan asos qo'yib kelishgan. «**Metrologiya**»-o'lchamlar, ularning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash usullari va vositalari hamda talab qilinadigan aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan;



Boy madaniy merosga ega bo'lgan, jahon fani xazinasiga bebaho hissa qo'shgan o'zbek xalqi qadimdan o'lchovshunoslik sohasiga va lining rivojlanishiga katta ahamiyat berib kelgan. O'lchovshunoslik bilan shug'ullanuvchi kasb egalari bo'lgan.

Mamlakatimiz kutubxonalari, arxiv va muzeylarida o'rganilmagan, 20 mingdan ortiq tarixiy yozma manbalar mavjud bo'lib, albatta ularni varaqlasangiz uzoq o'tmishda qo'llanilgan o'lchov birliklariga duch kelasiz.

Qo'llanmaga kiritilgan qadimgi o'lchov birliklari tarixiga oid ma'lumotlar O'rta Osiyo va mamlakatimiz xalqlari tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.


O'lchov va o'lchov birliklari to'g'risidagi bir qator ma'lumotlar buyuk olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarida keltirilgan bo'lsa, ulug' olim Ahmad Farg'oniy esa dunyoda birinchi bo'lib (861 yili) suv sathini o'lchaydigan asbob kashf etgan va uni yasab amalda qo'llagan.

Yusuf Xos Xojibning turkiy tilda yozilgan «Qutadg'u bilig» asarida o'lchov va o'lchov birliklaridan foydalanibgina qolmay, balki o'lchash va iyyor ishlariga tegishli bilimlarni mukammal bilishga chaqirilgan.

• **O'lchashlar haqidagi fanning tarixi minglab yillarni tashkil etadi. Ushbu rivojlanish davrini uning mazmuni va mohiyatiga asoslangan holda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:**

1. Antik rivojlanish davri.
2. Stixiyali rivojlanish davri.
3. Metrik tizimning joriy etilishi.
4. Metrologiya xizmatlarining integratsiyalashish davri.
5. O'zbekistonning mustaqillik davridagi rivojlanish.

• **Antik rivojlanish davri.** O'lchashlarga bo'lgan ehtiyoj qadim zamonlarda yuzaga kelgan. «O'lchash» atamasining tom ma'nosi bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, qadimgi davrda insoniyat asosan «organoleptik o'lchashlar» - ya'ni, o'zining his etish a'zolari orqali u yoki bu fizikaviy xossa bo'yicha taxminiy ma'lumotlar olgan. Bunda mana shu his etish organlari o'lchash vositasi vazifalarini bajargan.



- **Stixiyali rivojlanish davri.** Metrologiya xizmati va metrologik ta'minot masalalarining dastlabki kurtaklari turli davlatlarda turlicha tarzda vujudga kela boshlagan. Masalan, rus knyazi Svyatoslav Yaroslavich belidagi oltin kamaridan uzunlikning namunaviy o'lchash vositasi sifatida foydalangan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra knyaz davriy ravishda bozor rastalarini ora-lab yurib, turli mato sotuvchilarining uzunlik o'lchovlarini kamari bilan taqqoslab turgan. Agar ular orasidagi tafovut belgilanganidan ortib ketsa, sotuvchini shafqatsiz jazolagan.

Italiyada ham bu borada muayyan tartib belgilangan edi (o'rta asrlarda). Cherkov va butxonalarda aniq sondagi marvarid donalari saqlanib, ulardan sochiluvchan (dispers) moddalarning hajm va massa birliklarini hosil qilishda foydalanganlar.

- **Metrik tizimning joriy etilishi.** Vaqt o'tishi bilan savdo-sotiq va o'zaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi mobaynida o'lchovlarga aniqlik kiritish, yangilarini hosil qilish, o'zaro solishtirish va qiyoslash usullari shakllanib, o'nlab yangi va mukammalroq o'lchash birliklari hosil bo'la boshlagan. Bu birliklarning o'zaro bog'liqligi masalalari esa tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlagan.

Metrik tizim 1875 yil 20 mayda Parijda 20 ta mamlakatlar vakillarining konferensiyasida qabul qilingan va Metrik Konvensiyasi nomini olgan. Metrik Konvensiya metrologiya bo'yicha ilmiy faoliyat ko'rsatuvchi birinchi xalqaro kelishuv hisoblanadi. Konvensiya metrik etalonlarni saqlash va tekshirish uchun ilmiy muassasa sifatida o'lchovlar va tarozilar xalqaro byurosini xam ta'sis etadi.

Shu asnoda yuqoridagi talablarning to'liq ta'minlanishiga erishilgan, ya'ni kattalikning turli qiymatlari o'zaro o'nga karrali bog'lanishda bo'lgan bo'lsa, bir nechta asosiy kattaliklarning birliklari orasida o'zaro bog'lanishga ham erishilgan (Er meridianining qirq milliondan bir ulushi bo'yicha - "**metr**", bir kub detsimetr suvning temperaturasi 4°S bo'lgandagi massasi - "**kilogramm**" va hokazolar).


- **Metrologiya xizmatlarining integratsiyalashish davri.** XX asrdagi ilm-fan va texnikaning, shu jumladan davlatlar orasidagi iqtisodiy munosabatlarning shiddatli tushdagi rivojlanishi metrologiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Bunday asosiy maqsadlardan biri - o'lchash birliklarining turli tumanligiga barham berish, umumiy qabul qilingan o'lchash birliklarini joriy etish, mahsulotning sifatini nazorat etishda umumiy qoidalarni amalga oshirish hisoblangan. Shu asnoda oldingi asrning o'rtalarida asosiy iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar o'rtasida SGS va MKGSS tizimlari joriy etildi. Uning mantiqiy yakuni sifatida 1960 yil o'lchovlar va og'irliklarning XI Bosh konferensiyasida birliklarning yagona xalqaro birliklar tizimi (SI) joriy etildi. Bizning mamlakatimizda ushbu tizim 1982 yilning 1 yanvaridan boshlab GOST 8.417-81 asosida joriy etilgan.

Hozirda asosan SI va SGS tizimlari amalda qo‘llansada, birinchisi ikkinchisini tobora siqib chiqarmoqda. Buning asosiy sababi, bu tizimdan deyarli barcha davlatlarda foydalanilishi va uning qator qulayliklarga va afzalliklarga egaligi ekanligi:


- universalligi, ya’ni ilm-fan va texnikaning barcha soha-larini qamrab olganligi;
- o‘lchashlarning barcha turlari va sohalarini birxillashti-rish imkoniyati;
- kattaliklarning kogerentligi;
- birliklarni yuqori aniqlikda hosil qilish mumkinligi;
- fizika, kimyo va boshqa shu kabi fanlarda qo‘llanadigan formulalarni sodda shaklda ifodalash mumkinligi;
- o‘z nomlariga ega bo‘lgan karrali va ulushli birliklarni hosil qilishning yagona tizimda bo‘lishi;
- o‘kitish jarayonlarini yuqori didaktikligini ta’minlash mumkinligi (ortiqcha va tizimdan tashqari bo‘lgan birliklarni o‘rganish ehtiyoji yo‘qligi);
- davlatlararo ilmiy-texnika va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda umumiy echimlarni olishda qulay imkoniyatlar mavjudligi.
- O‘zbekistonda Metrik o‘lchovlar tizimining joriy etilishi 1923 yil 18 apreldan, Turkiston respublikasi XKK (SNK) qaroriga ko‘ra “O‘lchov va tarozilar to‘g‘risda nizom” tasdiqlanib, Ichki savdoni tartibga solish qo‘mitasi qoshida Turkiston o‘lchov va tarozilar byurosi tashkil qilingan paytdan boshlanadi. 1930 yil mart oyida O‘zbekiston SSR xalq komissarlari kengashi qoshida standartlashtirish qo‘mitasi tuzilgan va 1931 yilda O‘lchov va tarozilar palatasi bilan birlashtirilgan.


Mustaqillik yillarida, qisqa davr ichida mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarning sifati va xavfsizligini o‘lchash vositalari, o‘lchash uslubiyatlari, malakali mutaxassislar, bir so‘z bilan aytganda metrologik faoliyat talablarini amalga oshiradigan Metrologiya bo‘yicha Milliy idora sifatida dastlab O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi “O‘zdavstandart” (1992), keyinchalik esa “O‘zstandart” agentligi (2002) tashkil etildi. SHu bois barcha O‘lchashlar birligini ta’minlash davlat tizimi (O‘BTDT) xam yaratildi. Bu tizim milliy qonunchilik talablari bilan bir qatorda Metrologiya bo‘yicha xalqaro va regional tashkilotlar tartib qoidalari asosida tashkil etildi.





Metrologik xizmat turlari.





O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida» gi qonuni

- “Metrologiya to'g'risida” gi qonun 5 bo'limdan iborat bo'lib, bu bo'limlar 21 moddani o'z ichiga olgan. Respublikamizda metrologiya xizmatini yo'lga qo'yish va bunda jismoniy va yuridik shaxslarning ishtiroki va funksiyalari, bu boradagi javobgarliklar bo'yicha keng ma'lumotlar berilgan. Qonunda ko'rsatilganidek, o'lchash vositalarining davlat sinovlarini o'tkazish, ularning turlarini tasdiqlash va davlat ro'yxatiga kiritish “O'zstandart” agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

- ✓ «metrologiya» - o'lchamlar, ularning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash usullari va vositalari hamda talab qilinadigan aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan;
- ✓ «yagona o'lchamlar birligi» - o'lchamlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirilgan va xatoliklari berilgan ehtimollikda ma'lum bo'lgan o'lcham holati;
- ✓ «o'lcham vositasi» - o'lchamlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatga ega bo'lgan texnika vositasi;
- ✓ «birlik etaloni» - fizik o'lcham birligini boshqa o'lcham vositalariga o'tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo'ljallangan o'lcham vositasi;
- ✓ «davlat etaloni» - vakolat berilgan milliy organing qarori bilan O'zbekiston Respublikasi hududida o'lcham birligining o'lchami sifatida e'tirof etilgan etalon;
- ✓ «metrologiya xizmati» - davlat organlari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tarmog'i hamda ularning o'lchamlari yagona birliklarda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan faoliyati;
- ✓ «davlat metrologiya nazorati» - metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari amalga oshiradigan faoliyat.

Farmatsevtik tahlilda metrologik usullarning qo'llanilishi

- Farmatsevt – analitik o'z faoliyati davomida tahlil uslubida ko'rsatilgan ishlarni to'g'ri bajarish bilangina chegaralanib qolmasligi lozim.
- o'lcham vositasi birlik etaloni davlat etaloni davlat metrologiya nazorati

Tahlil jarayoni ma'lum bir mazmunga ega bo'lishi uchun quyidagilar talab etiladi:

Har bir ayrim tahlil natijasini to'g'ri hisoblash va qayd etish.

Eng yaxshi natijani tanlab olish. Ketma-ket bajarilgan tahlil natijalari bir-biridan ma'lum bir qiymatga farq qilib, qaysidir keskin farqlanuvchi qiymatni hisobga olish yoki olmaslik muammosini hal eta olish.

Olingan natijalarni baxolash va qiymatlarni statistik ishlab chiqish orqali xatolik qiymatini belgilash.

Tahlilning to'g'riligi va qaytaruvchanligi xaqida aniq tasavvurga ega bo'lish va ularni matematik statistika jarayonida qo'llay olish. Tahlilning to'g'riligi deganda ayrim olingan qiymatlar yoki o'rta arifmetik qiymatning xaqiqiy qiymatga qay darajada yaqinligi tushunilib, u amalda xatolik bilan belgilanadi.

Kattalik - sifat tomonidan ko'pgina fizikaviy obyektlarga (fizikaviy tizimlarga, ularning holatlariga va ularda o'tayogan jarayonlarga) nisbatan umumiy bo'lib, miqdor tomonidan har bir ob'jekt uchun xususiy bo'lgan xossadir.

8-MA`RUZA. O'ZBEKISTONDA DORI VOSITALARINI STANDARTLASH VA SERTIFIKATLASH TIZIMI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.

Ma'ruza rejasi:

1. O'zbekiston Respublikasida standartlash ishlar
2. Dori vositalarini standartlash bo'yicha me'yoriy tahlil hujjatlari
3. MTXlarni tuzilishi va ularni ishlab chiqish
4. Dori vositalari sifat standartlarini ekspertiza va ro'yxatdan o'tkazish
5. Standart namunalar.

Tayanch so'z va iboralar: Standart namunalar, MTX, dori vositalari, ro'yxatdan o'tkazish.

Standartlash u yoki bu mahsulotning me'yoriy talablarga mos kelishi haqidagi tushuncha bo'lib, ilmiy texnik progressning o'sib borishi, turli tizimlar orasida iqtisodiy hamkorlikni irivojlanishi, Davlatlar, milliy tashkilotlar va firmalar bo'yicha savdo sotiq xajmining yuksalishi, raqobatbardosh sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni taqozo etadi. Mahsulotning sifatli ekanligi esa barcha me'yoriy hujjatlar talablarini qay darajada qondira olishi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining «Standartlash to'g'risidagi qonun»i 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan bo'lib, bu qonunga ko'ra standartlashdan ko'zlangan maqsadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Mahsulotning sifati, xizmat jarayonlarining aholining hayoti, sog'lig'i, mol-mulki, atrof-muhit, tabiiy manbaalarni tejash xavfsizligi borasida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilish.

Mahsulotlarni bir-biri bilan mosligi, almashinuvchanligini ta'minlash.

Ilm - fan va texnikaning rivojlanishi hamda aholi va xalq xo'jaligining ehtiyojlarini o'sishini inobatga olgan holda mahsulot sifatini va raqobatbardoshligini oshirish.

Barcha turdagi resurslarni tejash, ishlab chiqarishning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash.

Sotsial - iqtisodiy, ilmiy - texnik dasturlar va loyihalarni amalga oshirish.

Tabiiy va texnologik falokatlar va boshqa favqulodda hodisalar sodir bo'lishini e'tiborga olib. Turli obyektlar xavfsizligini ta'minlash. Iste'molchilarni mahsulot turi va sifati haqida aniq va ishonchli ma'lumot bilan ta'minlash.

Mudofaa qobiliyatini yaxshilash va safarbarlikka tayyorlikni ta'minlash. O'lchovlarning yagonaligini ta'minlash.

Savdo-sotiq, iqtisodiy va ilmiy—texnikaviy hamkorlikdagi to'siqlarni bartaraf etish.

Standartlashning asosiy prinsiplari:

-Sotsial, iqtisodiy, texnik zarurligini va mosligini hisobga olgan holda MH larni ishlab chiqishni maqsadga muvofiqligi;

-MH larning ilmiy va texnikaning zamonaviy yutuqlariga, ilg'or tajiba va qonuniy aktlarga mos kelishini ta'minlash;

- Sertifikatsiyalash maqsadlarida MH larning yaroqliligini aniqlash.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida standartlash ishlarining umumiy, tashkiliy-

texnik qoidalarini ishlab chiquvchi standartlashning Davlat tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikada standartlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish quyidagi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi: Xo'jalik sohasida - Vazirlar Mahkamasi qoshidagi standartlash, metrologiya va sertifikatsiyalash bo'yicha davlat markazi (O'zDavStandart). Tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni ifloslanishi va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida - Dav.kom.tabiat. Tibbiyot mahsulotlari, tibbiyot buyumlari, dori vositalari hamda Respublika sanoatida ishlab chiqarilgan va import qilingan dori vositasi tarkibidagi inson salomatligi uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalari bo'yicha - UzRSSV qoshidagi dori vositalari va tibbiyot texnikasi sifatini nazorat qilishi Bosh boshqarmasi. DVTTSNQ Bosh boshqarmasi O'zR Vazirlar Mahkamasining 1995-yilning 5-maydagi 181-sonli qarori asosida tashkil etilgan bo'lib, uning zimmasiga dori va tashxis qo'yish vositalari, tibbiyot texnikasi, tibbiyot buyumlari ustidan davlat nazoratini olib borish, tibbiyot texnikasi va dori vositalarini ekspertiza qilishi, standartlash, ro'yxatga olish va sertifikatsiyalash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ishini boshqarish va muvofiqlashtirish ishlari yuklatilgan. Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi qoshida 4ta qo'mita (farmakopeya qo'mitasi, farmakologiya qo'mitasi, narkotik moddalarni nazorat qilish qo'mitasi, yangi tibbiyot texnikasi qo'mitasi) va 2 ta bo'lim (farm nazorat bo'limi, sertifikatsiya va ro'yxatga olish bo'limi) faoliyat yuritadi. Davlat boshqarmalari o'z sohalari bo'yicha standart va texnik shart - sharoitlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish va nashr etish bilan shug'ullanadilar.

Dori vositalarini standartlashdagi me'yoriy hujjatlar

Me'yoriy hujjatlar dori vositalarini tayyorlash sifatini nazorat qilish, ishlatilishi va saqlanishining shart-sharoitlari belgilangan va qonun maqomiga ega bo'lgan hujjatlar bo'lib, ular dori vositasining sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish maqsadida, ilm-fan yutuqlari, ishlab chiqarish korxonalarining ilgor texnologiyalarini e'tiborga olgan holda vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib, eskirgan sifat ko'rsatgichlari va tahlil usullari yangilab boriladi.

Dori vositalarining sifatini nazorat qilish va standartlashdagi me'yoriy hujjatlarning quyidagi turlari mavjud:

Vaqtinchalik farmakopeya maqolasi - VFM (VFS).

Farmakopeya maqolasi - FM (FS).

Davlat farmakopeyasi - DF (GF).

Umumiy farmakopeya maqolasi - UFM (OFS).

Tarmoq standarti - TSt (OSt)

Korxonalar standarti - KSt (StP)

Rahbarli me'yoriy hujjat (yilnoma, uslubiy ko'rsatma).

Farmakopeya - dori vositalarining sifatli tayyorlanishini, sifat va miqdoriy nazoratni belgilovchi, nomlanishi va saqlash sharoiti ko'rsatilgan davlat standartlari yigindisidir

Korxonalar farmakopeya maqolasi (KFM) (FSP) - ayrim korxonalar texnologiyasi va dori vositasining aniq tarkibi hisobga olingan holda dori vositasining sifatini nazorat qilish usullari va ko'rsatkichlardan iborat bo'lgan, farmakopeya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan sifat standarti. Dori vositalari va tibbiy buyumlarning Davlat reyestri - tibbiyot amaliyotida ishlatish uchun ruhsat etilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlari ro'yxatidan iborat rasmiy hujjat.

Tarmoq standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar - ishlab chiqarishni loyihalashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish sohasida ilmiy texnik atamalar, umum texnik hujjatlar va texnik me'yorlar ishlab chiqishning umumiy qoidalari, xavfsizlik texnikasi me'yori va talablari asosida ishlab chiqiladi. Davlat standart namunasi (GSO)- tegishli tartibda tasdiqlangan, sifat o'lchamlari FMda keltirilgan standart namuna. Ishchi standart namunasi (RSO)- dori vositasining tegishli sifat standarti (VFM, FM, TS, KFM) talablariga javob beradigan substantsiya namunasi. Guvoh moddaning standart namunasi (SOVS) - dori vositalarini identifikatsiya qilishda, tozaligini tekshirishda qo'llaniladigan namuna.

Farmakopeya maqolasining loyihasi quyidagi shaxslar tomonidan imzolanadi:

- dori vositasi yoki dorivor o'simlik hom ashyosiga MXni ishlab chiqqan korxonalar

rahbari tomonidan;

- MX loyahasini ishlab chiqqan shaxs tomonidan;
- Dori vositasi yoki dorivor o'simlik hom ashyosini ishlab chiqaruvchi korxonah rahbari tomonidan;
- Farmakopeya qo'mitasining ilmiy kotibi tomonidan.

FM yoki VFM ekspertizadan o'tkazilib, loyihaning ilmiy-texnik saviyasi va MXning dori vositalarining me'yoriy hujjatlariga qo'yilgan zamonaviy talablarga mos ekanligi tekshirilib, quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- dori vositasi sifat ko'rsatkichlari va qadoqlanishining farmakopeya va xalqaro farmakopeyalar talablari va standartlariga mos kelishi;
- barcha ko'rsatkichlar, sifat me'yorlari va yaroqlilik muddatining asoslanganligi;
- dori vositasi sifatini nazorat qilishning metrologik ta'minlanganlik darajasi va o'lchash vositalarining to'g'ri tanlanganligi;
- qo'llanilgan ilmiy atamalar, usullar, kimyoviy atamalar va fizikaviy kattaliklar birliklarining aniqligi
- farmakopeya maqolasi yoki vaqtinchalik farmakopeya maqolasi loyahasining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va unga qo'shib topshirilishi lozim bo'lgan hujjatlar majmuasining to'raligi;

FM yoki VFMning loyixasi 5 nusxada, ushbu MHni tasdiqlash uchun ariza, aniqlashtirish xati, dori vositasining turg'unligini va yaroqlilik muddatini tasdiqlovchi hujjatlar, tahlil sertifikat, tahlil natijalar jadvali (kamida dori vositasining 5 ta seriyasi), dori vositasining patent tozaligini tasdiqlovchi patent formulyalari, sifat standarti loyahasida ko'zda tutilgan ko'rsatkichlarni chet el farmakopeyalarining ko'rsatkichlari (agar bo'lsa) bilan solishtirish jadvali, qadoqlangan va yoriqlangan dori vositasining namunalari, dori vositasi sifatini nazorat qilishning metrologik tavsifnomasi jadvali kabi hujjatlar bilan birga topshiriladi. Dori vositasi sifat standartining loyahasiga aniqlashtirish haqida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi:

- MHni ishlab chiqqan korxonaning nomi;
- Dori moddasini olinishi yoki texnologiyasi haqidagi qisqacha ma'lumot;
- Loyihada keltirilgan tahlil usullari, me'yor ko'rsatkichlarining asoslanishi haqida atroflicha ma'lumot, shuningdek ushbu dori vositasi yoki dori moddasining muqobil tahlil usullari keng tasvirlanadi;
- Sifat standartining loyihasi namunalarning qancha miqdori va qanday texnologik hujjatlar bo'yicha ishlab chiqilganligi haqidagi ma'lumotlar;
- Davlat farmakopeyasining umumiy talablaridan chetlanish kuzatilganida, bu holat alohida beriladi;
- Ushbu dori vositasining chet el farmakopeyalarida yoki boshqa adabiy manbalarda o'xshashlari qayd etilgani haqida ma'lumotlar;

Agar dori vositasi yangi va birinchi marta tibbiyot amaliyotiga tatbiq etilayotgan bo'lsa, bu haqida alohida ma'lumot beriladi. Davlat standartlarining ekspertizasi, tahlil usullari; Dori vositalarini standartlash va ekspertiza qilish; Davlat markazi laboratoriyalarida tekshirilib ko'rilgach farmakopeya qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

MHlarning loyihalari farmakopeya qo'mitasining ixtisoslashgan hay'ati tomonidan qo'mita yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

Dori vositalarining sifat standartlarini belgilash va ro'yxatga olish

UFM, FM, VFM va KFM tasdiqlangach, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash vazirligining Farmakopeya qo'mitasi tomonidan tegishli belgi berilib, ro'yxatga olinadi. Ularga belgi berilganida, dastlab O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining indeksi, so'ng hujjatga berilgan tartib soni va tasdiqlangan yili ko'rsatiladi. Masalan: UFM (OΦC), VFM (BΦC), FM (ΦC)42SH-0985-2001, bunda 42-standartlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan indeks; 0985- hujjatning reestrda soni, 2001-

yil hujjat tasdiqlangan. KFM belgilanganda, korxonaning kodi ham ko'rsatiladi. Masalan: KFM (ΦCII)-42SH-14346847- 0183-2000. Bu belgida 14346847-korxonaning kodi.

Dori vositalari sifat standartlariga o'zgartirishlar kiritish tartibi.

Ilm va texnologiya yutuqlaridan dori vositasining sifatini yaxshilash maqsadida foydalanish imkoniyati yuzaga kelganida yoki sifat ko'rsatkichlariga aniqlik kiritish lozim bo'lgan xollarda sifat standartlariga o'zgartirish kiritiladi.

Lekin bu o'zgartirish mahsulot sifatining yomonlashishiga olib kelmasligi kerak. Sifat standartiga o'zgartirishning birinchi beti tegishli shaklda rasmiylashtiriladi. Bo'limlarning eski va yangi redaksiyadagi matnlari to'laligicha keltiriladi. Sifat standartiga kiritiladigan o'zgartirishning ekspertizasi standartlar uchun belgilangan tarzda amalga oshiriladi.

Standart namunalalar

Standart namunalalar dori moddasi fizikaviy-kimyoviy va biologik usullar yordamida tahlil kiliganda solishtirish uchun foydalaniladigan moddalardir. Standart namunalalar shartli ravishda kimyoviy va biologik namunalarga bo'linadi. Bir xil standart namuna biologik va fizikaviy-kimyoviy tahlil uchun ishlatilishi mumkin. Standart namunalalar **Davlat standart namunalari** (GSO-DSN), **ishchi standart namunalari** (RSO-ISN) va **guvoh moddalarning standart namunalari**ga bo'linadi.

Davlat standart namunalari farmakopeya maqolasi bilan tasdiqlanib, DSNning katalogiga kiritiladi. Ular dori vositasi uchun sifat standarti ishlab chiqqan korxonadan tomonidan tuziladi. Ishchi standart namuna sifatida odatda MX talabiga javob beradigan dori moddasidan foydalaniladi.

Guvoh moddaning standart namunasi uchun DSNni yoki ISNdan olish mumkin. Davlat standart namunasi yorlig'ida uning faolligi yoki foiz miqdori ko'rsatiladi. Agar bu qiymatlar ko'rsatilmagan bo'lsa, DSN si 100%li deb hisoblanadi. Guvoh moddaning standart namunasi dori vositasi tarkibidagi yot aralashmalarni aniqlash maqsadida foydalaniladi. Davlat standart namunalari uchun me'yoriy texnik hujjatlar Dunyo Sog'liqni saqlash tashkilotining Xalqaro standart namunalari uchun qo'ygan talablarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqiladi. Britaniya farmakopeyasiga 500 ga yaqin, AQSh farmakopeyasida 1300 ta, Dunyo bo'yicha esa 3700 dan ortiq dori vositalari va ularning aralashmalari uchun standart namunalari mavjud. Standart namunalarni yaratish va ishlab chiqarish jarayoni juda mashaqqatli va qimmat jarayon bo'lib, ularning narxi dori vositalarning narxiga nisbatan bir necha marta yuqori bo'ladi. Rossiya federatsiyasida 70 ga yaqin standart namunalari ro'yxatga olingan. Har bir davlat standart namunasi o'zining qo'llanilish sohasiga ega bo'lib, ularni boshqa maqsadlarda, shu jumladan dori vositasi sifatida ham qo'llash mumkin emas. Dunyo Sog'liqni saqlash tashkilotining standart namunalari uchun qo'ygan talablariga ko'ra dori moddasining chinligini aniqlash maqsadida ishlab chiqarilgan SNdan uning miqdorini aniqlash uchun foydalanib bo'lmaydi. JSST tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan «Dori vositalari sifatini nazorat qilish uchun qo'llaniladigan Davlat standart namunalari qayta ishlash, ishlab chiqarish va taqsimlash bo'yicha umumiy tavsiyalar»da DSNlarini baholashning quyidagi tasnifi keltirilgan: DSNlarning chinligini aniqlash uchun qo'llaniladigan usullar. IQ-spektrometrik usul (standart spektr yoki DSNning attestatsiyalangan spektri bilan taqqoslash). Yadro magnit rezonansi spektrometrik usuli. Mass-spektrometrik usuli. Rentgen difraksiya kristallografik usuli. Element tahlili. UB- spektrometrik usul. Boshqa usullar (masalan, titrimetrik usullar).

SN sifatini biroz o'zgarishi aniqlanishi bilan uning qo'llanilishi to'xtatilib, ushbu seriyadagi ishlatilmagan standart namunalari o'ramlarini yig'ishtirib olish haqida xabar tarqatiladi.

9-MA`RUZA. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SANOAT FARMATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Ma'ruza rejasi:

1. Respublika xukumati tomonidan sanoat miqyosida dori vositalari ishlab chiqarishga qaratilgan chora-tadbirlar.
2. "Milliy dori siyosati" va uning mohiyati.
- 3 Mahalliy farmatsevtik ishlab chiqarish va uning bugungi kundagi holati.
4. "O'ZFARMSANOAT" DAK va uning vazifalari.
5. Amaliyotga tatbiq etilayotgan yangi mahalliy dori vositalari

Tayanch so`z va iboralar: *Farmatsevtik korxonalar, "Milliy dori siyosati", "O'ZFARMSANOAT"*

O'zbekiston Respublikasi yer Sharining Markaziy Osiyo qismida joylashgan bo'lib, Shimol tarafdin Qozog'iston bilan janub tarafdin esa Tojikiston va Afg'oniston bilan, Sharq tarafdin Qirg'iziston bilan g'arb tarafdin esa Turkmaniston bilan tutashgan bo'lib, u markaziy hududda joylashgan. O'zbekiston Respublikasining yer maydoni 447,4 ming km² tashkil etadi. Geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining Shimoliy qismi mo'tadil klimatik zonaga, janubi esa quruq subtropik iqlim sharoitiga kiradi. Bunday iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi turli hududlarida ochiq sharoitda va alohida (sovutilgan, isitilgan) binolarda harorat, nisbiy namlik va nisbiy Yorug'lik omillari o'zaro keskin farqlanadi.

Xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan yuqori biosamarador, turg'un va sifatli dori vositalarini ularning sifatiga ta'sir etmagan holda mahalliy ishlab chiqarish amaliyotiga moslashtirish va shu yo'l bilan O'zbekiston Respublikasi ichki bozorini sifatli, arzon va kerakli dori vositalari bilan qisman bo'lsada ta'minlash farmatsevtik texnologlarning oldida turgan muhim va dolzarb vazifalardan biridir.

Ishlab chiqarish (ishlab chiqarish jarayoni) - tayyor dori vositalarini ishlab chiqarish operatsiyalarini ya'ni xom ashyo, birlamchi o'rov, markalash materiallari va qo'shimcha, yarim tayyor mahsulotlarni sotib olishda to ularni tayyorlash, o'rash, sotishga ruhsatnomalar olish, saqlash, transportirovkalash va tayyor mahsulot sifatini nazorat qilish kabi ishlarni o'z ichiga olgan tamoyillardir.

Dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi - sanoat miqyosida, korxonalar sharoitida dori moddalaridan turli xil dori shakllari tayyorlashda amaliy va nazariy muammolar bilan shug'ullanuvchi asosiy farmatsevtik fanlardan biridir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalari aholini dori vositalariga bo'lgan ehtiyojini 16% qondira oladi xolos. Bundan ko'rinadiki, aholi uchun zarur bo'lgan dori vositalarining asosiy qismi xorijiy davlatlardan valyuta hisobiga import qilinmoqda. Jumladan, birgina 2010 yilning o'zida O'zbekiston Respublikasida dori vositalari importiga sarflangan mablag' hajmi 536,7 mln. AQSh dollarini tashkil qiladi. Bu esa dori vositalarining tannarxiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, ulardan foydalanish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Markaziy Osiyoda XX asrning II yarmidan boshlab, ekologik muvozanatning buzilishi boshlashi, qolaversa Orol fojeasi, qishloq xo'jaligining turli sohalarida uzoq yillar davomida zaharli kimyoviy birikmalardan nazoratsiz foydalanish oqibatida ayrim kasalliklar foizini keskin ko'payishiga olib keldi. Xususan qandli diabed, allergiya, bo'qoq, jigar, buyrak, yallig'lanish, onkologik kasalliklar, immunitetning susayib ketishi va kamqonlik kabi kasalliklar bilan og'rigan bemorlar soni ko'payib, dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj yil sayin oshib bormoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab respublika rahbariyati va hukumati aholini tayyor dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash sifatini oshirish va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilashga alohida e'tibor berdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan "Fuqarolar sog'lig'ini

saqlash to'g'risida"gi va 1997 yil 25 aprelda qabul qilingan "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonunlar va ularni amaliyotga joriy etish bilan bog'liq bo'lgan bir qator qonunosti hujjatlarida o'z aksini topgan.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida ta'kidlab o'tilganidek, "ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish - O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning eng ishonchli yo'lidir".

Bugungi kunda sanoat miqiyosida ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalar orasida kapsula dori turlari yetakchi o'rinlarda turadi. Bunga asosiy sabab kapsula dori turining bir qator afzalliklari: aniq dozalanligi, organizmga tez ta'sir ko'rsatishi va yuqori biosamaradorligi hamda faol modda ta'sirini uzaytirish va uni boshqarish imkoniyatlariga ega ekanligidir.

Ma'lumki, milliy iftixorimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan davrda mamlakatimizda faqatgina 2 ta korxonalar farmatsevtik ishlab chiqarish bilan faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining soni 100 dan ortib ketgan. Ular jumlasiga "Novarnarma plus" MCHJ, "Jorabek Laboratories" MCHJ kiritishimiz mumkin. Shu bilan birga horijiy davlatlar investitsiyasi, texnika va texnologiyalarini respublikamizga olib kirishga juda katta yo'llar ochib berilmoqda. Buning sababi Respublika rahbariyati tomonidan chiqarilgan, mahalliy farmatsevtika sohasini qo'llab-quvvatlashga, rivojlantirishga qaratilgan qonun, qaror va farmonlardir. Bular o'z navbatida mahalliy farmatsevtik ishlab chiqarishga keng Shart-Sharoitlar yaratib bermoqda.

Farmatsevtika tarmog'i korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va oqilona foydalanish, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, shuningdek respublika aholisining mahalliy dori vositalari va tibbiyot buyumlariga bo'lgan talab-ehtiyojini yanada to'liq qondirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006 yil 14 iyuldagi "Dori vositalari va tibbiy maqsaddagi buyumlarni ishlab chiqaradigan mamlakatimizning korxonalarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-416-sonli, 2007 yil 19 noyabrdagi "2011 yilgacha bo'ladigan davrda farmatsevtika tarmog'i korxonalarini modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jixozlash dasturi to'g'risida"gi PQ-731 sonli qarorlari qabul qilindi.

Ushbu hujjatlarga asosan farmatsevtik korxonalarni qayta qurish, ularni zamonaviy jihozlash, chet el investitsiyalarini jalb etish, sifat xalqaro tizimini joriy etish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi hududida 109 farmatsevtik korxonalari o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar. Ular bugungi kunga kelib 1000 ga yaqin dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarmoqda. Ishlab chiqarilayotgan dori vositalari va tibbiy buyumlardan asosan har xil nomdagi tabletkalar, in'yeksion eritmalar, ichki va tashqi maqsadda ishlatilagan eritmalar, kapsulalar, surtmalar va boshqa dori turlari hamda, bir qancha tibbiy buyumlar ishlab chiqarish texnologiyalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ulardan bir nechtasi xorijiy davlatlarga eksport qilinadi. Bu esa o'z navbatida, davlatimiz byudjetini xorijiy valyuta bilan to'ldirishga zamin yaratadi. Maxalliy farmatsevtik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar respublikamiz aholisini dori vositalari va tibbiy buyumlarga bo'lgan talabni taxminan 17-20% ta'minlaydi.

Bu ko'rsatkichni jahonning rivojlangan mamlakatlarida o'z aholisini mahalliy farmatsevtik korxonalarda ishlab chiqarilgan dori vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi 50 % dan 60 % gacha, AQSh da esa bu ko'rsatkich 70 % dan ortiqligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizdagi farmatsevtika sohasi bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamdagi tashkiliy ishlar bu ko'rsatkichni kelasi yillarda jadal sur'atlarida rivojlantiradi.

Hukumatimiz ishlab chiqqan "Milliy dori siyosati" - bu borada aholini dori ta'minotini yaxshilash borasidagi muhim tadbirlar rejasi belgilangandir. Ular:

1. O'zbekistonning boy tabiiy resurslari asosida zamonaviy dori turlarini va standartlash usullarini yaratishdir.
2. Yaratilgan dorilarni belgilangan tartibda laboratoriya va klinik sinovlardan o'tkazish va amaliyotga joriy etish.

3. Mahalliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirish.
4. O'zbekiston olimlari tomonidan yaratilgan shuningdek, chet el zamonaviy texnologiyalari asosida olinadigan dori turlarini ishlab chiqarishga joriy etish.
5. Mamlakatimizning ichki va tashqi farmatsevtika bozoriga chiqarilishini ta'minlash bilan davlat salohiyatini ko'tarishga hissa qo'Shish vazifalarida belgilanadi.

Farmatsevtika sohasining oldiga nafaqat Respublika aholisini sifatli tibbiyot mahsulotlari bilan talabni qondirish, balki eksport miqdori ham oshirish masalasi maqsad qilib qo'yildi. Hozirgi kunda respublikamzdagi 20 dan ortiq farmatsevtik korxonalar o'z mahsulotlarini Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston, Tojikiston, Latviya va Afg'oniston davlatlariga eksportini amalga oshirmoqda.

Farmatsevtika sohasini qo'llab quvatlashga bo'lgan e'tiborni hisobga olib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston farmsanoati baland cho'qqilarga chiqadi, kelajakda jahon bozorlarini «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» degan yozuv ostida farmatsevtik mahsulotlar bilan keng miqyosda ta'minlanishi hech shubhasizdir.

Hukumatimiz rahbariyati tomonidan aholini yuqori sifatli, bezarar va etarli darajadagi samarali dori vositalari bilan ta'minlash ishlariga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida”gi (1996 yil 29-avgust) va “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida”gi (1997 yil 25-aprel) qonunlarida, mamlakatda dori vositalari muomalasining qonuniy asoslari yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi milliy dori siyosatida farmatsevtika sohasini rivojlantirish va aholini dori ta'minotini yaxshilash borasidagi tashkiliy va ilmiy-amaliy tadbirlari belgilab berilgan.

O'zbekistonning boy tabiiy zahiralardan yuqori samarali dori vositalarini yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish, shuningdek Respublika dori mustaqilligini ta'minlash, mamlakatimiz farmatsevtika fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 14-iyundagi № PQ-416-sonli “Dori vositalari va tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalarini qo'llab quvvatlash choralari to'g'risida” gi va 2007 yil 19 noyabrdagi PQ-731-sonli “2011 yilgacha bo'lgan davrda farmatsevtika sohasi korxonalarini modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi to'g'risida” gi qarorlari ham, mahalliy farmatsevtika sanoati korxonalarini kelgusida yanada rivojlanishini ko'zda tutuvchi muhim omillardan bo'lib hisoblanadi. Ushbu qarorlar mahalliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirish uchun, ishlab chiqarish sub'yektlarini qo'llab-quvvatlovchi qator imtiyozlar yaratish bilan bir qatorda ularning oldiga, mahalliy xom ashyo zahiralardan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan yangi xom ashyo turlarini yaratish, ularni amaliyotga joriy qilinishini jadallashtirish va zaxiralarini ta'minlash. Shuningdek yangi original dori vositalari bilan bir qatorda, generik dori vositalarini ham ishlab chiqarilishini o'zlashtirish va aholini dori vositalariga bo'lgan talabini yanada to'laroq qondirish kabi masalalarni qo'yadi.

Yuqoridagilardan yangi, mahalliy xom ashyolar asosida tayyorlanadigan, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan, bezarar, import o'rnini bosuvchi dori vositalari texnologiyalarini ishlab chiqish, ularning sifatini Xalqaro standartlar talablari darajasiga ko'tarish, yaratilgan ishlab chiqarish usullarini farmatsevtika va tibbiyot amaliyotiga joriy etish, farmatsevtika fanining dolzarb masalasi ekanligi ko'zga tashlanadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi aholisini yuqori samarador, turg'un va arzon dori-darmon bilan ta'minlash, Farmatsevtik injeneringning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan dori-darmon, aholi ehtiyojini 10%ni qondira oladi xolos. Bundan ko'rinadiki, aholi uchun zarur bo'lgan dori vositalarining asosiy qismi horijiy davlatlardan valyuta hisobiga keltirilmoqda. Bu esa, dorining tannarhiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, shuningdek undan foydalanish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Markaziy Osiyo Respublikalarida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ekologik muvozanatning buzila boshlashi, qolaversa Orol fojeasi, qishloq xo'jaligining turli sohalarida, uzoq yillar davomida zaharli, kimyoviy moddalarni nazoratsiz foydalanish ayrim kasalliklarni keskin ko'payishiga olib keldi. Xususan qandli diabet, allergiya, bo'qoq, jigar, buyrak va kamqonlik kabi kasalliklar bilan

kasallangan bemorlarning soni ko'payib, dori darmonga bo'lgan ehtiyoj yil sayin o'shib ketdi. Respublikada dori ta'minotini yaxshilash usullaridan biri, shu sohadagi mutaxassislarining ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish, ularni aniq maqsad sari yo'naltirish, dorishunos, farmakolog va kimyogarlarning o'zaro hamkorligini kengaytirishdir. Bu muammoni xal qilishning yana bir yo'li, maxalliy xom ashyolardan oqilona foydalanib, yangi dori turlarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishdir. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida dorivor giyoxlarga boy mintaqa hisoblanadi. Bu giyoxlar zaxirasini asrab avaylagan xolda foydalanish, ulardan biofaol moddalarni ajratib olib o'rganish va amaliyotga tatbiq qilish mutaxassislar oldida turgan jiddiy masalalardan hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan xolda maxalliy dorivor o'simlik xom ashyolaridan olingan quruq ekstraktlar va sun'iy usulda olingan biofaol moddalardan tabletka dori turini yaratish, tayyor mahsulotning miqdoriy tahlil usulini ishlab chiqish, ularni biofarmatsevtik nuqtai nazaridan baxolash Farmatsevtik injeneringning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Axolini dori darmon bilan ta'minlashda tayyor dori vositalarining o'rni beqiyosdir. Xozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda tayyor dori vositalarini umumiy dori vositalarining 99% ga, xamdo'stlik mamlakatlarida 90%, 2010 yilga borib esa faqat tabletka dori turining o'zini 85% ga etkazish mo'ljallanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruhsat etilgan dorilar ichida tayyor dori vositalarining ulushi 73% ni tashkil etadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng esa bu ko'rsatkich 90% dan oshib ketdi va rivojlangan xorijiy mamlakat ko'rsatkichlariga tenglashib qoldi. Lekin bu ko'rsatkich asosan chetdan keltirilayotgan TDV hisobiga ekanligini aytib o'tish lozim.

O'zbekiston xukumati TDV ishlab chiqarishni rivojlantirish muammosini xal qilishda katta amaliy ishlarni amalga oshirmoqda. Respublikada farmatsevtika sanoatini kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 iyundagi № 290 - sonli Prezident qaroriga muvofiq Davlat-aksionerlik konserni "O'ZFARMSANOAT" tashkil etildi.

"O'ZFARMSANOAT" ning birlamchi vazifalaridan qilib quyidagilar belgilandi:

- Yuqori samarador dori vositalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;
- bozor konyukturasi asosida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish;
- xom ashyo bazasini rivojlantirish;
- chet el korxonalar bilan o'zaro manfaatdorlikka asoslangan iqtisodiy xamkorlikni o'rnatish;
- ichki rezervlar va chet el investitsiyalari asosida bugungi kunda bor va yangi ishlab chiqarish - korxonalarini qayta jihozlash va yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasida 92 ta korxonalar dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarish litsenziyasiga ega. Respublikada 590 dan ortiq mahalliy dori vositalari ro'yhatdan o'tgan bo'lib, umumiy ro'yxatdan o'tgan dori vositalarining 12 % ni tashkil etadi.

Tahlil natijalari bo'yicha maxalliy dori vositalari umumiy strukturasi 32 ta original dori vositalari (birinchi marotaba yaratilgan), 523 turdagi generik dori vositalari, hamda 20 ta substansiya va 38 ta davolash va diagnostik vositalar ishlab chiqarishga ruxsat etilgan.

Mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining 475 ta nomdagisining to'liq texnologiyasi o'zlashtirilgan bo'lsa, 80 turdagi dori vositalarini ishlab chiqarish chet el firmalari tomonidan keltiriladigan yarim tayyor mahsulotni qo'llashga asoslangandir.

Mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan dori vositalari dori turlari bo'yicha tahlil qilinadigan bo'lsa, ular 36,6% tabletkalar va kapsulalar, 19,21% in'eksion eritmalar, 10,3% tashqi maqsadda ishlatiladigan eritmalar, 10,34% surtma dori va linimentlar, 11,92% dorivor o'simlik yig'malari va 11,63% boshqa dori turlaridan iboratdir.

Agar mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan dori vositalar farmakoterapevtik guruhlar bo'yicha tahlil qilinadigan bo'lsa, ular antibakterial (16%), immunobiologik (2%), yallig'lanishga qarshi nosteroid dori vositalari (13%), yurak qon tomiri tizimi kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladigan dori vositalar (12%), kimyoviy jarayonlarni muvofiqlovchi dori vositalar 11%) va bOshqalardan iboratdir.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Farmatsevtika sanoati ("O'zfarmosanoat") Davlat - aksionerlik konsernini tashkil etish to'g'risidagi 1993 yil 2 iyundagi PF №290 farmoniga muvofiq tashkil etilgan "O'zfarmosanoat Davlat aksionerlik konserni tayyor dori vositalari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan barcha korxonalar va tashkilotlarning ishlarini muvofiqlashtirib, aniq maqsad sari yo'naltirishi lozim.

Bundan tashqari respublikada 90 dan ortiq farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mulkchilik shakli turlicha bo'lgan korxonalar faoliyat olib bormoqda. Mustaqillikni dastlabki yillarida maxalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan farmatsevtika mahsulotlari aholini dori vositalariga bo'lgan talabini 1% dan ham kamroq miqdorda qondirgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 12% dan ortiqni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Dori vositalari va tibbiyot buyumlarining 9-son Davlat Reestriga binoan mahalliy korxonalar tomonidan 638 nomdagi mahalliy sharoitlarda ishlab chiqarilayotgan dori turlari tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilib, qayd etilganligini ko'rish mumkin, shulardan 174 tasi tabletka dori turlaridan iboratdir. Ular tahlil qilib chiqiladigan bo'lsa 18 tasi - 10,35 % mahalliy tashkilot va muassasalar tomonidan yaratilgan original dori vositalardan, 156 tasi - 89,65 % esa generik dori vositalardan iboratligi ko'zga tashlanadi. Yuqorida sanab o'tilgan dori vositalarining deyarli xech biri to'liq mahalliy xom ashyolar asosida ishlab chiqarilmasligini ta'kidlab o'tish joiz.

Ekologiyadagi muvozanatning ma'lum darajada buzilishi, sintetik dori-darmon va oziq-ovqatlarni ko'p iste'mol qilish, aholini immun tizimini zaiflashtirishga olib kelmoqda. Natijada axoli orasida turli xil kasalliklarga osongina chalinish holatlari kuzatilmoqda.

Aholini maxalliy xom ashyolardan foydalanib, kam zaharli, allergiya chaqirmaydigan, turg'un, yuqori biosamarador, arzon dori vositalari bilan ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Bu muammoni xal qilish yo'llaridan biri o'zimizda o'sadigan dorivor o'simliklardan oqilona foydalanishdir. Xozirgi vaqtda tibbiyot amaliyotida ishlatilayotgan dori vositalarining 50% dan ko'prog'ini o'simlik xom ashyolaridan olingan preparatlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida o'sadigan dorivor o'simliklardan biofaol moddalar va ularning majmuasini ajratib olish, ularni har tomonlama o'rganish va sanoat miqyosida ishlab chiqarishga tatbiq qilish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shu kunning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Fikrimizning dalili sifatida ko'p yillardan buyon M. Ulug'bek nomidagi Milliy Universitet, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademik S.Yu. Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti, akademik O.S.Sodiqov nomidagi bioorganik kimyo institutlari bilan Toshkent Farmatsevtika instituti olimlari hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borib ijobiy natijalarga erishganligini aytib o'tish lozim.

Bioorganik kimyo institutidagi tadqiqotlardan gossipol xosilalari, fiziologik faolligi bo'yicha samarador hisoblanib, virus, yara va shishlarga qarshi dori vosita va immunosupressiv vosita sifatida ishlatiladi. Gossipol va uning xosilalari bo'lgan immunosupressiv xususiyatiga ega bo'lgan batriden tabletka shaklida, megasin esa uchuq va toshmalarni davolash uchun surtma dori shaklida ishlab chiqarilmoqda. Batriden suvda yomon erishi sababli faolligi qisman chegaralangan bo'lib, uning polivinilpirrolidon bilan xosil qilgan birikmasi - mebavin o'zining eruvchanligi, so'rilishi bo'yicha batridendan afzalligini ko'rsatdi.

Toshkent Farmatsevtika instituti olimlari S.M. Maxkamov, V.A. Kalaydjyan va SH.N. Shodmonovalar tomonidan mebavin, ragosin, gazolidonlardan yaratilgan dori turlari korxonalar sharoitida ishlab chiqarilib, bugun amaliyotda ishlatilmoqda. M.Ulug'bek nomidagi Milliy Universitetning tabiiy birikmalar kimyosi laboratoriyasida gangituvchi bozulbang guli va bargidan olingan quruq ekstrakt - inebrin bilan olib borilgan dastlabki farmakologik tadqiqotlar uning samarador qon to'xtatuvchi vosita ekanligini ko'rsatdi.

O'zimizda o'sadigan maxalliy xom ashyolardan bunday preparatlar ishlab chiqarilmaganligini inobatga olsak, inebrinni axamiyati o'z-o'zidan tushunarli bo'ladi. Shu laboratoriya xodimlari keng kosachabargli bozulbangning er ustki qismidan plateks (quruq ekstrakt) degan preparatni oldilar. U yuqori samarador gipotenziv vosita ekanligini ko'rsatdi.

Inebrin va plateks substansiyalaridan tabletkada dori turi yaratildi, ular amaliyotga tatbiq etish bo'sag'asida.

Ayustan Turkiston ayugasi novdalari (Cormus Ajuga Turkestanica Rgl) dan olingan quruq ekstrakt bo'lib, tarkibida ekdisteroidlar (ekdisten, tukesteron, 22-atsetilasteron, siasteron), iridoidlar (8-O-atsetilgarpagid va garpagid) va boshqa ekstraktiv moddalar saqlaydi. Ayustan preparati organizmda onalik sutini ko'paytiruvchi xossaga ega.

Flateron - flavonoidlar yig'indisi hisoblanib, ketma-ket gulli termopsis er ustki qismidan (Thermopsis alterniflora R Fabaceae) olingan quruq ekstrakt. Tarkibida flavonoidlar formononetin, lyuteolin, xrizoeriomarin saqlaydi. Olib borilgan farmakologik tadqiqotlar flateronni yuqori gipolipidemik va antisklerotik vosita ekanligini ko'rsatdi.

Tabiiy xom ashyolardan olingan faol substansiyalar bilan birga sun'iy yo'l bilan olingan preparatlarni xam dori vositasi sifatida foydalanish lozimligini xech kim inkor eta olmaydi. Bu sohada respublikamiz etuk mutaxassislarga ega bo'lib, ularning ilmiy tadqiqotlari natijalaridan unumli foydalanish lozim.

Toshkent Farmatsevtika instituti Markaziy Osiyoda mikroelement saqlagan kompleks brikmalarni sintez qilish, tarkibini o'rganish va amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha etakchi o'rinni egallaydi.

Institut olimlari tomonidan sintez qilingan va amaliyotga tatbiq etish uchun taklif etgan preparatlardan feramid, kupir, piratsin, sinopir, koamid, kogistin, pirofer va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Bizni mintaqamizda eng ko'p tarqalgan xastalik kamqonlikdir. yuqorida nomlari zikr etilgan preparatlar asosan temir yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'lgan kamqonlikni davolashga tavsiya qilingan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar askofer (askorbin kislotasini feramid bilan aralashmasi), mumifer (mumiyoni feramid bilan aralashmasi), feraskafol (feramidni askorbin kislotasi, koamid va fol kislotalari bilan aralashmasi) tabletkalarining antianemik faolligi, bu preparatlarning o'ziga qaraganda biosamaradorligi ancha yuqori bo'lishini ko'rsatadi.

Sanoat farmatsiyasi fani talabalarda mutaxassislik mahoratini mukammal shakllantirish, ularda sanoat miqyosida tayyor Sanoat farmatsiyasi texnologiyasi bo'yicha umumiy ko'nikmalar hosil qilish hamda zamonaviy texnologiya nuqtai-nazaridan farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va ishlab chiqarishni ta'minlash masalalarini qamrab oladi. O'quv dasturida farmatsevtika fani va amaliyotining, farmatsevtik ishlab chiqarishning uzoq kelajakka mo'ljallangan istiqbollari yoritilgan shuningdek, fanni farmatsevtik ishlab chiqarish va sog'likni saqlash amaliyotiga yaqinlashtirish to'laligicha asoslab berilgan.

“Sanoat farmatsiyasi” fani ixtisoslik fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, talabalar uni 7 va 8-semestrlarda o'rganishadi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (oliy matematika, informatika va informatsion texnologiyalar, fizika, anorganik kimyo, organik kimyo, fiziologiya anatmoiya asoslari bilan, botaniqa, ekologiya), umumkasbiy fanlar (analitik kimyo, fizik va kolloid kimyo, biologik kimyo, kimyoviy mikrobiologiya, farmakologiya, sanoat gigienasi, muhandislik grafikasi, hayot faoliyati havfsizligi, kimyo-farmatsevtik ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari, metrologiya va standartizatsiya, umumiy kimyo texnologiyasi, lotin tili, elektrotexnika, farmakognoziya, farmatsevtik kimyo, ishlab chiqarish menejmenti, energotexnologiya) dan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga hizmat qiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda dori vositalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarish bo'yicha umumiy tushunchalarini shakllantirish va rivojlantirish, o'zining fikr-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o'rgatish hamda egallangan bilimlar bo'yicha, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarga dori vositalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarish uchun dori va yordamchi moddalarni tanlash, maqsadga muvofiq bo'lgan texnologik usul va uslublardan foydalangan xolda ishlab chiqarishni tashkil qilish vazifalarini bajaradi.

10-MA`RUZA. DORI VOSITALARINI ISHLAB CHIQRISH SOHASIDA DORI VOSITALARINING SIFATINI NAZORAT QILISH BO`YICHA MUTAXASSIS HAQIDA UMUMIY MA`LUMOTLAR VA UNING VAZIFALARI.

Ma'ruza rejasi:

1. Sifat nazorati tushunchasi. Sifat nazorat qilish bo'limining klassifikatsiyasi
2. Dori-darmonlarni, boshqa materiallarni, vositachilarni va sanoat ob'ektlarini sinovdan o'tkazish bo'limi hodimlarining vazifalari va amaliy ko'nikmalari
3. Dori vositalarini ishlab chiqarishda sifatini nazorat qilishni tashkil etish va boshqarish bo'limi hodimlarining vazifalari va amaliy ko'nikmalari

Tayanch so`z va iboralar: *sifatni nazorat qilish, sinovdan o'tkazish, namunalar, boshqarish, quyi bo'linmalar.*

Sifat nazorati - namunalar tanlash, spetsifikatsiyalar, tahlil o'tkazish bilan bog'liq GMP ning bir qismi, shu bilan birga barcha tegishli tahlillar o'tkazilmaguncha mahsulot sotuvga chiqarilmasligini kafolatlovchi tashkiliy, hujjatli va ruxsat beruvchi jarayonlarning barchasi o'tkazilganligi va xom ashyo va materiallar sifati o'rnatilgan ravishda tekshirilib ijobiy natijalar olinmagunga qadar ishlatilmasligini va tayyor mahsulot sotuvga ruxsat olmagunga qadar chiqarilmasligini kafolatlovchi tadbirlar majmuasi.

| | | |
|---|--|---|
| Farmatsevtik ishlab chiqarish sohasida dorilar sifatini nazorat qilish | Dori-darmonlarni, boshqa materiallarni, vositachilarni va sanoat ob'ektlarini sinovdan o'tkazish | Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va sanoat ob'ektlari namunalarini tanlash va hisobga olish bo'yicha ishlarni olib borish |
| | | Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish vositalarining namunalarini sinash |
| | Dori vositalarini ishlab chiqarishda sifatini nazorat qilishni tashkil etish va boshqarish | Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish vositalarini sinovlarini (laboratoriya ishlarini) boshqarish |
| | | Farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida dorilar sifat nazorat qilish jarayonlarini boshqarish (laboratoriya ishlaridan tashqari) |
| | | Quyi (bo'ysunuvchi) bo'linmalar xodimlarining ishini tashkil qilish |

Har bir zavodda sifat nazorat qilish bo'limi mavjud. Sifat nazorati bo'limi yana 2ta maxsus bo'linmalarni o'z ichiga oladi. Bular dori-darmonlarni, boshqa materiallarni, vositachilarni va sanoat ob'ektlarini sinovdan o'tkazish va dori vositalarini ishlab chiqarishda sifatini nazorat qilishni tashkil etish va boshqarish bo'linmalaridir. Har bir bo'linmada maxsus birlashtirilgan hodimlar faoliyat yuritishadi. Ularning ish faoliyati va ko'nikmalari to'g'risida quyida alohida to'xtalamiz.

Dori-darmonlarni, boshqa materiallarni, vositachilarni va sanoat ob'ektlarini sinovdan o'tkazish bo'linmasi hodimlari

Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va sanoat ob'ektlari namunalarini tanlash va hisobga olish bo'yicha ishlarni olib boruvchi hodimning mehnat faoliyatidir:

- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhitining ob'ektlarini tanlash uchun uskunalar va idishlarni tayyorlash;
- Belgilangan protseduralarga muvofiq namuna olish va etiketkalash uchun kerakli operatsiyalarni (manipulyatsiyalarni) bajarish;
- Tanlangan namunani qismlarga ajratish (agar kerak bo'lsa);
- Tanlangan dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarining miqdoriy hisobini yuritish
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhitining tanlangan namunalarini saqlash sharoitlari va muddatlarini nazorat qilish

Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va sanoat ob'ektlari namunalarini tanlash va hisobga olish bo'yicha ishlarni olib boruvchi hodimga kerakli ko'nikmalar:

- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhitining ob'ektlarini tanlash va ularni saqlash sharoitlarini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan asbob va moslamalardan foydalanish;
- Aseptik sharoitda namunalarni qo'llash;
- Belgilangan talablar va tartiblarga muvofiq dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlari namunalarini tanlash bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarining nazorat namunalarini saqlashni ta'minlash;
- Namunalarni saqlash shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarining tanlangan namunalarini hisobga olish;
- Dori vositalari sifatini nazorat qilish bo'yicha hisobot hujjatlarini yuritish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarining sifatini nazorat qilishda ishlatiladigan asbob-uskunalar va o'lchov vositalarining ishlashini nazorat qilish.

Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish vositalarining namunalarini sinashni olib boruvchi hodimning mehnat faoliyati:

- Belgilangan tartibda sinovdan o'tkazish uchun tibbiy mahsulotlar, xomashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlarning sinov namunalarini tayyorlash;
- Laboratoriya jihozlarini, materiallari va buyumlarini tayyorlash, dori-darmonlarni, xom ashyo va qadoqlash materiallarini, oraliq mahsulotlarni va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarini belgilangan tartibda sinov uchun eritmalar tayyorlash;
- Farmakopeya talablariga va dori vositasini ro'yxatdan o'tkazish hujjatiga muvofiq talab qilinadigan operatsiyalarni bajarish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarida o'tkazilgan test natijalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ishlash va talqin qilish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarini sinovdan o'tkazish paytida yuz bergan hodisalar, og'ishlar va o'zgarishlar to'g'risida yuqori lavozimli xodimga ma'lumot berish;
- Belgilangan talablarga muvofiq dori vositalarining predmet-miqdoriy yozuvlarini yuritish.

Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish vositalarining namunalarini sinovni olib boruvchi hodimga kerakli ko'nikmalar:

- Farmakopeya talablari, me'yoriy hujjatlar va belgilangan tartibda kimyoviy, biologik va fizik-kimyoviy usullardan foydalangan holda dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhitining ob'ektlarini sinovdan o'tkazish;
- Laboratoriya jihozlari va jihozlarini belgilangan talablarga muvofiq ishlatish;
- Sub'ektiv-miqdoriy hisobga olinadigan dori vositalari aylanmasi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olish uchun ro'yxatga olish hujjatlarini tuzish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhitining ob'ektlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarining sinov natijalarini qayta ishlashda foydalaniladigan matematik statistika usullaridan foydalanish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhitining ob'ektlarini sinovdan o'tkazishda ro'yxatga olish hujjatlarini saqlash;
- Professional sifat nazorati muammolarini hal qilish uchun me'yoriy, ilmiy va ilmiy-texnik ma'lumotlarni qidirish va tahlil qilish.

Dori vositalarini ishlab chiqarishda sifatini nazorat qilishni tashkil etish va boshqarish bo'linmasi hodimlari

Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish vositalarini sinovlarini (laboratoriya ishlarini) boshqaruvchi hodimning mehnat faoliyati:

- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhitining zaruriy sinovlarini o'tkazish bo'yicha ishlarni rejalashtirish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlaridan namunalar olish, sinov usullarini tasdiqlash;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarini sinovdan o'tkazishda belgilangan talablarga muvofiqligini nazorat qilish;
- Sinov natijalarini talqin qilish va xom ashyo, qadoqlash materiallari, oraliq, quyma mahsulotlardan foydalanishga ruxsat berish yoki taqiqlash to'g'risida qaror qabul qilish;
- O'tkazilgan testlar uchun hujjatlar, shu jumladan analitik varaqlar, analitik pasportlar bajarilishini nazorat qilish;
- Laboratoriya reaktivlari, hajmli laboratoriya shisha idishlari, titrlangan eritmalar, namunaviy namunalar va madaniy muhit sifatini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- Laboratoriya jihozlarining ishlashini va laboratoriya binolarining holatini kuzatish, ularning holatini aniqlash bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlari sinovlarining sifatini ichki va tashqi nazoratini tashkil etish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti uchun spetsifikatsiyadan tashqari test natijalarini tekshirishda yetakchilik qilish.

Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish vositalarini sinovlarini (laboratoriya ishlarini) boshqaruvchi hodimga kerakli ko'nikmalar:

- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlarning o'tkazilgan sinovlarini farmakopeya talablariga, ro'yxatga olish hujjatlari talablariga va belgilangan tartiblarga muvofiqligini baholash;

- Dori-darmonlarni, xom ashyoni va qadoqlash materiallarini, oraliq mahsulotlarni va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarini bemorlarning xavfsizligi nuqtai nazaridan sinovdan o'tkazishda o'zgarish va og'ishlarning ahamiyatini baholash;
- Dori-darmon, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarini sinovdan o'tkazishda o'zgarishlar va og'ishlarni sifatini tahlil qilish usullari va vositalaridan foydalangan holda tekshirish o'tkazish;
- Sinov xonalari, jihozlar, analitik tizimlar, materiallar va reaktivlarning yaroqliligini baholash;
- Farmatsevtika ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish tartiblarini ishlab chiqish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarini sinovdan o'tkazish sifatini nazorat qilish rejalarini ishlab chiqish;
- Ommaviy hujjatlarni baholash;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarining ichki va tashqi sifatini nazorat qilish natijalarini baholash.

Farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida dorilar sifat nazorat qilish jarayonlarini (laboratoriya ishlaridan tashqari) boshqaruvchi hodimning mehnat faoliyati:

- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlari sifatini nazorat qilish tartibini tasdiqlash;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhitining namunalari tanlash va hisobga olish bo'yicha ishlarni boshqarish;
- Analitik usullar bo'yicha ishlarni boshqarish va dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlari sifatini nazorat qilish tartibini amalga oshirish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallarining arxiv va nazorat namunalari saqlash bo'yicha ishlarni boshqarish;
- Tayyor mahsulotning barqarorligini keyinchalik o'rganish bo'yicha ishlarni boshqarish;
- Texnik ko'rsatkichlardan chetga chiqish, tayyor mahsulot sifatiga kelib tushgan da'volarni tekshirish;
- Xom ashyo va qadoqlash materiallarini yetkazib beruvchilarni tasdiqlash va monitoringini o'tkazish;
- Sifatni nazorat qilish hujjatlarini ishlab chiqishda yetakchi;
- Mahsulot sifatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarni kuzatish uchun tekshirish, tadqiqotlar va namunalarni olishni nazorat qilish;
- Dori vositalari ishlab chiqarish va sifatini nazorat qilish bilan bog'liq faoliyatni boshqa tashkilotlarga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- O'z vakolatlari doirasida tayyor mahsulotlar sifatini har yili ko'rib chiqishni tayyorlash;
- Paketlarning xom ashyo va tayyor mahsulotlar bilan to'g'ri etiketlanishini nazorat qilish;
- Sub'ektiv-miqdoriy hisobga olinishi lozim bo'lgan dori vositalari aylanmasi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olish uchun ro'yxatga olish hujjatlarini yuritilishini nazorat qilish.

Farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida dorilar sifat nazorat qilish jarayonlarini (laboratoriya ishlaridan tashqari) boshqaruvchi hodimga kerak ko'nikmalar:

- Farmatsevtika ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish jarayonlarini ishlab chiqish;
- Farmatsevtika ishlab chiqarishida sifatni nazorat qilish jarayonlariga qo'yilgan belgilangan talablarni talqin qilish;
- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlari sifatini nazorat qilish bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqishga rahbarlik qilish;
- Barqarorlikni keyingi o'rganish uchun dasturlarni ishlab chiqish;
- Analitik protseduralarni tasdiqlash rejalarini ishlab chiqish va olingan natijalarni baholash

- Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish muhiti ob'ektlarini sinovdan o'tkazishda o'zgarishlar va og'ishlarning ahamiyatini bemorlarning xavfsizligi nuqtai nazaridan baholash;
- Sifat uchun xavfni tahlil qilish usullari va vositalaridan foydalangan holda kelib tushgan da'volarning o'zgarishi va o'zgarishi bo'yicha tekshiruvlar o'tkazish;
- Tayyor mahsulotlar va xom ashyo sifatining yillik talablarini belgilangan talablarga muvofiqligi, ishlatilgan tayyor mahsulotlar va materiallar sifatining pasayishi tendentsiyalari borligi va mahsulotlar va jarayonlarni takomillashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- Xom ashyo va qadoqlash materiallarini yetkazib beruvchilarni ro'yxatlash yoki tasdiqlangan yetkazib beruvchilar ro'yxatidan chiqarish uchun baholash;
- Sifat tekshiruvlarini o'tkazish va olingan natijalarni dori vositalari sifati uchun xavf nuqtai nazaridan baholash;
- Dori sifati uchun xavflarni boshqarish vositalari va usullarini qo'llash.

Quyida (bo'ysunuvchi) bo'linmalar xodimlarining ishini tashkil qiluvchi hodimning mehnat faoliyati:

- Bo'ysunuvchi (bo'ysunuvchi) bo'linmalarining shtat talablarini rejalashtirish;
- O'ziga bo'ysunuvchi xodimlarni o'qitish va bilimlarini baholashni tashkil etish;
- Sifatni nazorat qilish bo'limi xodimlarini tanlash va moslashtirish (ularning vakolatlari bo'yicha);
- Vazifalarni taqsimlash va sifat nazorati bo'limi xodimlari o'rtasida ishlash, ularning bajarilishini nazorat qilish;
- Tuzilmaviy bo'linmalar xodimlarini muntazam profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etish;
- Mehnat sharoitlarini baholash (ularning vakolatlari bo'yicha).

Quyida (bo'ysunuvchi) bo'linmalar xodimlarining ishini tashkil qiluvchi hodimga kerak ko'nikmalar:

- Sifatni nazorat qiluvchi xodimlarga ehtiyojni baholash;
- Sifatni nazorat qilish bo'limi xodimlarining kasbiy va malakaviy darajasini baholash;
- Yangi ishga qabul qilingan xodimlarni moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- Sifatni nazorat qiluvchi xodimlarning ish tavsiflarini muvofiqlashtirish;
- Kadrlar tayyorlash shakllari va usullarini rejalashtirish va belgilang;
- Sifatni nazorat qilish bo'limi xodimlarini samarali rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish
- Ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish;
- Ishning aniq yo'nalishlari bo'yicha sifat nazorati xodimlarining faoliyatini tahlil qilish va baholash;
- Muzokaralar olib borish, vakolatni topshirish, boshqa bo'limlarning xodimlari bilan o'zaro aloqada bo'lish;
- Xodimlar tomonidan sanitariya qoidalari, mehnatni muhofaza qilish talablari, ichki mehnat qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish.

11-MA'RUZA. DORI VOSITALARINI SIFATINI TA'MINLASH VA BOSHQARISH MODULINING MOHIYATI. DORI VOSITALARINI ISHLAB CHIQRISH SOHASIDA DORI VOSITALARINING SIFATINI TA'MINLASH BO'YICHA MUTAXASSIS.

Ma'ruza rejasi:

1. Sifatni ta'minlash tushunchasi. Sifat ta'minlash bo'limining klassifikatsiyasi.
2. Dori vositalarini ishlab chiqarishda farmatsevtika sifat tizimi bilan bog'liq ishlarni bajarish bo'limi hodimlarining mehnat faoliyati va ko'nikmalari.

3. Dori vositalarini ishlab chiqarish farmatsevtika sifat tizimida ishlarni boshqarish bo'limi hodimlarining mehnat faoliyati va ko'nikmalari.

Tayanch soʻz va iboralar: *sifatni ta'minlash, hujjatlar, sifat tizimi monitoringi, sifat auditi.*

Sifatni ta'minlash konsepsiyasi GMP talabi asosida va GXPni hisobga olgan farmatsevtik mahsulotni sotuvga chiqarish tizimi bo'lib, u keng qamrovli tashkiliy jarayonlar yig'indisidan iborat. Mahsulotning hayot siklini to'la ifodalashi, ya'ni uning sifati, yaratilishi, ishlab chiqarilishi, ishlab chiqarish loyihalarini tuzish, sifat nazorati va sotilishi kabi barcha bosqichlarda teng ta'minlashi zarur. Mazkur tizim sifatni erkin nazorat qilishni ta'minlaydi va tartibga solib turadi.

| | | |
|--|---|--|
| Farmatsevtik ishlab chiqarish sohasida sifatni ta'minlash | Dori vositalarini ishlab chiqarishda farmatsevtika sifat tizimi bilan bog'liq ishlarni bajarish | Farmatsevtika sifatini tizimida hujjatlarini boshqarish |
| | | Farmatsevtika mahsulotlarini, shartnoma asosida ishlovchi ishlab chiqaruvchilarni, xom ashyo va qadoqlash materiallarini yetkazib beruvchilarni sifat auditi (o'zini tekshirish) |
| | | Dori vositalarini ishlab chiqarish sifati tizimini monitoring qilish |
| | Dori vositalarini ishlab chiqarish farmatsevtika sifat tizimida ishlarni boshqarish | Dori vositalarini ishlab chiqarish uchun farmatsevtik sifat tizimi jarayonlarini boshqarishni tashkil etish |
| | | Farmatsevtika sanoatida dori vositalarini ishlab chiqarish va ularning sifatini nazorat qilish bo'yicha belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish |
| | | Dori vositalarining sifatini ta'minlash bo'limlari xodimlarining ishini tashkil qilish |
| | | Farmatsevtik farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish sifati tizimini tashkil etish, rejalashtirish va takomillashtirish |
| | | Chiqarish to'g'risidagi qaror ijrosi bilan bir qator dorivor mahsulotlar uchun hujjatlar to'plamini baholash |

Sifatni ta'minlash tizimi har bir zavodning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Sifatni ta'minlash bo'limi o'z navbatida quyidagi ikkita bo'linmalardan tashkil topgan: dori vositalarini ishlab chiqarishda farmatsevtika sifat tizimi bilan bog'liq ishlarni bajarish bo'linmasi va dori vositalarini ishlab chiqarish farmatsevtika sifat tizimida ishlarni boshqarish bo'linmalari. Bu bo'linmalardagi hodimlarning mehnat faoliyati quyida batafsil to'xtalamiz.

Dori vositalarini ishlab chiqarishda farmatsevtika sifat tizimi bilan bog'liq ishlarni bajarish bo'linmasi

Farmatsevtika sifatini tizimida hujjatlarini boshqaruvchi hodimning ish faoliyati:

- Farmatsevtika sifati tizimining me'yoriy va ro'yxatga olish hujjatlarini ishlab chiqish va unga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritish;

- farmatsevtika sifati tizimining me'yoriy va ro'yxatga olish hujjatlari yozuvlarini yuritish;
- ro'yxatga olish hujjatlarini belgilangan tartib-qoidalarga muvofiqligini tekshirish;
- farmatsevtika sifat tizimining hujjatlarini ishlab chiqish, ro'yxatdan o'tkazish, berish, olib qo'yish va saqlash tartibini tashkil etish;
- farmatsevtika sifati tizimining hujjatlarini qayta ko'rib chiqish va yangilash tartibini tashkil etish;
- farmatsevtika sifati tizimi hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlarni nazorat qilish;
- belgilangan talablarga muvofiq, dorivor mahsulotlarning partiyalarini ishlab chiqarishni tasdiqlovchi hujjatlarda ishlab chiqarish, qadoqlash, yozuvlarini yuritishni tashkil etish;
- xom ashyolarni, oraliq va tayyor mahsulotlarni chiqarish va rad etish tartibini belgilaydigan protseduralarni ishlab chiqish;
- farmatsevtika sifat tizimida hujjatlarni hisobga olish;
- elektron hujjatlarni boshqarish tartiblarini ishlab chiqish;
- dori vositalari sifatiga bo'lgan xavfni minimallashtirish yoki yo'q qilish bo'yicha tuzatuvchi va profilaktika ishlari rejalarini tuzish;
- mahsulot holatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlarning reestrini yuritish.

Farmatsevtika sifati tizimida hujjatlarini boshqaruvchi hodimga kerak ko'nikmalar:

UKK 6. Faoliyatini aks ettirish asosida o'zini takomillashtirish va o'zini rivojlantirish qobiliyati, yangi vaziyatlarga moslashish, to'plangan tajribani haddan tashqari baholay olish, uning imkoniyatlarini tahlil qilish, yangi g'oyalarni (ijodkorlik) shakllantirishga moyilik.

Fiziologiya odam anatomiyasi asoslari bilan

Fiziologiya odam anatomiyasi asoslari bilan moduli organizmning barcha tizimlar faoliyatini o'rganadi, farmatsevtlar uchun tabiiy va sun'iy ravishda olingan dorivor preparatlarni organizmga ta'sir mexanizmlari haqida bilimlarni yanada mukammal bo'lishiga asos yaratadi.

Modul o'quv rejaning umumkasbiy modullar blokiga taalluqli. Fiziologiya odam anatomiyasi asoslari modulini mukammal o'zlashtirish uchun talabalar quyidagi modullardan yetarli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari kerak: fiziologiya, genetika, mikrobiologiya.

Modul dasturining asosiy maqsadi:

- talabalarda organizmning tuzilishini, unda kechadigan jarayonlarni idora etish mexanizmlarini, organizmni o'rab turuvchi muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirining qonuniyatlarini to'g'risida bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish.

Modul dasturining asosiy vazifalari:

- talabalarda hujayra va to'qimalarning tuzilishi to'g'risida tushuncha hosil qilish;
- talabalarda qon tarkibi shaklli elementlarining tuzilishi tarkibi o'rganish;
- talabalarni yurakning tuzilishi, va fiziologiyasini o'rganish;
- talabalarni nafas olish tizimi tuzilishi va faoliyati haqida bilimlarga ega bo'lishi;
- talabalarni hazm tizimi a'zolari bilan tanishtirish;
- talabalarga odam ayiruv tizimi haqida ma'lumot berish;
- talabalarni ichki sekretsia bezlarining funksional mexanizmlari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi;
- talabalarni qo'zg'aluvchan to'qimalar haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- talabalarga markaziy asab tizimini (MAT) tuzilish va faoliyati haqida bilimlarni o'zlashtirishi;
- talabalarni sezgi a'zolarining faoliyati mexanizmlari o'zlashtirishi;

Modul bo'yicha talabalarning bilim ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: Talaba:

- fiziologiya odam anatomiyasi asoslari bilan modulini o'rganishni zamonaviy usullari va vazifalari, tibbiyot va farmatsevtikadagi ahamiyatini organizmning barcha tizimlarini umumiy faoliyatida tutgan o'rnini to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;

- fiziologiya sohasida to'plangan bilimlar farmatsevtika instituti talabalari uchun dori moddalarini ta'sir etish mexanizmini tushunishga katta yordam berishini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

- Barmoqdan qon olish va qon tahlil qilish texnikasi.

- ABO sistemasida qon guruxlarini aniqlash.

- Odamda yurak qon tomir tizimi faoliyatini tahlil qilish usullarini o'rganish.

- Jadval yordamida O'TSni aniqlash.

- Pay refleksini aniqlash

- Jadval yordamida asosiy almashinuvni aniqlash.

- Analizatorlar faoliyatini o'rganish.

- Insonlarda Danini-Ashner refleksini kuzatish.

- Guruh liderini aniqlash bo'yicha **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1. Barmoqdan qon olish texnikasi
2. Panchenkov usuli buyicha ECHT ni aniqlash.
3. Sali usuli buyicha qonda gemoglobing mikdorini aniqlash.
4. Eritrotsitlarni sanash

5. Rang ko'rsatkichni hisoblash.
6. AVO sistemasida kon guruxlarini aniqlash.
7. Odamda puls (tomir urish)ni tekshirish.
8. Odamda elektrokardiogrammani qayd qilish.
9. Odamda arterial qon bosimini Korotkov usulida aniqlash.
10. Jadval yordamida lozim bo'lgan O'TSni aniqlash.
11. Pay refleksini aniqlash
12. Jadval yordamida asosiy almashinuvni aniqlash.
13. Ko'rish keskinligini aniqlash
14. Ko'rish maydonini aniqlash
15. Ko'z tubida ko'r nuqta aniqlash (Mariotta tajribasi).
16. Suyak va havo o'tkazuvchanligini o'rganish (Weber tajribasi).
17. Danini-Ashnerning shartli refleksini ishlab chiqish va yo'q qilish insonlarda.
18. Guruh liderini aniqlash.

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:

- UK 11. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
- UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
- UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va axloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
- UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;
- UKK 11. Zamonaviy kompyuter vositalari, tarmoq texnologiyalari, ma'lumotlar bazalari va bilimlardan foydalangan holda ilmiy va professional ma'lumotlarni qidirishning amaliy qobiliyatiga ega;
- UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;
- UKK 3. Farmatsevtik hujjatlarni yuritishga tayyorgalik;
- UKK 4. Faoliyatning turli sohalarida farmatsevtik bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
- UKK 5. Kasbiy faoliyatni axloqiy me'yorlar va farmatsevtika etikasi va deontologiyasining axloqiy tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshirish qobiliyati;
- UKK 6. Faoliyatini aks ettirish asosida o'zini takomillashtirish va o'zini rivojlantirish qobiliyati, yangi vaziyatlarga moslashish, to'plangan tajribani haddan tashqari baholay olish, uning imkoniyatlarini tahlil qilish, yangi g'oyalarni (ijodkorlik) shakllantirishga moyilik.

**15-MA`RUZA. FARMATSEVTIK KIMYO VA FARMAKOGNOZIYA
MODULLARNING FARMATSEVTIKA SOHASIDAGI O`RNI VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI.**

Ma'ruza rejasi:

1. Farmatsevtik kimyo fanining mohiyati va asosiy vazifalari.
2. Farmatsevtik kimyo fanini boshqa fanlar orasida tutgan o'rni.
3. Dori moddalarining sifatini nazorat qilish davlat tizimi
4. Farmakognoziya fani to'g'rsida tushuncha.
5. Farmakognoziya fanining maqsadi va vazifalari.
6. Farmakognoziya fanini rivojlanishi

Tayanch iboralar: *farmatsevtik kimyo, farmakopeya, me'eri hujjat, Me'oriy texnik hujjat, Farmakognoziya fani, dorivor o'simliklar, dorivor o'simlik mahsulotlari, ofitsinal mahsulot, noofitsinal mahsulot, chinlik, makroskopik tahlil, mikroskopik tahlil, sifat reaksiya, mikrokimyoviy reaksiya, birlamchi sintezlangan moddalar (birlamchi metabolitlar), ikkilamchi sintezlangan*

moddalar (ikkilamchi metabolitlar), asosiy ta'sir qiluvchi moddalar, asosiy ta'sir qiluvchi moddalari bilan uchraydigan moddalar, ballast moddalar

1.1. Farmatsevtik kimyo fanining mohiyati va asosiy vazifalari.

Farmatsevtik kimyo yuqori malakali dorishunos-mutaxassislarni tayyorlashda yetakchi fanlardan biri bo'lib, u dori moddalarini olish yo'llarini, fizikaviy va kimyoviy xossalarini, ularning kimyoviy tuzilishi bilan kishi organizmiga bo'lgan ta'sir o'rtasidagi munosabatlarni hamda dori moddalarining sifatini nazorat qilish (tahlil) usullarini va saqlash shart-sharoitlarini o'rgatadi. Yosh mutaxassis, farmatsiyaning qaysi sohasida ishlashidan qat'iy nazar, u albatta dori-darmonlarning fizikaviy va kimyoviy xossalarini mukammal bilgan holda, ularning sifati ustidan nazorat qilish, saqlash, qadoqlash va manzilga yetkazish kabi shart-sharoitlarga doir masalalarni to'g'ri va tez hal qila bilishi lozim.

Dori moddalarining kimyoviy tuzilishlari bilan ularning fizikaviy, kimyoviy va farmakologik xossalari o'rtasidagi qonuniy boqlanish borligini mukammal bilgan holda turli guruh fiziologik faol dori moddalarning (vitamin, gormon, antibiotik va boshqalar) molekula tuzilishiga kimyoviy yoki biosintez usullar yordamida ma'lum bir o'zgarish kiritib, yarim sintez yoki mutlaqo yangi kimyoviy tuzilishdagi dori moddalarini olish hamda ular sifatini nazorat qilishga doir talabnoma va qoidalarni ishlab chiqish, dori moddalarining farmakologik ta'sirchanligini va xavfsizligini ta'minlash uchun ular sifatini nazorat qilish usullarini ishlab chiqib, umumlashtirish kabi muammolarni hal etish farmatsevtik kimyo fanining asosiy vazifalaridir.

Bundan tashqari, farmatsevtik kimyo fani turli sirtqi omillar ta'sirida dori moddalarida kimyoviy va fizikaviy o'zgarishlar (oksidlanish-qaytarilish, gidrolizlanish va boshqalar) yuz berishi mumkinligini tushuntirib, shu asosda yaroqlilik muddatini belgilash, barqarorligini saqlab turish hamda dori turlarini tayyorlashda ularning tarkibiga kiruvchi moddalarning kimyoviy jihatdan bir-biriga mos kelish-kelmasligini oldindan bilishga, shuningdek, ongli ravishda dori moddalarini saqlash sharoitini va sifatini normativ-texnik hujjatlar asosida tog'ri baholab berishga yordam beradi.

1.2 Farmatsevtik kimyo fanining boshqa umumiy va ixtisoslashtiruvchi fanlar bilan boqliqligi.

Dori vositalarining sifatini nazorat qilish va standartlash fani umumiy ta'lim fanlaridan noorganik kimyo, organik kimyo, analitik kimyo, fizkolloid kimyo, biologik kimyo, fizika, matematika, mikrobiologiya, lotin tili fanlarining nazariya va qonunlaridan, hamda usullaridan foydalanadi. Shuningdek mazkur fan ixtisoslashtiruvchi fanlardan farmakognoziya, dori turlari texnologiyasi, yig'indi preparatlar texnologiyasi, farmatsiya ishini tashkil qilish va iqtisodi, toksikologik kimyo, farmakologiya, klinik farmakologiya fanlari bilan uzviy bog'langan.

Farmakognoziya – dorivor o'slimliklarning tashqi belgilari, anatomiyasi, morfologiyasi, tarkibidagi biologik faol birikmalarning tavsifi, ularning sifat va miqdoriy tahlili, son ko'rsatkichlarini aniqlash, tabiatda tarqalishi, zahiralarini aniqlash, dorivor o'simlik xom ash'yosini tayyorlash masalalari bilan shug'ullanadi.

Dori turlari texnologiyasi fani-dori turlarining olinish usullari, texnologiyasining o'ziga xos tomonlarini nazariy va amaliy muammolari bilan shug'ullansa, tayyorlangan dori turining sifatlilikini aniqlash bu farmatsevtik kimyo fanining vazifasi hisoblanadi.

Farmatsiya ishini tashkil etish va iqtisodi fani dorixonalar va davolash profilaktika muassalarini dori vositalari bilan ta'minlash va kasalga yetkazib berish, ularning saqlash sharoiti, yaroqlilik muddati asosida dorixona iqtisodini rejalashtirish masalalari bilan shug'ullanadi. Dori moddasining kimyoviy tuzilishi va kimyoviy xossalari bilan bog'liq holda saqlash sharoiti, yaroqlilik muddati va qadoqlash muammolarini hal qilish esa "Farmatsevtik kimyo" fanining vazifasidir.

Toksikologik kimyo dori modallarning zaxarlilik darajasini aniqlash, ularni biologik ob'jektdan ajratib olish, sifat reaksiyalarini va tahlil usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanib, "Farmatsevtik kimyo" fanining tahlil usullaridan foydalanadi.

Farmakologiya fani dori moddalarning organizmga ta'siri mexanizmini o'rgansa, Farmatsevtik kimyo fani dori moddasining organizmga ta'siri bilan uning kimyoviy tuzilishi orasidagi bog'liklik qonuniyatlarini o'rganadi. Biologik kimyo fani organizmda kechadigan biologik jarayonlar mexanizmini o'rgansa, Farmatsevtik kimyo fani dori moddalarning metabolitlari va ularning tuzilishini o'rganish bilan shug'ullanadi.

1.3. Dori moddalarining sifatini nazorat qilish davlat tizimi

O'zbekiston Respublikasida standartlash ishlarining umumiy, tashkiliy-texnik qoidalarini ishlab chiquvchi standartlashning Davlat tizimi faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikada standartlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish quyidagi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi:

- Xo'jalik sohasida – vazirlar maxkamasi qoshidagi standartlash, metrologiya va sertifikatlash bo'yicha davlat markazi (O'zDavStandart).

- Tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni ifloslanishi va boshqa zararli ta'sirlardan muxofaza qilish sohasida Davlat tabiatni muxofaza qilish qo'mitasi.

- qurilish, qurilish sanoati, inshootlarni loyihalash va konstruktsiya soxasi. (Davlat arxitektura qurilish qo'mitasi.)

- Tibbiyot mahsulotlari, tibbiyot buyumlari, dori vositalari hamda Respublika sanoatida ishlab chiqarilgan va import qilingan dori vositasi tarkibidagi inson salomatligi uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalari bo'yicha – O'zRSSHV qoshidagi dori vositalari va tibbiyot texnikasini sifatini nazorat qilishi Bosh boshqarmasi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 25 may №181son QARORI. Dorivor vositalar, tibbiy buyumlar va davolash-profilaktik oziq-ovqatlari sifati ustidan davlat nazoratini tashkil etish to'g'risida.

Farmatsevtika mahsulotlari, davolash oziq-ovqatlari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish, standartlash va sertifikatlash soxasida yagona Davlat siyosatini ta'minlash maqsadida VM qaror qiladi:

UzR SSVning ushbu vazirlik tarkibida Dorivor vositalar va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

Bosh boshqarmaga dorivor vositalar va diagnostika vositalari, tibbiy texnika va tibbiy buyumlar sifati ustidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish, dorivor vositalar, tibbiy buyumlar, davolash oziq-ovqatlari va tibbiy texnikani ekspertizadan o'tkazuvchi, standartlashtiruvchi, ro'yxatdan o'tkazuvchi va sertifikatlashlovchi muassasalar va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga rahbarlik qilish yuklansin.


DVTTSNQ Bosh boshqarmasi O'zR Vazirlar Maxkamasining 1995 yilning 5 maydagi 181-sonli qarori asosida tashkil etilgan bo'lib, uning zimmasiga dori va tashxis qo'yish vositalari, tibbiyot texnikasi, tibbiyot buyumlari ustidan davlat nazoratini olib borish, tibbiyot texnikasi va dori vositalarini ekspertiza qilishi, standartlash, ro'yxatga olish va sertifikatlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ishini boshqarish va muvofiqlashtirish ishlari yuklatilgan. Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh Boshqarmasi qoshida 4ta qo'mita (farmakopeya qo'mitasi, farmakologiya qo'mitasi, narkotik moddalarni nazorat qilish qo'mitasi, yangi tibbiyot texnikasi qo'mitasi) va 2 ta bo'lim (farm nazorat bo'limi, sertifikatlash va ro'yxatga olish bo'limi) faoliyat yuritadi.

Barcha dori moddalarining sifati ustidan me'yoriy-texnik hujjat (DF, FM, VFM va boshqalar) ko'rsatmasi asosida nazorat o'tkazishda avval preparatning tashqi ko'rinishi, eruvchanligi ko'riladi. So'ngra ularning chinligi, muhiti, tarkibidagi yot moddalar va miqdori aniqlanadi.

Fizikaviy usul dori moddalari chinligini isbotlashda va sifatini baxolashda asosiy omillardan biri bo'lib, u moddalarning fizikaviy konstantalarini aniqlashga asoslangan. Ularga moddalarning suyuqlanish, qaynash va qotish haroratlari, suyuq moddalarning zichligi va qovushqoqligi kiradi. Fizik usullarda tahlil aniqlanuvchi dori moddasining fizikaviy xossalari asoslanib, uskunalarda yordamida bajariladi.


Masalan: refraktometrik, polyarografik, polyarimetrik, spektrofotometrik, fotoelektrokolorimetrik, alangali atom absorbtсион spektroskopik va x.k.

Kimyoviy usullar yordamida aniqlashda Davlat farmakopeyasida preparatlarning xar qaysisiga tegishli xususiy va sezgir reaksiyalar keltirilib, bu dori sifatini nazorat qilishda asosiy omil hisoblanadi. Bunda tahlil faqat kimyoviy reaktivlar, titrantlar va indikatorlar yordamida olib boriladi.



Fizikaviy-kimyoviy usullar- bu usullarda tahlil moddaning kimyoviy va fizikaviy xossalriga asoslanadi. (xromatografik usullar).

Biologik usullar – bunda tahlil biologik ob'ektlar (baqa, kabutar, quyon, kalamush, mikroorganizmlar) yordamida olib boriladi. Masalan: in'yeksion suvning apirogenligini aniqlash, yurak glikozidlari, vitaminlar, garmonlar va antibiotiklarning faolligini aniqlash va x.k.



Gravimetrik (tortma) usul. Bu usulning mohiyati, tekshiriluvchi moddani, uning eritmasidan tegishli reaktiv ta'sirida cho'kmaga o'tkazib, so'ngra uni ajratib olish, yuvish va doimiy og'irlikkacha quritib, tortish hamda chiqqan massa og'irligi asosida miqdorini aniqlashdir.

Titrimetrik usul.

Farmatsevtik tahlilda qo'llanadigan titrimetrik usullarni tekshiriluvchi dori modda bilan titrant o'rtasida boradigan reaksiya asosida quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

-Cho'ktirishga va kam dissotsiyalanuvchi birikma hosil qilishga asoslangan usullar.

-Kislota-asos titrlash (neytrallash) usuli.

-Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasiga asoslangan usul.

-Nitritometriya (diazotirlashga asoslangan) usuli.

-Kompleksonometriya (kompleks birikma hosil qilishga asoslangan) usuli.

Cho'ktirishga asoslangan usullar.

1. Argentometriya (Mor, Fayans va Folgard.)

2. Merkurimetriya usuli

Kislota-asos titrlash (neytrallash) usuli.

1. Suvli muhitda kislota-asos titrlash usuli.

A). Atsidometriya

B). Alkalimetriya

2. Suvsiz muhitda kislota-asos titrlash usuli

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasiga asoslangan usul

Yodometriya

Bromatometriya

Permanganometriya

Serimetriya.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 apreldagi "Dorivor o'simliklar asosidagi dori vositalarini va biologik faol qo'shimchslarini mahalliy korxonalarda ishlab chiqarishni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 32-sonli yig'ilish bayonida belgilangan vazifalarni ijrosini taminlash borasida respublikamizda dorivor o'simliklar sohasidagi izlanishlar va isloxlarga alohida e'tibor berilmoqda. Shuning uchun xozirgi kunda maxalliy o'simlik mahsulotlari asosida dori vositalarini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish farmatsevtika sohasini ustivor vazifarardan bir hisoblanadi. Farmakognoziya fani aynan dorivor o'simliklar, o'simlik mahsulotlari, qisman xayvonlardan olinadigan mahsulotlar hamda shu dorivor mahsulotlarni biologik faol moddalari va ularni tahlilini o'rganadigan fandır. Farmakognoziya fani mutaxassislovchi fan sifatida bo'lajak farmatsevtlarga ularning ish faoliyati uchun zarur bo'lgan bilimlarni berib, ulardan tabiatda o'suvchi dorivor o'simliklarni topish va aniqlay olishni, dorivor o'simlik mahsulotlarini yig'ish vaqti, quritish va saqlashning tejimli usullarini bilish hamda mahsulotlarni farmakognostik tahlilining turli usullaridan foydalanib tahlil qila bilishni talab etadi.

Farmakognoziya grekcha Rnarmacon - zahar, dori, gnosis - bilim so'zidan olingan bo'lib, asosan dorivor o'simliklardan, qisman hayvonlardan olinadigan dorivor mahsulotlarni o'rgatadigan fandır. Farmakognoziya tibbiyot fani bilan uzviy bog'langan bo'lib, insoniyat taraqqiyotida, uning salomatligini saqlash, mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lib, 19 asrda boshqa fanlardan alohida fan bo'lib ajralib chiqqandir. Shundan keyin bu juda tezlikda rivojlana boshladi va bu sohada dunyoga mashhur qator olimlar etishib chiqdilar.

Fanning maqsadi va vazifalari

Farmakognoziya fanining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: Fitopreparatlar yaratish uchun zarur bo'lgan biologik faol moddalar hamda dori turlari tayyorlash manbai sifatida dorivor o'simliklarni o'rganish. Shu maqsadda ularning kimyoviy tarkibi tekshiriladi hamda asosiy ta'sir etuvchi biologik faol moddalar yig'iladigan organlari va vaqti aniqlanadi. Tabiiy sharoitda yo'qolib ketish xavfi bo'lgan va kamayib ketayotgan muhim dorivor o'simliklarni muhofaza qilish maqsadida ularni asrab qolish va plantatsiyalarda o'stirish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Respublikamizda yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish maqsadida ularni ko'plab o'sadigan joylarini izlab topib, xaritaga tushirish, zahirasini aniqlash, yillik yig'ish miqdorini rejalash hamda dorivor mahsulotni yig'ish, quritish, saqlash va transportda jo'natish tadbirlarini ishlab chiqish. Dorivor mahsulotlarga me'yoriy- hujjatlarni (MX) tuzish. Buning uchun dorivor mahsulotlarning chinligini, sifati hamda biologik faol moddalarini aniqlash usullarini mukammallashtirish, qayta ko'rib chiqish yoki yangi usullar yaratish.

Fitopreparatlar va dorivor o'simliklar xazinasini boyitish maqsadida yangi dorivor o'simliklar izlab topish va yangi, samarali fitopreparatlar yaratish. Shu maqsadda xalq orasida va an'anaviy tabobatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarni hamda tibbiyotda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning boshqa turlarini o'rganishni tashkil qilish.

Fan bo'yicha talabalarning malakasiga qo'yiladigan talablar

“Farmakognoziya” fanini o‘zlashtirish jarayonida talabalar: - farmakognoziyaning asosiy tushunchalari, uning maqsad va vazifalari, rivojlanish bosqichlari, dorivor o‘simliklar sohasidagi ilmiy tekshirishlarning asosiy yo‘nalishlari; - O‘zbekiston dorivor o‘simliklar xom ashyosi bazasi; dorivor o‘simlik mahsulotlari va qisman hayvonlardan olingan dori vositalari nomenklaturasi va tasnifi; - dorivor o‘simlik mahsulotlarini tayyorlash asoslari; - dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibi va uning ontogenezdada hamda tashqi omillar ta‘sirida o‘zgarishi; - dorivor o‘simlik mahsulotlarini amaldagi MX asosida qabul qilish va tahlildan o‘tkazish tartibi; - dorivor o‘simliklar hamda o‘simlik va qisman xayvonlardan olingan dori vositalarining tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishi to‘g‘risida asosiy ma‘lumotlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi; - dorivor o‘simliklarni morfologik belgilari bo‘yicha aniqlash; - dorivor o‘simlik mahsulotlarini makro-, mikroskopik va kimyoviy tahlil usullari; - amaldagi MX asosida dorivor o‘simlik mahsulotlarini qabul qilish va ularning sifatini aniqlash uchun tovarshunoslik tahlil usullari; - dorivor o‘simlik mahsulotlarini butun, maydalangan, kukun xolida aniqlash, shuningdek dorivor o‘simlik briketlari, yig‘malarni tahlil qilish usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - dorivor o‘simlik mahsulotlarini tayyorlashni uyushtirish; - dorivor mahsulotlar tarkibidagi asosiy ta‘sir etuvchi moddalar (polisaxaridlar, vitaminlar, efir moylari, iridoidlar, alkaloidlar, yurak glikozidlari, saponinlar, oddiy fenollar va ularning glikozidlari, antratsen unumlari, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, kumarinlar, yog‘, yog‘simon moddalar va boshqalar) ni sifat va miqdoriy tahlilini o‘tkazish; - dorivor o‘simlik mahsulotlarini qabul qilish va ularning sifatini belgilovchi ko‘rsatkichlarini amaldagi MX talablariga muvofiq aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Farmakognoziya tarixi ilm fan taraqqiy topgan davrdan boshlangan. Ayrim dorivor o‘simliklarni ekish va ulardan shifobaxsh dorilar olish juda qadimdan ma‘lum bo‘lgan. Masalan, Misrda kanakunjut ekish eramizdan 2000 yil avval ham ma‘lum bo‘lgan. Fanni rivojlanishida mashhur vrach Gippokrat, Aristotel, Teofrast, farmakognoziya asoschisi Dioskorid va boshqalarni xizmatlari benihoya kattadir. Dioskoridning lotin tiliga tarjima qilingan “Materia medica” nomli mashhur kitobida juda ko‘p dorivor o‘simliklar tasvirlangan bo‘lib, Evropa olimlari uchun 16 asrga qadar qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. 304 ta dorivor o‘simlik va 80 ta hayvon va 60 ta mineral moddalardan olingan dorilar tasvirlangan, vrach Galen yozib qoldirgan kitobi (150 yillar) va uning dorilari 19 asrgacha katta ahamiyatta ega bo‘lib keldi (Rim). Dorivor o‘simliklar bilan bemorlarni davolash qo‘xna Xindistonda ham keng rivojlangan edi. Masalan, vrach Sushruta yozgan “Yajur - veda” (Hayot hakidagi fan) kitobida 700 xil dorivor o‘simlik bayon etilgan bo‘lib, bu kitob o‘zining qimmatini hozirgacha yo‘qotgani yo‘q. O‘rta Osiyoda ham dorivor o‘simliklar va ulardan olingan dorilar bilan davolashda buxorolik Ibn Sino, xorazmlik Beruniy, Al Xorazmiy va boshqalar katta xissa qo‘shdilar.

Abu Rayxon Beruniyni “As-savdana”, ya‘ni “Tabobatda dorishunoslik” asarida sharqda qo‘llanilayotgan dorivor o‘simliklardan 750 tasini tasvirlagan. Ibn Sinoning 1020 yili bosilib chiqqan 5 tomli “Al - qonun” (tibbiyot qonunlari) asarida 400 dan oshiq dorivor o‘simlik va mineral moddalardan 811 tasi tasvirlangan. 13 asrda birinchi marta arab farmakopeyasi “Karabadini” va shunga o‘xshash bir qancha kitoblar bosilib chiqqan. Birinchi dorixonalar ham shu vaqtlarda ochilgan. 1620 yilda dorixonalar va vrachlar ishini boshqaradigan idora - Aptekarskiy prikaz tashkil etildi. 17 asrning oxirlarida rus tilida yozilgan dorilar to‘g‘risidagi birinchi kitoblar bosilib chiqdi. Dorivor o‘simliklarni topish, undan biologik faol moddalarni ajratib olish, kimyoviy tomondan o‘rganish uning farmakologik ta‘sirini aniqlab tibbiyotga joriy qilishda akademiklardan O.S.Sodiqov va S.Yu.Yunusovlar va ularning shogirdlarining xizmatlari juda katta bo‘lib butun dunyoga mashhurdir.

Dorivor o‘simliklarni tayyorlash uchun quyidagi ishlar bajariladi:

1. Dorivor o‘simliklarni tayyorlashni uyushtirish.
2. Mahsulotni yig‘ish. (Biologik faol modda saqlanadigan o‘simlik organi).
3. Mahsulotni quritish.
4. Mahsulotni standart holatiga keltirish.
5. Mahsulotni omborlarda maydalash.
6. Mahsulotni qadoqlash.

Dorivor mahsulotlarini tayyorlashda quyidagilarga rioya qilinadi:

1. O'simlik ko'p va to'p - to'p bo'lib o'sishi kerak.
2. O'simlik o'sadigan joy transport yo'liga yaqin bo'lishi kerak.
3. Tayyorlash joyi aholi yashaydigan joyga yaqin bo'lishi kerak.
4. Mahsulotni yig'ilgan joyini o'zida quritish zarur.

Dorivor o'simliklarni o'stirish

Yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklar ortib borayotgan dorixonalar Bosh boshqarmasi va farmatsevtika zavodlarini tobora ortib borayotgan ehtiyojini qondira olmayotganligi tufayli ularni madaniylashtirish va ekish joylarini kengaytirish katta ahamiyatga ega. Chet el o'simliklarini, tropik o'simliklarni o'stirish ham zarur.

Dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibi to'g'risida umumiy tushuncha

O'simlik tarkibida uchraydigan barcha birikmalar meditsina nuqtai nazaridan 3 ga bo'linadi. 3 1.

O'simlikning asosiy ta'sir qiluvchi moddalari.

2. O'simlikning asosiy ta'sir qiluvchi moddalari bilan birga uchraydigan moddalar. Ular o'zlari organizmga ta'sir etmasada, ta'sir qiluvchi moddani ta'sir kuchini o'zgartiruvchi, organizmga so'rilishini tezlashtirishi mumkin.
3. Keraksiz, ballast moddalar.

O'simlik hujayrasida to'xtovsiz biokimyoviy o'zgarishlar yuz berib turishi tufayli, biologik ta'sir qiluvchi moddalar ma'lum vaqt va sharoitda turli o'zgarishlarga uchrashi mumkin. O'simlik hujayrasida bo'ladigan uzluksiz o'zgarishlar natijasida asosiy ta'sir qiluvchi moddalarning o'zgarishi o'simlik yosh qariligiga, o'sish (vegetatsiya) davriga, tashqi muhitga (o'sish joyi, namlik, tuproqning tarkibi, iqlim va boshqalar) bog'liq. Biologik faol moddalar o'simlikning yer ustki organlarida (poya, barg, gul) asosan gullash davrida, meva va urug'larida esa ularning to'liq etilishi davrida, er ostki organlarida vegetatsiya davri oxirlarida (ko'pincha kech kuzda) maksimal miqdorda to'planadi. Dorivor mahsulotlar biologik ta'sir qiluvchi moddalar maksimal ko'p to'plangan vaqtdagina tayyorlanadi. Dorivor o'simlik mahsulotlarining kimyoviy tuzilishi yoki biologik ta'sir qilishi bo'yicha klassifikatsiya qilinadi.

Dorivor o'simliklarni o'rganishda bilish kerak:

1. Dorivor o'simlik va dorivor mahsulotlarning o'zbekcha, ruscha va lotincha nomlari, ularning qaysi oilaga mansubligini bilish. O'simlik va hayvonlarning lotincha nomi 2 ta so'zdan iborat bo'lada. Ularning birinchisi avlodni, ikkinchisi turni bildiradi.
2. O'simlikni tasvirlash.
3. Shu o'simlikni geografik tarqalishi, tabiiy sharoitda qaysi o'simliklar bilan o'sishi.
4. Mahsulotlarni yig'ish usullari.
5. Mahsulotni tasvirlash.
6. Mahsulotni mikroskopik va mikrokimyoviy analizi.
7. Mahsulotni kimyoviy tarkibi (birga uchraydigan moddalar) formulasi.
8. Meditsinada ishlatilishi va dori turlarini bilish.

Farmakognoziyani asosiy ilmiy yo'nalishlari

1. Dorivor o'simliklari yuqori samarali fitopreparatlar manbai sifatida o'rganish (kimyoviy tarkibi chuqur o'rganilishi lozim).
2. Yangi dorivor o'simliklarni izlab topish va ularni tibbiyot amaliyotida ishlatishga tatbiq etish (xalk tabobatida va an'anaviy tibbiyotda qo'llanilayotgan o'simlarni chuqur o'rganish va tibbiyotga joriy etish). Buning uchun:
 - a) xalk tabobati va ilmiy tibbiyotda ishlatilayotgan dorivor o'simliklarni o'rganish,
 - b) o'simliklarda o'zaro filogenetik qardoshligini hisobga olgan holda ularni o'rganish (bir turkum yoki bir oila) (amigdalini ra'noguldoshlar), tropan alkaloidlari va h.o.
 - c) ma'lum bir hudud (region) yoki tuman o'simliklarini yalpisiga kimyoviy analiz qilish (kumarinlarga, alkaloidlarga, glikozidlarga va h.o.).
3. Dorivor o'simlik mahsulotlariga va yangi yaratilgan fitopreparatlarga normativ - texnik - hujjatlar (NTH) tuzish.
4. Resursshunoslik ishlari va dorivor o'simliklarni muxofaza qilish.

16-MA`RUZA. TOKSIKOLOGIK KIMYO MODULINING MOHIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Ma'ruza rejasi:

1. Toksikologik kimyo, toksikologik kimyoni o'qitishning maqsadi;
2. Toksikologik kimyo fanini boshqa fanlar bilan bog'liqligi va u o'rganadigan masalalar;
3. Obyektlari va usullari hamda ularning belgilari, kimyo toksikologik tekshiruvining o'ziga xos xususiyatlari;
4. Obyektlardan zaharli moddalarni ajratib olish, ajralmalarni tozalash va zaharlarni tahlil qilish usullari;

Tayanch so'z va iboralar: *Toksikologiya, toksikokinetika, toksikodinamika, obyekt, suv bug'i yordamida haydash, sianid kislota, distillyat.*

Toksikologik kimyo farmatsevtika kasbiga oid asosiy fanlardan biri bo'lib, zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalarning xossalarni, zaharli birikmalar va ularning hosilalarini biologik obyektidan ajratib olish hamda ularning sifat va miqdorini aniqlash usullarini o'rgatadi.

Toksikologik kimyo toksikologiya bilan uzviy bog'liq. **Toxikon** - so'zi zahar, **logus** – esa o'rganaman degan so'zlardan tashkil topgan, u tibbiyot ilmida zaharlarni tirik organizmga ta'sir etish jarayonlarini o'rgatadi.

Toksikologiyada zaharlarni organizmga ta'siri ikki asosiy yo'nalishda, ya'ni zaharli modda organizmga qanday ta'sir etishi (toksikodinamika) va organizmga kirgan zaharli modda qanday o'zgarishlarga uchrashi (toksikokinetika) holda o'rganiladi. Hozirgi davrda toksikologiyada uch asosiy yo'nalish mavjud: nazariy (eksperimental), profilaktik (gigienik) va klinik yo'nalishdir.

Nazariy toksikologiya zahar va organizm orasida sodir bo'ladigan o'zaro ta'sirlashuv qonuniyatlarini o'rganadi.

Profilaktik toksikologiya kimyoviy moddalarni xavflilik darajalari va ulardan saqlanish bilan bog'liq masalalarni o'rgatadi.

Klinik toksikologiya esa – tibbiyot ilmi bo'lib, kimyoviy moddalarni zaharli ta'siri natijasida sodir bo'ladigan kimyoviy kasalliklarni o'rgatadi.

Klinik toksikologiya quyidagi asosiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Kimyoviy birikmalarning bir yo'la yuqori miqdorda ta'sir etishi natijasida sodir bo'ladigan kuchli zaharlanish holatlarini o'rganish.
2. Zaharli birikmalarni uzoq vaqt oz-ozdan ta'sir etishi oqibatida sodir bo'ladigan uzluksiz zaharlanish.
3. Narkologik toksikologiya – insonlarning narkotik (giyohvand) moddalarga berilishi va unga kurash choralarini.
4. Dori moddalar toksikologiyasi – dorivor moddalarning organizmga qo'shimcha va zaharli ta'sirlarini o'rgatadi.

Kimyo sanoati rivojlanishi bilan birga barcha mamlakatlarda zaharli ta'sir etuvchi ko'pdan-ko'p sintetik birikmalar paydo bo'la boshladi. Bunday birikmalarning sanoatda, qishloq va xalq xo'jaligida, tibbiyotda va turmushda qo'llanilishi esa toksik vaziyat deb ataluvchi, inson salomatligiga zararli ekologik xavf tug'diruvchi yangi xavfli holatni vujudga keltiradi.

Hozirgi kunda eng ko'p zaharlanishlar sodir bo'lishiga sabab bo'layotgan 500 dan ortiq zaharli birikmalar mavjud. Kuchli zaharlanish hollari, asosan, tasodifiy (bilmagan holda) va bilib turib o'z-o'zini davolash, o'z-o'zini zaharlash maqsadida turli kimyoviy birikmalarni iste'mol qilish natijasida sodir bo'lmoqda. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida turmushda bilgan yoki bilmagan holda zaharlanish tobora ko'payib bormoqda va bu hol umumiy zaharlanishning 98% ni tashkil etadi.

Sanoatda, kasbga uzviy bog'liq holda sodir bo'lgan kasbiy zaharlanish hollari asosan surunkali, ya'ni uzluksiz zaharlanishdan iborat.

Zaharlanish hollarini bunday o'sib borishini aniq sabablaridan biri, odamlarning doimiy tinchlantiruvchi dori moddalarini iste'mol qilishlari bilan uzviy bog'liq.

Klinik toksikologiyaning asosiy vazifasi diagnoz qo'yish, davolash va zaharlanishning oldini olish ishlarini tashkil etishdan iborat.

Zaharli birikma va kishi a'zolari o'zaro ko'p sabablar bilan bog'liq, bu bog'liqlik zaharli birikma va jabrlanuvchi holatiga ham tegishli bo'ladi.

I. Zahar va zaharlanuvchi holatiga bog'liq bo'lgan asosiy sabablar:

- a) fizik-kimyoviy holat;
- b) zaharli birikma dozasi va organizmga tushgan modda miqdori (konsentratsiyasi);
- c) organizmda tarqalishi;
- d) moddaning kimyoviy tozaligi va yot moddalar bilan birga bo'lishi.

II. Qo'shimcha sabablar:

- a) organizmga tushish tezligi va yo'llari;
- b) zaharli birikmalarni organizmning biror qismida to'planishi (kumulyatsiya), yoki organizmni zaharga o'rganishi (privo`kanie);
- c) boshqa dori va zaharli birikma bilan birgalikda ta'siri;
- d) ko'rish va ta'm sezgirligi;
- e) jabrlanuvchining vazni va ovqatlanish tarzi;
- i) jinsi;
- k) yoshi;
- l) allergiya yoki toksikomaniyaga moyilligi;
- m) jabrlanuvchining umumiy sog'lig'i.

Quyidagi qonuniyat, ya'ni uglevodorodlarning normal ketma-ket bog'lari ularning izomerlariga nisbatan zaharliligi kuchliroqdir. Masalan: propil va butil spirtlari izopropil va izobutil spirtlariga nisbatan kuchli narkotik (giyohvand) ta'sir ko'rsatadi.

Tsiklik birikmalar, atsiklik birikmalarga nisbatan kuchli ta'sir etadi. Masalan: siklopropan, siklopentan va siklogeksan bug'lari, propan, pentan va geksan bug'lariga nisbatan zaharliroq ta'sir etadi.

Molekulaga gidroksil guruhi kirishi bilan moddani zaharli xususiyati kamayadi. Masalan: spirtlar ularga mos keladigan uglevodorodlariga nisbatan kuchsiz zaharli ta'sir ko'rsatadi.

Galogen, nitro-, nitrozoamin guruhlari kirishi bilan zaharli xususiyat kuchayadi. Molekulada qo'sh bog' bo'lishi ham zaharli xususiyatni oshiradi. Masalan: amid spirti, propil spirti C_3H_7OH ga nisbatan kuchli zaharli ta'sirga ega.

Richardson qoidasiga asosan, gomologik qator va molekulyar massa ortishi bilan moddaning zaharli xususiyati ham ortadi. Lekin ularning birinchi namoyondasi bo'lgan chumoli kislotasi ($HCOOH$), chumoli aldegidi (CH_2O) va metil spirti (CH_3OH) lari, sirka kislotasi CH_3COOH sirka aldegidi CH_3COH va etil spirtiga C_2H_5OH nisbatan kuchli zahar.

Zaharlanish bir yo'la bir necha zahar bilan sodir bo'lishi mumkin (kombinirovanno`y). Birgalikda ta'sir deganda bir vaqtning o'zida organizmga tashqi muhitdagi o'zgarishlar, masalan: atrof muhitdagi yuqori harorat, zaharli modda bilan bir xil yoki turlicha ta'sir etuvchi bir yoki bir necha birikmalarni birgalikda ta'sir etishlari tushuniladi.

Erkaklar bir guruh zaharli birikmalarga, masalan, fosfororganik moddalar, nikotin, insulinga sezgir bo'lsa, ayollar boshqa guruh zaharli birikmalarga, masalan, is gazi, morfin, barbituratlariga nisbatan o'ta sezgir bo'ladilar. Ayniqsa zaharli modda ayollarga homiladorlik va hayz ko'rish davrlarida kuchliroq ta'sir etadi.

Kishining yoshiga qarab zaharli birikmalarga sezgirliligi turlicha bo'ladi. Bir guruh zaharlar yoshlarga, boshqalari esa keksalarga kuchli ta'sir etsa, uchinchi guruh zaharli birikmalar uchun yoshning ahamiyati sezilmasligi ham mumkin.

Uzoq vaqt ta'sir etishi tufayli organizmda idiosinkraziya (surunkali kasallik), allergiya, bog'liqlik, toksikomaniya, ayrim hollarda olinganda alkogolizm, morfinizm, kokainizm yoki

barbituratlariga moyillik hollari vujudga keladi. Shunday qilib, har qanday zaharlanish organizm va zaharli birikma orasidagi juda murakkab o'zaro ta'sir, hamda tashqi muhitdagi ko'pdan-ko'p sharoitlar bilan uzviy bog'liq.

Toksikologik kimyo fani haqida ma'lumotlar. Toksikologik kimyo – toksikologiya va kimyo bilan uzviy bog'liq fandır. Hozirgi kunda bu fan zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalar va ularni to'qimalar, organlar va organizm suyuqliklari tarkibida sodir bo'luvchi o'zgarish mahsulotlarini biologik obyektlardan hamda atrof-muhitdan (suv, er, havo, oziq-ovqat qoldiqlari, dorilar) kimyoviy usullar yordamida olish, sifat va miqdorini aniqlash usullarini o'rganishga asoslangan.

O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirining buyruq va qarorlari hamda jinoyat protsessual kodekslarida qayd etilishicha farmatsevt mutaxassisligini egallagan har bir kishi sud-kimyo ekspert va kimyo-toksikolog vazifalarida ishlay oladigan mutaxassis bo'lishlari shart va shu tufayli ular nazariy va amaliy toksikologik kimyoni bilishlari zarur. Kimyo sanoatining tez rivojlanishi va kimyoviy moddalarning xalq xo'jaligida keng qo'llanilishi, sog'liqni saqlash muassasalari oldiga aholi salomatligini saqlash bilan birga kimyoviy birikmalarni insonlarga zararli ta'sirlarini oldini olish kabi vazifalarni ham qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyruqlarida farmatsevtika oliy ta'lim muassasa va fakultetlarga turli zaharli va kuchli ta'sir etuvchi birikmalarni va ularning qoldiqlarini, oziq-ovqat mahsulotlaridan, turli xil tashqi muhit va biologik obyektlardan aniqlay oladigan xodimlarni tayyorlash yuklatilgan. Shu sababli toksikologik kimyo fani boshqa fanlar kabi klinik farmatsiyada muhim o'rinni egallaydi.

Biologik obyektidan zaharli birikmalar va ularning parchalanish mahsulotlarini ajratib olish va aniqlash usullarini o'rganish toksikologik kimyoning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Toksikologik kimyoni o'qitishning maqsadi. Fanni o'qitishdan asosiy maqsad:

-zaharli dori moddalar va ularning parchalanish mahsulotlarini biologik suyuqliklar, odam va hayvon to'qimalaridan aniqlash;

-zaharlanish alomatlarini aniqlash maqsadida turli xil birikmalar uchun laboratoriya tez tahlil usullarini olib borishdan iborat.

Shunday qilib, toksikologik kimyo fanini farmatsevtika oliy ta'lim muassasalarida o'qitish quyidagi uch asosiy bo'limlar asosida olib boriladi:

1. Sud kimyosi – toksikologik kimyoning eng asosiy va eng murakkab bo'limi.
2. Xalq xo'jaligida keng qo'llaniladigan turli zaharli kimyoviy birikmalarni biologik obyektlardan kimyoviy usullarda aniqlash.
3. Kuchli zaharlanishni aniqlash maqsadida obyektlarda tez ekspress tahlil olib borish.

Toksikologik kimyo fanini boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uning masalalari. Toksikologik kimyo fani farmatsevtika fanlar qatoriga kirib, u farmatsevtik hamda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining farmatsevtika fakultetlarida o'rganiladi.

Toksikologik kimyo boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Toksikologik kimyo fani zaharli moddalarni odam va hayvon a'zolariga ta'sirini o'rgatadigan farmakologiya va toksikologiya fani bilan bog'liq.

Zaharli moddalarni sifat va miqdorini aniqlashda analitik va organik kimyo usullari qo'llaniladi.

Zaharli moddalarni organizmdagi metabolitlarlarini o'rganishda toksikologik, biologik, analitik va farmatsevtik kimyo fanlari bilan bog'liqdir. Zaharlanishga sabab ko'p hollarda o'simlik bo'lgani uchun kimyogar farmakognoziya fanini bilishi kerak.

Obyektlar. Kimyo toksikologik tahlillarni vazifasi deganda xarakteri turli bo'lgan aniq va noaniq zaharli modda birikmalarini aniqlash tushuniladi. Bu obyektlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Zaharli modda bilan zaharlanib o'lgan murdadan olinadigan obyektlar. Bularga murda a'zolari (jigar, o'pka, oshqozon, ichak, miya va boshqalar) hamda qon, peshob, qusuq qoldiqlari kabilar kiradi.

Kishi kuchli zaharlanib tirik qolgan holatlarda, tahlil uchun oshqozon yuvindi suvlari, qusuq, qon va peshob obyekt sifatida ishlatiladi. Toksikologik kimyoda bunday tahlil obyektlari umumiy nom "biologik obyekt" deb yuritiladi.

2. Ovqat mahsulotlari, suv, ichimliklar, o'simlik qismlari, dorilar, zaharli kimyoviy birikmalar zaharlanishga sabab bo'lsa ular ham obyekt hisoblanadi. Shuningdek, bu guruhga ishlab chiqarish korxonasi va uy havosi ham zaharlanish manbai bo'lgan bo'lsa ular kiritiladi.

3. Kiyim va kiyimdagi dog'lar, doridan bo'shagan idishlar, zaharli moddalarni iste'mol qilishda ishlatilgan asboblardan va huquqbuzarlikka sababchi bo'lgan obyektlar.

Obyektlarni konservlash. Bioobyektlarni havoni issiq kunlarida uzoq joyga yuboriladigan bo'lsa obyekt konservlanadi. Bunda konservant sifatida etil spirti ishlatiladi. Agar obyekt etil spirti va nitritga tekshirish tavsiya etilgan bo'lsa, unda etil spirti bilan konservlash man etiladi.

Konservlangan obyekt bilan etil spirtini namunasi sud kimyo laboratoriyalariga yuborilishi shart.

Biologik obyekt solingan banka yaxshilab berkitilib, surg'uchli muhr bosilib, bankadagi etiketkaga murdani ismi, familiyasi, tug'ilgan yili bankadagi a'zo nomi, yuborilgan sud tibbiy ekspertizasi akt nomeri, bankani tartib nomeri yozilib sud kimyo laboratoriyasiga yuboriladi. Sud kimyo laboratoriyaga bioobyekt bilan bir qatorda sud tibbiy ekspertining yo'llanmasi yoki sud tergov tashkilotlarini ekspertiza olib borish to'g'risidagi qarori yuboriladi.

Shunday qilib, zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalar saqlovchi kimyo-toksikologik tahlil obyektlari turlichadir. Kimyo-toksikologik tahlil usullari ham obyekt turi va zaharli modda xarakteriga qarab turlicha bo'ladi. Masalan: alkaloidlarni murda a'zolaridan ajratib olish o'z uslublari jihatidan shu moddalarni peshob va qondan hamda o'simlik obyektlaridan ajratib olish mutlaqo bir-biridan farq qiladi.

Ko'pincha zaharli moddalar biologik obyekt tarkibida juda kam miqdorda uchraydi. Shuning uchun zaharli moddani avval obyekt tarkibidan ajratib olinadi va so'ngra tegishli reaksiyalar yordamida aniqlanadi.

Kimyo-toksikologik tahlil usullari ikki guruhga bo'linadi:

- a) toksikologik ahamiyatli moddalarni obyektlardan ajratib olish va tozalash usullari;
- b) ajratib olingan moddalarni sifati va miqdorini aniqlash.

Moddalarni biologik obyektidan ajratib olish ikki bosqichda bajariladi: ajratib olish (ya'ni obyektidan moddalarni suyuqlikka – distillyat, mineralizat yoki dializat holida) va biror usul bilan ularni tozalash.

Zaharli moddalarni ajratib olishda suv bug'i yordamida haydash, biologik obyektini parchalash, qutbli yoki qutbsiz erituvchilar bilan bo'ktirish, dializ usullari qo'llaniladi.

Tozalashda esa ekstraksiyalash, xromatografik usullar, quruq haydash, mikrodiffuziya va shu kabi usullar qo'llaniladi.

Ajratilgan va tozalangan toksikologik ahamiyatli moddalarni kimyoviy, mikrokimyoviy, mikrokristalloskopik, yupqa qavat xromatografiyasi, spektral xarakteristikasi, farmakologik ta'siri va boshqa fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlanadi.

Moddaning kimyoviy xossasi asosida uning miqdorini atsidometriya, alkalimetriya, trilonometriya, fotometriya, spektrofotometriya, ekstraksiyon fotometriya va gaz-xromatografik usullardan birini qo'llab aniqlanadi.

Toksikologik kimyo tekshiruv boshqa kimyoviy tahlillardan tubdan farq qilib quyidagilardan iborat:

1. Zaharli moddalarni turlichaligi, ya'ni ularni turli kimyoviy birikmalar guruhidan tashkil topganligi.

2. Tekshiriluvchi obyektlarni xilma-xilligi, ko'p miqdordagi bioobyekt tarkibidan oz miqdorda bo'lgan zaharli moddalarni ajratib olish.

3. Boshqa kimyoviy tekshiruvlar kabi toza modda bilan ishlamasdan, balki iflos ya'ni, tarkibida yot moddalar saqlagan ajratmalar bilan ishlash.

4. Ajratilgan zaharli moddalarni nihoyatda kam miqdordaligi.

5. Zaharli moddalar organizmga tushganda turli o'zgarishlarga uchrashi va shu o'zgargan mahsulotlarni ya'ni metabolitlarini aniqlash.

6. Sud kimyogarini sud tergov organlari oldida javobgarligi.

Obyektlardan zaharli moddalarni ajratib olish, ajralmalarni tozalash va zaharlarni tahlil qilish usullari. Biologik obyektning zaharli moddaga kimyo-toksikologik tekshiruv bir necha bosqichdan iborat: tekshiriluvchi moddani biologik obyektidan ajratib olish, olingan eritmani yot moddalardan tozalash va uni tozalangan eritmada ajratib olish, ajratib olingan moddani sifat va miqdorini aniqlash.

Yuqorida keltirilgan bosqichlarni bajarish uchun kimyoviy, fizik va fizik-kimyoviy usullardan foydalaniladi.

Obyektlardan zaharli moddalarni ajratib olish usullari

1. **Ekstraksiya.** Biologik suyuqliklardan (qon, peshob, chayindi suvlar) zaharli moddalarni ajratib olishning asosiy usuli ekstraksiyalashdir. Bu usul asosan suvda erigan moddalarni suv bilan aralashmaydigan organik erituvchilar yordamida ajratib olishdan iborat.

Ekstraksiya – bir erituvchida erigan moddani, o'zaro aralashmaydigan ikki suyuqlikda qayta taqsimlanishidir. Bulardan biri suv va ikkinchisi suvda aralashmaydigan organik erituvchilardir.

Ekstraksiya – toksikologik ahamiyatli moddalarni obyektidan ajratib olish va tozalash uchun kimyo-toksikologik tahlilda ishlatiladigan asosiy usullardan biridir.

Moddalarning bir erituvchidan ikkinchisiga o'tishi, shu moddaning ayrim olingan erituvchilarda eruvchanligi bilan bog'liqdir. Moddalarni erituvchilarda taqsimlanishi modda konsentratsiyasi har ikkala erituvchida tenglashguncha davom etadi. Moddani ajratib olinayotgan erituvchida yot moddalar, oqsil, yog', pigmentlarning erimasligi katta ahamiyatga ega.

Moddaning eruvchanligiga erituvchining tabiati, rN- muhit, elektrolitlar katta ta'sir ko'rsatadi.

2. **Suv bug'i yordamida moddalarni haydab ajratish.** Ayrim zaharli moddalar (sianid kislotasi, spirtlar, formaldegid, geksaxloran, nikotin) suv bug'i yordamida haydaladi. Moddalarning bu xususiyatidan ularni biologik obyektidan ajratib olishda foydalaniladi.

3. **Moddalarni vakuumda haydash.** Past havo bosimida moddalar past haroratda ham haydaladi va obyektidan ajraladi. Bu usul yuqori issiqlik ta'siridan parchalanuvchi moddalarni ajratib olishda qo'llaniladi. Masalan, TEQ (tetraetilqo'rg'oshin).

4. **Metall zaharlarni ho'l yoki quruq mineralizatsiyalash** (parchalash) yoki destruksiya usullari bilan ajratib olinadi.

Ajratib olingan moddalarni tozalashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. **Sovunlash.** Bu usul gidrolizga chidamli birikmalar uchun qo'llaniladi. Masalan, xlororganik birikmalarni yog'dan tozalashda, yog'ni gidrolizlash mumkin. Gidrolizdan so'ng asosiy modda ekstraksiyalanadi, bunda organik erituvchida erigan moddani taqsimlanishi koeffitsienti birdan katta, suvda erigan moddaniki esa birdan kichik bo'lishi zarur.

$$K = \frac{C_{\text{org. eritma}}}{C_{\text{suv}}}$$

2. **Qayta ekstraksiyalash (reekstraksiya).** Bu usul modda erigan suvli eritma rN muhitini o'zgartirilishi bilan moddaning eruvchanligi o'zgarishiga asoslangan. Masalan, kislota xossasiga ega bo'lgan moddalarni eruvchanligi ishqoriy sharoitda suvda yaxshi boradi, yoki alkaloidlarda aksincha. Ishqoriy sharoitda organik erituvchida, kislotali sharoitda suvda yaxshi eriydi.

3. **Sulfirlash, yog' va lipidlarga** boy ekstraktlardagi konsentrlangan sulfat kislotaga chidamli moddalarni (masalan, barbituratlar) ajratib olish.

4. **Xromatografik** usullardan yupqa qavatli va gaz-suyuqlik xromatografiyasi zaharli moddalarni tozalash va kimyoviy-toksikologik aniqlashda keng qo'llaniladi.

5. **Yog' va mumsimon moddalarni cho'ktirish.** Bu usul yog' va mumsimon moddalarni sovuq sharoitda atsetonda, atsetonitril va shu kabi erituvchilarda eruvchanligini kamayishiga asoslangan. - 70°S gacha sovitilganda atsetonli eritmada erigan yog' va mumsimon moddalar qalqib chiqadi va ajraladi.

Zaharlarni aniqlash usullari. Oldindan taxminiy tekshiruv va analitik "skrining" usullari. Biologik obyektidan noaniq zaharli moddani aniqlash uzoq vaqt talab qiladi. Ammo zaharlanganda insonga tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun tahlilni tezda bajarish zarur. Jinoyatni sodir bo'lish belgilari, biologik suyuqliklarning rn muhiti, rangi, hidi va boshqa tashqi belgilarga asoslanib tahlilni tezlatish mumkin. Ayniqsa, taxminiy tekshirish usullari tahlilni tezlatishda va tahlil rejasini tuzishda katta ahamiyatga ega.

Zaharli moddalarga kimyoviy-toksikologik tekshirish olib borish qo'llanmalarda tashqi belgilariga asoslanib (oq fosfor, kislotalar, ishqorlar, sianidlar, margimush (As) taxminiy tekshiruv usullari berilgan.

Ba'zi taxminiy tekshiruv usullari yuqori sezgirlikka ega bo'lsa ham spetsifik emas. Ayrim hollarda yuqori sezgirligi tufayli reaksiyalar terapevtik dozadagi moddalarni ham obyektida aniqlanishiga imkon beradi. Taxminiy tekshiruv natijasiga qo'shimcha tahlillar o'tkazib modda chinligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Masalan: barbituratlar bilan zaharlanishni taxminiy tekshirish uchun tekshiriluvchi peshobga kobalt atsetati eritmasini ammiak yoki litiy ishqori sharoitida qo'shib ekstraksiyalab aniqlash mumkin. Fenotiazin hosilalari esa peshobga temir xloridining sulfat kislotali eritmasi qo'shilsa och-qizil rang hosil qiladi.

Farmatsevtikada sifat va metrologiya: Hozirgi zamon fani va texnikasining jadal rivojlanishi sanoat farmasiyasiyo'nalishi bo'yicha faoliyat yuritadigan muhandis – texnolog hodimlarning nihoyatdayuksak bilim darajasiga ega bo'lishini talab qilmoqda. Bu esa oliy o'quv yurtlaridakadrlar tayyorlash usul-uslubini muttasil takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bunda muhandis - biotexnologlar uchun o'qitiladigan metrologiya fanining ahamiyati judakatta. Metrologiya bu o'lchash, usul vositalar birligi ta'minoti va kerakli aniqlikka yetkazish imkoniyatini belgilovchi fan bo'lib, zamonaviy ilm sohalarida asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.

Metrologiya fanining maqsadi – injener - texnolog mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavrlar uchun metrologik ta'minot, elektrik va noelektrikmetrologik parametrlarni standartlashtirish asoslarini o'zlashtirish, o'lchov hamda ishlab chiqarishda qo'llaniladigan o'lchov- asboblarni ishlatishda chuqur nazariy va amaliy bilimga ega bo'lgan bakalavrlar tayyorlashdan hamda xalq xo'jaligining turli

soxalarida, sanoatda, texnikada, iqtisodiyotda, dori vositalari ishlab chiqarishda nazorat va iste'mol bilan bog'liq bo'lgan turli sohalarida me'yoriy xujjatlar va standartlar bilan ishlash borasida yetarli bilim va malaka hosil qilishdan iboratdir. Metrologiya va standartizasiya fanni o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- elektr, magnit va noelektrik kattaliklarni o'lchash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallashlari kerak.

- metrologiyada qonunshunoslik va standartlarning xuquqiy va me'yoriy nizomlarini, Davlat standartlari (DST) ni, tarmoq standartlari (TST) ni bilishlari ishart.

- o'lchash usullari, qurilmalari, elektr o'lchash asboblarining o'lchash sxemalari, texnik tavsiflari, qo'llanilish sohalarini va o'lchash texnika xavfsizligi qoidalarini bilishlari kerak.

- asosiy fizik kattaliklar o'lchamlarini etalonlarini va tekshirish usullarini bilishlari kerak.

- har bir talaba o'lchash usulini, elektr, magnit va noelektrik kattaliklarni o'lchash uchun asboblarni tanlay olishlari, elektr o'lchash asboblarini ulashni vao'lchash xatoligini aniqlashni bilishlari kerak.

Bular bilan bir qatorda bakalavr:

- o'lchashning nazariy asoslari bo'lgan metrologiya fanini o'rganish;

- o'lchashlar va vositalar umumbirligi va talab etilgan aniqlikka erishish usullarini o'rganish;

- Universal o'lchash usuli bo'lgan elektr o'lchashlarni nazariy asoslarni o'rganish va mukammal bilishi kerak.

- metrologik ta'minotni me'yoriy huquqiy asosi bo'lgan standartni o'rganish

- baholash usullari hamda vositalarini o'rganuvchi metrologiyani tarkibiy qismihaqida umumiy ma'lumotlarni bilish.

- elektr, magnit va noelektrik kattaliklarni amaliy o'lchash vositalarini tanlash

- o'lchov asboblarini tanlash sxemalarini yig'ish va xatoliklarini aniqlashnibilish malakalariga ega bo'lishi kerak

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi. Metrologiya fani o'lchashlarning nazariy asoslarini o'rganadigan fan bo'lib,umumiy fizika kursida o'rganilgan parametr va kattaliklarni sanoat va ishlabchiqarishga tatbiq qilgan holda ko'rib chiqiladi. Metrologiya fani fizik – kimyoviyparametrlarni o'lchashni, universal o'lchash usuli bo'lgan elektr o'lchashlarningnazariy asoslarini hamda elektr, magnit va noelektrik kattaliklarni amaliy o'lchash vositalarini tanlashni o'rganishni umumiy fizika, matematika, elektrotexnika asoslariva mutaxassislik fanlari bilan bog'langan holda olib boradi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni. Metrologik jarayonlarni o'lchash va o'lchash texnikasini ishlab chiqarishgakeng joriy etish uchun har bir injener – texnik hodim metrologiya asoslaridantexnologik o'lchash usullari va vositalaridan, hisoblash texnikasidan o'lchashjarayonlarini avtomatlashtirishda foydalanish imkoniyatlaridan xabardor bo'lishizarur. O'lchash vositalari, ularni texnologik jarayonlarda tadbiq qilishni bilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va mahsulot sifatini yuqori darajaga ko'tarishgaxizmat qiladigan asosiy omil hisoblanadi.Shuning uchun —Metrologiya asoslaril fani dorishunoslik yo'nalishi

bo'yichainjener-texnik xodimlar uchun asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, ishlab chiqarish texnologik tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Metrologiya fani ilmiy- texnika taraqqiyotida yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun talabalar bu fanni chuqur o'zlashtirishlari uchun amaliy ish mashg'ulotlarini muntazam ravishda o'tkazish rejalashtiriladi. Talabalar fanning nazariy qismidan olgan bilimlarini amalda qo'llashlari va o'z mahoratlarini to'la namoyish qilishlari uchun amaliy ishlarni shunday tashkil qilish kerakki, unda asbob-uskunalaridan, ko'rgazma qurollaridan, plakatlardan, slaydlardan, diafilmlardan, videofilm va kompyuterdan foydalangan holda olib boriladi. Bu esa talabalarda o'lchash sxemalarini mustaqil tuzish uchun hamda o'lchov asboblarini ishlab chiqarishga tadbiiq qilish uchun nazariy, hamda amaliy zamin bo'ladi.

Texnik vositalar yordamida fizik, kattaliklarning qiymatini tajribada topish o'lchash deb ataladi. O'lchashlar tabiat qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi va bizni o'rab olgan olamni bilish elementi hisoblanadi.

O'lchashning bir-biridan farq qiluvchi ikki usuli: *bevosita* va *bilvosita* usullar mavjud. Bevosita o'lchashda natija kattalikning o'zini bevosita o'lchab olinadi (masalan, tananing harorati termometr bilan, buyumlarning uzunligi chizg'ich bilan o'lchanadi), bilvosita usulda o'lchashda izlanayotgan kattalikning qiymati u bilan bevosita o'lchanayotgan kattalikla rorasidagi ma'lum bog'lanish bo'yicha topiladi (masalan, jismning massasi itaruvchi kuchni hisobga olib tarozida tortib aniqlash, suyuqlikning qovushoqligini sharchaning suyuqlikda tushish tezligiga ko'ra aniqlash). O'lchashlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan texnik vositalar (o'lchash vositalari) turlicha bo'lishi mumkin. Hayotda juda tanish bo'lgan o'lchash vositasi o'lchov asbobi bo'lib, unda o'lchanadigan kattaliklar kuzatuvchi uchun eng qulay shaklda beriladi (masalan, termometrda harorat simob ustunining uzunligi bilan, tok kuchi ampermetrning strelkasi ko'rsatgan raqamlar bilan ifodalanadi). O'lchash vositalariga berilgan o'lchashdagi fizik kattalikni ifodalash uchun muljallangan o'lchovni xam kiritish mumkin (masalan, aniq massaga ega bo'lgan toshlar).

Keng tarqalgan o'lchash vositalaridan biri o'lchov o'zgartirgichi (datchik)dir. U o'lchov axboroti signalili uzatishga, keyinchalik almashtirishga, qayta ishlashga va saqlashga qulay bo'ladigan shaklda ishlab chiqish uchun mo'ljallangan (masalan harorat elektr signali ko'rinishida ifodalanishi mumkin). Fizik kattalikning o'lchash jarayonida olingan qiymati uning haqiqiy qiymatidan farq qiladi. O'lchash natijalarining o'lchanaetgan kattalikning haqiqiy qiymatiga yaqinlashish darajasi *o'lchash aniqligi* bilan xarakterlanadi. O'lchashning aniqlik darajasi o'lchashning sifat ko'rsatkichidir. O'lchashlar natijasini miqdoriy baholash o'lchashning aniqlik darajasi bilan emas, balki *xatolik* bilan, ya'ni, o'lchash natijalarining o'lchanaetgan kattalikning xaqiqiy qiymatidan farqi bilan belgilanadi. Xatolik qancha kichik bo'lsa, o'lchashning aniqligi shuncha yuqori bo'ladi. Xatolikning asosiy manbalari o'lchash asboblarining mukammalemasligi, o'lchovchining malakasi pastligi, tasho'i omillarning ta'siri vahoqazolardir. Bularning ichidan doim ta'sir qilmaydigan va qayta o'lchashdanatijaga boshqacha ta'sir qiluvchi ayrim omillarni ajratish mumkin. Bundayomillar tasodifiy xatolarni vujudga keltiradi. Bu tasodifiykattaliklardir, shuning uchun ularni tegishli matematik apparat, ehtimolliknazariyasi va matematik statistikadan foydalanib, qayta ishlash, tahlilqilish va hisobga olish mumkin. Metrologiyaning asosiy tushunchalaridan biri fizik kattaliklarning birliklaridir. **Fizik kattalikning birligi** deb tegishli fizik kattalikni miqdoriy baholash uchun kelishuvga muvofiq asos sifatida qabul qilingan fizik kattalikka aytiladi. Fizik kattaliklarning birliklari asosan birliklar sistemasi asosida gruppalanadi. Asosiy birliklar sistemasi xalqaro birliklar sistemasi(SI) hisoblanadi. Bu masalalarda to'liq to'xtalib o'tirmasdan, nisbiy valogarifik kattaliklarnigina ko'rib chiqamiz. O'lchash amaliyetida fizik kattalikning dastlabki deb qabul qilingan shunday fizik kattalikka nisbatidan iborat nisbiy kattaliklar keng qo'llanila boshlandi. Misol tariqasida qorishmaning konsentratsiyasini, nisbiy dielektrik va magnit singdiruvchanlikni, foydali ish koeffitsientini, nisbiy deformatsiyani, ishqalanish koeffitsientini, qonqovushqoqligining suvning qovuqoqligiga nisbatini va hokazolarni ko'rsatish mumkin. Nisbiy kattalikning o'lchami va nomi bo'lmaydi. Ayrim hollarda nisbiy

kattalik yuz marta yoki ming marta orttirib ifodalanadi. Bunday hollarda nisbiy miqdorlarning birliklari protsent (%) yoki promille (‰) ko'rinishida ifodalanadi.

O'lchashlar texnik vositalar, yordamida amalga oshiriladi. Bir xil kattaliklar bir vaqtda, xoh turli vaqtlarda xoh bitta laboratoriyada, xoh turli laboratoriyalarda o'lchanishidan kat'i nazar, ma'lum bir aniqlikka egabo'lishi va bir xil bo'lishi shart. Bu shartlar bajarilishi uchun ma'lum metrologik ta'minot yaratish, ya'ni o'lchashlarning birligiga va talabqilingai darajadagi aniqlikka ega bo'lishiga erishish uchun zarur bo'lganilmiy va tashkiliy asoslarni, texnik vositalarni hamda normalarnibelgilash va qo'llash kerak. Mamlakatimizda metrologik ta'minotnipeg asosini davlat va tarmoqlar metrologik xizmatlaridan iborat bo'lgan SSJI metrologik xizmat tashkil etadi.

O'lchashlar birligi deganda aynan bir xil o'lchash natijalarining o'lchash vaqti va joyidan qat'i nazar bir xilligi va o'lchashning ishonchligi tushuniladi. O'lchashlar birligi bir tipdagi har xil asboblarda erdamida olingan o'lchashlar natijalarini o'zaro taqqoslashga imkon beradi. O'lchash vositalarining xatoliklarini aniqlash va ularning foydalanishga yaroqliligini bilish uchun ular tekshiriladi. Tekshirish termini metrologiya uchun alohida tushunchadir. Tekshirish metrologiyaxizmati organlari tomonidan etalonlar va namunali o'lchash vositalarierdamida o'tkaziladi.

Etalon deb qonunlashtirilgan fizik kattalik birliginn aks ettirish va saqlash uchun ishlatiladigan o'lchov asboblari (vositalariga) yoki o'lchov vositalari kompleksiga aytiladi. Mamlakatimizdagi birlamchi etalonlarmazkur birlikni juda yuqokori aniqlikda xosil qilishni ta'minlaydi. Birlamchi etalonlardan tashqapi ikkilamchi etalonlar ham mavjuddir, ular yordamida birlikning o'lchami namunali o'lchash vositalariga beriladi.

Namunali o'lchov vositalari deb namuna sifatida attestatsiyadan o'tgan (attestatsiya — o'lchov vositasi o'z vazifasiga mosligining xujjat bilan tasdiqlanishi va ishchi o'lchov vositalarini tekshirishda qo'llaniladigan o'lchov vositalariga aytiladi.

Ishchi o'lchov asboblari deb turli sohalarda amalda o'lchash uchun qo'llaniladigan o'lchov vositalariga aytiladi. Shunday qilib fizik kattalik birligining o'lchami uzatiladigan metrologik zanjir quyidagi asosiy qismlardan iborat: etalonlar — namunali o'lchov vositalari — ishchi o'lchov vositalari.

Metrologiya – o'lchashlar, uni ta'minlash usullari va vositalari qamda talabetilgan aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan.

O'lchash – fizik kattaliklarning qiymatlarini maxsus texnik vositalaryordamida tajriba usuli bilan topishdir.

O'lchanayotgan kattalikning son qiymati 2 xil usulda topiladi:

1. Bevosita o'lchash usuli
2. Bilvosita o'lchash usuli

Bevosita o'lchash deb shunday o'lchashga aytiladiki, unda o'lchanayotgan kattalikning izlanayotgan qiymati tajriba ma'lumotlaridan bevosita aniqlanadi.

Bilvosita o'lchash deb shunday o'lchashga aytiladiki, unda o'lchash natijasini o'lchanayotgan kattalik bilan ma'lum munosabat yordamida bog'langan kattaliklarni bilvosita o'lchashga asoslangan bo'ladi.

O'lchashlar asosan 2 ga bo'linadi:

Absolyut o'lchash

Nisbiy o'lchash

Bitta yoki bir necha asosiy kattaliklarni fizik konstantalar qiymatlaridan foydalanib yoki foydalanmasdan bevosita o'lchash absolyut o'lchash deb ataladi.

Biror kattalikning shu ismli birlik rolini o'ynayotgan kattalikka nisbatinio'lchash yoki kattalikni shu ismli birlik kattalik deb qabul qilingan kattalikbo'yicha o'lchash nisbiy o'lchash deb ataladi.

O'lchashlar o'lchash printsipini aniqlab beradigan fizik hodisalargaasoslanib olib boriladi. Masalan, moddaning kengayishi bo'yicha temperaturanio'lchash, muvozanatlashtiruvchi suyuqlik o'stunining ko'tarilishi bo'yichavakuumni o'lchash. O'lchashlarida qo'llaniladigan va normallashtirilgan metrologiya xossalargaega bo'lgan texnik vositalar o'lchash vositasi deyiladi. O'lchash printsipini va vositasini belgilab beradigan usullar majmui o'lchashusuli deyiladi.

1. Bevosita o'lchash usuli (to'g'ridan to'g'ri)
2. Differentsial o'lchash usuli
3. O'lchov bilan taqqoslash usuli
4. Nol (kompensatsion) usuli

1. Bevosita o'lchash usuli o'lchanayotgan kattalik miqdorini bevosita o'lchash asbobining hisoblash qurilmasi bo'yicha bevosita topish imkonini beradi.

Masalan: bosimni monometr bilan, massani tarozi yordamida, uzunlikni lineykayordamida o'lchash.

2. Differentsial (ayirmali) usul o'lchanayotgan va ma'lum kattaliklarning ayirmasini o'lchashni xarakterlaydi.

3. G'oyatda aniq o'lchashlarda o'lchov bilan taqqoslash usuli qo'llaniladi.

Bunda o'lchanayotgan kattalik o'lchov yordamida topilgan kattaliklar bilan taqqoslanadi. Masalan, o'zgarish tokning kuchlanishini elektr yurituvchi kuchi normal element EYuKiga teng bo'lgan taqqoslash kompensatorida o'lchash yokimassani tarozida muvozanatlashtiruvchi toshlar bilan o'lchash.

4. Kompensatsion (nol) usuli o'lchanayotgan kattalikni qiymati ma'lum bo'lgan kattalik bilan taqqoslashdan iborat. Ammo ular orasidagi ayirma ma'lum kattalikni o'zgartirish usuli bilan nolga keltiriladi.

O'lchov vositalari o'lchash jarayonidagi bajarayotgan vazifasi, roliga qarab quyidagilarga bo'linadi:

1. Ishchi o'lchov asboblari
2. Namunaviy o'lchov asboblari
3. Etalon o'lchov asboblari



OLINGAN BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Etalon nima?
2. O'lchashlarning qanday usullarini bilasiz?
3. Metrologiyaning rivojlanish bosqichlari
4. Xatolik va o'lchash aniqligi orasida qanday bog'liqlik mavjud?
5. O'lchov idishlari haqida ma'lumot bering.
6. Metrologiya haqida ma'lumot bering.
7. O'lchov vositasiga ta'rif bering.
8. Xatoliklarning qanday turlarini bilasiz?
9. O'lchov vositalari qanday turlarga bo'linadi?
10. Muntazam xatolik qanday guruxlarga bo'linadi?

«BILAMAN * BILISHNI XOHLAYMAN * BILIB OLDIM» TRENINGI

“BILAMAN * BILISHNI XOHLAYMAN * BILIB OLDIM”
treningi bo'yicha yakka tartibda mavzuni o'zlashtirish jarayonida quyidagi jadvalni to'ldiring*:

| MAVZUNING AHAMIYATI | | |
|---------------------|--------------------|-------------|
| BILAMAN | BILISHNI XOHLAYMAN | BILIB OLDIM |
| | | |

TALABALAR 3 GURUHGA BO'LINIB, O'LCHASH USULLARINING SWOT TAHLILINI O'TKAZADILAR

"SWOT-tahlil" metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

| | |
|--------------------------|---------------------------|
| S – (strength) | • kuchli tomonlari |
| W – (weakness) | • zaif, kuchsiz tomonlari |
| O – (opportunity) | • imkoniyatlari |
| T – (threat) | • to'siqlar |

1- guruh

Bevosita o'lchash usuli, uning mohiyati, afzalliklari va kamchiliklari?

2-guruh

Differentsial o'lchash usuli, uning mohiyati, afzalliklari va kamchiliklari?

3-guruh

O'lchov bilan taqqoslash usuli, uning mohiyati, afzalliklari va kamchiliklari?

5- SEMINAR MASHG'ULOTI.

O'zbekistonda dori vositalarini standartlash va sertifikatlash tizimi va rivojlanish istiqbollari. O'zbekiston Respublikasida sanoat farmatsiyasining rivojlanish istiqbollari

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga standartlash va sertifikatlash tizimi va sanoat farmatsiyasining rivojlanish istiqbollarini o'rgatish.

Maqsadiy vazifalar: darsning ohirida talaba bilishi kerak:

1. Standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lish
2. O'zbekiston Respublikasida sanoat farmatsiya sohasi haqida ma'lumotga ega bo'lish
3. Sanoat farmatsiyasining rivojlanish istiqbollari haqida ma'lumotga ega bo'lish

Seminar mashg'ulotini o'tkazish uchun zarur asbob-uskunalar:

Seminar mashg'uloti jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo'llaniladi: Darslik, ma'ruza matni, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali materiallarlar, skotch, qog'oz, marker.

O'zbekistonda sanoat farmatsiya tizimi va uni standartlash va sertifikatlash tizimi:

Standartlash u yoki bu mahsulotning me'yoriy talablarga mos kelishi haqidagi tushuncha bo'lib, ilmiy texnik progressning o'sib borishi, turli tizimlar orasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlanishi, Davlatlar, milliy tashkilotlar va firmalar bo'yicha savdo sotik xajmining yuksalishi, raqobatbardosh sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni taqazo etadi. Mahsulotning sifatli ega barcha me'yoriy hujjatlar talablarini qay darajada qondira olishi biln belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining «Standartlash to'g'risidagi qonun»i 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan bo'lib, bu qonunga ko'ra standartlashdan ko'zlagan maqsadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Mahsulotning sifati, xizmat jarayonlarining aholining hayoti, sog'ligi, mol mulki, atrof muxit, tabiiy manbalarni tejash xavfsizligi borasida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilish. Mahsulotlarni bir-biri bilan mosligi, almashinuvchanligini ta'minlash. Ilm – fan va texnikaning rivojlanishi hamda aholi va xalq xo'jaligining ehtiyojlarini o'sishini inobatga olgan holda mahsulot sifatini va raqobatbardoshligini oshirish. Barcha turdagi resurslarni tejash, ishlab chiqarishning texnik iqtisodiy ko'rsatikichlarini yaxshilash. Sotsial – iqtisodiy, ilmiy – texnik dasturlar va loyihalarni amalga oshirish. Tabiiy va texnologik falokatlar va boshqa favqulotda hodisalar sodir bo'lishini e'tiborga olib. Turli obyektlar havfsizligini ta'minlash. Iste'molchilarni mahsulot turi va sifati haqida aniq va ishonchli ma'lumot bilan ta'minlash. Mudofaa qobiliyatini yaxshilash va safarbarlikka tayyorliqni ta'minlash. O'lchovlarning yagonaligini ta'minlash. Savdo-sotiq, iqtisodiy va ilmiy—texnikaviy hamkorlikdagi to'siqlarni bartaraf etish.

Dori vositalarini standartlashdagi me'yoriy hujjatlar

Me'yoriy hujjatlar dori vositalarini tayyorlash sifatini nazorat qilish, ishlatilishi va saqlanishining shart-sharoitlari belgilangan va qonun maqomiga ega bo'lgan hujjatlar bo'lib, ular dori vositasining sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish maqsadida, ilm-fan yutuqlari, ishlab chiqarish korxonalarining ilgor texnologiyalarini e'tiborga olgan holda vaqti-vaqti bilan qayta ko'rilib, eskirgan sifat ko'rsatgichlari va tahlil usullari yangilab boriladi. Dori vositalarining sifatini nazorat qilish va standartlashdagi me'yoriy hujjatlarning quyidagi turlari mavjud:

Vaqtinchalik farmakopeya maqolasi – VFM (BΦC).

Farmakopeya maqolasi – FM (ΦC).

Davlat farmakopeyasi – DF (ΓΦ).

Umumiy farmakopeya maqolasi – UFM (OΦC).

Tarmoq standarti – TSt (OCT)

Korxonalar standarti – KSt (CTII)

Rahbarli me'yoriy hujjat (yilnoma, uslubiy ko'rsatma).

Farmatsevtik injenering fanni - talabalarga dorixona va ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqariladigan dori turlarini tayyorlash usullari, dori ishlab chiqarishda ishlatiladigan yordamchi moddalar, ularning sifati va mutanosibligini, dori tayyorlashda hozirgi zamon talablarini hamda ularni amaliyotga tadbiq etishni o'rgatadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarining nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, dori tayyorlashga va sifatini baholashga uslubiy yondoshuvni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Texnologiya - grekcha so'z bo'lib, *techno* - san'at, moxirlik, ustalik va *logos* - ta'limot, bilim demakdir.

Dori - bu murakkab fizik-kimyoviy tizim bo'lib, u o'z ichiga dori moddasini va ularning farmatsevtik omillarini olib, dorini kam dozada qabul qilganda yuqori terapevtik ta'sir ko'rsatishiga va salbiy ta'siri kam bo'lishiga aytiladi.

Dorilar texnologiyasi - bu to'g'ridan to'g'ri dori tayyorlash texnikasini moxirlik, ustalik va san'atkorlik bilan o'rganish demakdir.

Dori moddalari (substansiyalar) - ishlatishga ruhsat berilgan tabiiy va sun'iy biologik moddalar.

Dori vositalari - profilaktika, diagnostika va davolash uchun foydalanishga ruxsat berilgan bir yoki bir necha dori moddalari (substansiyasi), tabiiy va sun'iy ravishda olingan qo'shimcha moddalardir. Bular qatoriga immunobiologik, radiofarmatsevtik preparatlar, gomeopatik, diagnostika va sterilizatsiya vositalari kiradi.

Tayyor dori vositasi - davolash xususiyatiga ega bo'lgan dori shakli xususiy iste'molchiga davolash uchun qulay bo'lgan shaklda sotishga tayyorlangan dori vositasi.

Yarim tayyor mahsulot - dori vositasi bo'lishdan avval ishlab chiqarish jarayonining keyingi bosqichlarini o'tishi lozim bo'lgan qisman ishlov berilgan xom ashyo yoki dori moddasi.

Dori shakli - deb bir yoki bir nechta dori moddalariga maxsus ishlov berib va uni bemor qabul qiladigan qulay shaklga keltirilishiga aytiladi, ya'ni dori shakli bu dori preparatini tayyor holatga keltirib ishlatilishidir. Masalan borat kislotasi shtanglasda turganda - dori preparatidir, eritma yoki surtma dori ko'rinishida - dori shaklidir.

Dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyasi - sanoat miqyosida, korxonada sharoitida dori moddalaridan turli xil dori shakllari tayyorlashda amaliy va nazariy muammolar bilan shug'ullanuvchi asosiy farmatsevtik fanlardan biridir.

Sanoat farmatsiyasi- fani talabalarda mutaxassislik mahoratini mukammal shakllantirish, ularda sanoat miqyosida tayyor Sanoat farmatsiyasi texnologiyasi bo'yicha umumiy ko'nikmalar hosil qilish hamda zamonaviy texnologiya nuqtai-nazaridan farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va ishlab chiqarishni ta'minlash masalalarini qamrab oladi. O'quv dasturida farmatsevtika fani va amaliyotining, farmatsevtik ishlab chiqarishning uzoq kelajakka mo'ljallangan istiqbollari yoritilgan shuningdek, fanni farmatsevtik ishlab chiqarish va sog'likni saqlash amaliyotiga yaqinlashtirish to'laligicha asoslab berilgan.

“Sanoat farmatsiyasi” fani ixtisoslik fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, talabalar uni 7 va 8-semestrlarda o'rganishadi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (oliy matematika, informatika va informatsion texnologiyalar, fizika, anorganik kimyo, organik kimyo, fiziologiya anatmoiya asoslari bilan, botanika, ekologiya), umumkasbiy fanlar (analitik kimyo, fizik va kolloid kimyo, biologik kimyo, kimyoviy mikrobiologiya, farmakologiya, sanoat gigienasi, muhandislik grafikasi, hayot faoliyati havfsizligi, kimyo-farmatsevtik ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari, metrologiya va standartizatsiya, umumiy kimyo texnologiyasi, lotin tili, elektrotexnika, farmakognoziya, farmatsevtik kimyo, ishlab chiqarish menejmenti, energotexnologiya) dan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga hizmat qiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda dori vositalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarish bo'yicha umumiy tushunchalarini shakllantirish va rivojlantirish, o'zining fikr-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o'rgatish hamda egallangan bilimlar bo'yicha, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarga dori vositalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarish uchun dori va yordamchi moddalarni tanlash, maqsadga muvofiq bo'lgan texnologik usul va uslublardan foydalangan xolda ishlab chiqarishni tashkil qilish vazifalarini bajaradi.



OLINGAN BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Farmatsevtik injenering fanining mohiyati
2. Dori moddalari va dori vositalarining farqi nimada?
3. Dori shakli deganda nimani tushunasiz?
4. Sanoat farmatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Dori vositalari sifat standartlari tuzilishi xaqida tushuncha berish
6. Dori vositalari sifat standartlarini ekspertiza va ro'yxatdan o'tkazish
7. Standart namunalari (GSO, RSO),
8. Standart namunalarning ahamiyati.
9. Farmakopeya nima?

I – guruh vazifasi

Farmatsevtik texnologiya fanining mohiyati, maqsad va vazifalari.

II – guruh vazifasi

Sanoat farmatsiyasi fanining mohiyati, maqsad va vazifalari.

* Talabalar bir nechta kichik guruhlariga bo'linadi va vazifa yozilgan materiallar tarqatiladi, har bitta guruh o'z fikrlarini bayon qiladi hamda guruhlar orasida savol javob ketadi.

6- SEMINAR MASHG`ULOTI.

Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha va sifatini ta'minlash, validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) mutaxassislar haqida umumiy ma'lumotlar va uning va vazifalari

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga sifat, sifatni ta'minlash va validatsiya haqida o'rgatish.

Maqsadiy vazifalar: darsning ohirida talaba bilishi kerak:

1. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida dori vositalarining sifatini nazorat qilish haqida ma'lumotga ega bo'lish
2. Sifatni ta'minlash tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lish
3. Validatsiya haqida ma'lumotga ega bo'lish

Seminar mashg'ulotini o'tkazish uchun zarur asbob-uskunalar:

Seminar mashg'uloti jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo'llaniladi: Darslik, ma'ruza matni, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali materiallarlar, skotch, qog'oz, marker.

O'zbekistonda standartlash va sertifikatlash haqidagi:

-«Dori vositalari va farmatsevtika faoliyat haqidagi qonun»

-«Aholi sog'lig'ini himoya qilish haqidagi qonun»

-«Mahsulot va xizmat ko'rsatishni sertifikatsiyalash haqidagi qonun»

-«Farmatsevtika va tibbiyot faoliyatini litsenziyalash haqidagi ko'rsatmalarni tasdiqlash haqida» (O'zR VM ning qarori)

Texnik jixatdan tartibga solishning Davlat tizimi quyidagilardan iborat : O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi; Texnik jixatdan tartibga solish soxasidagi vakolatli Davlat organlari - Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash O'zbek Agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi arxitektura va qurilish Davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muxofaza qilish Davlat qo'mitasi , O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi; Kompetensiyasi doirasida, texnik jixatdan tartibga solish soxasida faoliyat ko'rsatayotgan Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari O'zR Sog'liqni Saqlash Vazirligi vakolati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash vazirligi mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligining majburiy shartlarini ta'minlash soxasidagi texnik jixatdan tartibga solish, ularning tarkibida inson xayoti va sog'lig'i uchun zararli moddalar, kasallik chaqiruvchi organizmlar miqdori, ularni kirib kelishi va tarqalishini oldini olish, tibbiy ashyolar, vositalar, tibbiy texnika va dori vositalarini ishlab chiqarish va qo'llash ishlarini tashkillashtiradi va ta'minlaydi. Texnik jixatdan tartibga solish soxasidagi ekspert komissiyalari texnik jixatdan

tartibga solish soxasidagi vakolatga ega Davlat organlari tarkibida, ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlar, texnik reglamentlarga o'zgartirishlar va to'ldirishlar ekspertizasini o'tkazish, jumladan shu reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar va ular bo'yicha xulosalar tayyorlash uchun tashkil etiladi.

Standartlash - u yoki bu mahsulotning me'yoriy talablarga mos kelishi haqidagi tushuncha bo'lib, ilmiy texnik progressning o'sib borishi, turli tizimlar orasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlanishi, Davlatlar, milliy tashkilotlar va firmalar bo'yicha savdo sotik xajmining yuksalishi, raqobatbardosh sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni taqazo etadi. O'zbekiston Respublikasining «Standartlash to'g'risidagi qonun»i 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan bo'lib, bu qonunga ko'ra standartlashdan ko'zlagan maqsadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-Mahsulotning sifati, xizmat jarayonlarining aholining hayoti, sog'ligi, mol-mulki, atrof-muxit, tabiiy manbalarni tejash xavfsizligi iborasida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilish.

-Mahsulotlarni bir-biri bilan mosligi, almashinuvchanligini ta'minlash.

-Ilm - fan va texnikaning rivojlanishi hamda aholi va xalq xo'jaligining ehtiyojlarini o'sishini inobatga olgan holda mahsulot sifatini va raqobatbardoshligini oshirish.

-Barcha turdagi resurslarni tejash, ishlab chiqarishning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash.

-Sotsial - iqtisodiy, ilmiy - texnik dasturlar va loyihalarni amalga oshirish.

-Tabiiy va texnologik falokatlar va boshqa favqulodda hodisalar sodir bo'lishini e'tiborga olib turli obyektlar havfsizligini ta'minlash.

-Iste'molchilarni mahsulot turi va sifati haqida aniq va ishonchli ma'lumot bilan ta'minlash.

-Mudofaa qobiliyatini yaxshilash va safarbarlikka tayyorlikni ta'minlash.

-O'lchovlarning yagonaligini ta'minlash.

-Savdo-sotiq, iqtisodiy va ilmiy—texnikaviy hamkorlikdagi to'siqlarni bartaraf etish.

Sertifikatlash -Mahsulot muvofiqligini tasdiqlash tartibi

Sertifikatsiya tizimidan maqsad

- Mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish

-Odamlarning hayoti , sog'lig'i hamda atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish.

-Mamlakat korxonalarini qo'shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy ilmiy texnikaviy hamkorlikda va halqaro savdo - sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish.

-Iste'molchini tayyorlovchining vijdotsizligidan himoya qilish.

-Mahsulot tayyorlovchisi ta'kidlagan sifat ko'rsatkichlarini tasdiqlash

Mahsulotlar va xizmatlarni Sertifikatlashtirish to'g'risidagi Qonun

- I-BOB. Umumiy qoidalar 6ta modda
- II-BOB. Sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar- 7-9 modda
- III-BOB. Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish 10-19 modda
- IV-BOB. Nizolarni qarab chiqish. Sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik 20-23 modda

O'zbekistondagi GMP sertifikatiga ega korxonalar

| № | Korxonalar nomi |
|----------|--------------------------------------|
| 1 | SP OOO «Jurabek Laboratories» |
| 2 | SP OOO «NOVOPHARMA PLUS» |
| 3 | OOO «Dentafill plus» |

| | |
|---|------------------------------|
| 4 | DXO «NIKAFARM» |
| 5 | SP "UzGerMedPharm" |
| 6 | SP OOO «REMEDY GROUP» |
| 7 | SP OOO «Remedi» |

«Validatsiya» va «Kvalifikatsiya nima?»

GMP (Evropa 2002) da validatsiyaga shunday ta'rif keltirilgan:

Validatsiya har qanday ishlab chiqarish jarayonlarini, xodimlar faoliyatini, materiallarni va ishlab chiqarish tizimlarini GMP talablariga mos ravishda haqiqatdan ham kutilayotgan natijalarni isbotini olish jarayonidir.

Kvalifikatsiya esa validatsiyaning bir qismi bo'lib, Asbob uskunalar, muhandislik tizimi va boshqa ishlab chiqarish sharoitlari kutilayotgan natijalarni taminlay olishini xujjat asosida baholash va tasdiqlashdir.

Analitik usullar validatsiyasini o'tkazishdan maqsad tanlangan analitik usul olingan natijalarni qaytaruvchanligini va ishonchligini ta'minlanishini kafolatlashdir.

Validatsiya va kvalifikatsiya standartlangan sifatli mahsulotni ishlab chiqarilishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Kvalifikatsiya validatsiyadan farqli ravishda asosan ishlab chiqarish jarayonining texnik ta'minotiga tegishlidir.

Validatsiya obyektlari

- Analitik usullar
- Texnologik jarayonlar
- Tozalash jarayonlari
- Binoning sanitar tozalov jarayonlari
- Yarim maxsulot va tayyor maxsulot sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi muxandislik tizimi (toza havo, suv, bug', inert gaz, siqilgan xavo va boshqalar bilan ta'minlash)
- "Toza" bino va zonalar, "sovuq" xona va boshqalar
- Ishlab chiqarish va sifat nazoratida qo'llaniladigan kompyuter tizimi

Validatsiya quyidagilarga tegishli emas

- Yarim maxsulot va tayyor maxsulot sifatiga ta'sir ko'rsatmaydigan uskunalarga;
- Yarim mahsulot va tayyor mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatmaydigan lekin ishlab chiqarish sharayonini ta'minlovchi muxandislik tizimiga (energiya bilan ta'minlash va boshq);
- Binolarning umumiy qurilish elementlariga;
- Yordamchi kompyuter tizimiga;



OLINGAN BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Validatsiya nima?
2. Validatsiya turlari haqida ma'lumot bering.
3. Prospektiv validatsiya qachon o'tkaziladi?
4. Standartlash to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
5. Standartlashdan ko'zlangan maqsadlar.
6. Sertifikatlash to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan? Sertifikatlashdan ko'zlangan maqsadlar.


7. «Mahsulot va xizmat ko'rsatishni sertifikatlash haqidagi qonun» qachon qabul qilingan.

8. «Farmatsevtika va tibbiyot faoliyatini litsenziyalash haqidagi ko'rsatmalarni tasdiqlash haqida» (O'zR VM ning qarori) qachon qabul qilingan.

9. Dori vositalari va tibbiy texnika buyumlarini sifatini nazorat qilish Bosh Boshqarmasi qachon tashkil qilingan

BALIQ SKELETI O'YINI

Farmatsevtika sohasida qabul qilingan qonunlarni baliq skeleti ko'rinishida ifodalang



7- SEMINAR MASHG'ULOTI.

Farmatsevtik injenering, biotexnologiya va tibbiy-biologik modullarining mohiyati, maqsad va vazifalari

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga Farmatsevtik injenering va biotexnologiya haqida o'rgatish.

Maqsadiy vazifalar: darsning ohirida talaba bilishi kerak:

1. Farmatsevtik injenering haqida ma'lumotga ega bo'lish
2. Farmatsevtik biotexnologiya haqida ma'lumotga ega bo'lish
3. Tibbiy- biologik modullarining mohiyati haqida ma'lumotga ega bo'lish

Seminar mashg'ulotini o'tkazish uchun zarur asbob-uskunalar:

Seminar mashg'uloti jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo'llaniladi: Darslik, ma'ruza matni, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali materiallarlar, skotch, qog'oz, marker.

Farmatsevtik injenering va biotexnologiya: Farmasevtik injiniring modulini o'qitishda, asosiy sanoat jarayonlarning nazariyasi, ushbu jarayonlarni amalga oshiradigan mashina va qurilmalarning tuzilishini va ularni hisoblash, tanlash, ishlatish, uning samaradorligini oshirish usullarini o'rgatadi.

Modulning maqsadi: Talabalarda kimyo-farmatsevtika sanoatida quyidagi gidromexanik, issiqlik va massa almashinish jarayonlarni va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologik qurilmalarni tanlash va o'lchamlarini hisoblab topishdan iborat.

Farmatsevtik injiniring modulining vazifalari:

- sanoat ishlab chiqarishda gidromexanik, issiqlik va massa almashinish jarayonlarni nazariyasini o'rganish;
- sanoat ishlab chiqarishda gidromexanik, issiqlik va massa almashinish jarayonlar uchun texnologik qurilma va moslamalar tanlash va o'lchamlarini hisoblashni o'rganish;
- texnologik jarayonlarni samaradorligini oshirish yo'llarini o'rgatish va boshqalar kiradi.

Farmatsevtik injiniring modulini o'zlashtirgan talaba quyidagilarni biladi:

- farmatsevtika texnologiyasida qo'llanadigan asosiy apparatlar, ularning konstruksiyalari;
- barcha turdagi asosiy apparatlarni muayyan texnologik jarayon uchun qo'llash, texnologik qurilma va moslamalarning texnologik echimlarini hisobini bajarish, texnologik qurilma va moslamalarning o'lchamlarini berilgan ko'rsatkichlar asosida xisoblash haqida;
- issiqlik va modda almashinuv apparatlarini qollashni; gaz va suyuqliklarni oqish tezligini; suyuqliklarni aralashtirish qurilmalarini tanlashni;
- suyuq va gazsimon sistemalarni ajratish usullarini; moddalarni isitish, sovitish va bug'latishni; moddalarni quritish, eritish, ekstraksiyalash, haydash, kristallash usullari va apparatlarini

Farmatsevtik injiniring modulini o'zlashtirgan talaba quyidagilarni bajara oladi:

- ✚ harakatdagi suyuqlik va gazlar sarfini o'lchash va hisoblash; turli texnologik tizimlarning gidravlik qarshiliklarni hisoblash; turli jinsli sistemalarni ajratish tezligini aniqlash;
- ✚ turli tipdagi nasoslarni tanlash va ularni parametrlarini xisoblash; issiqlik almashinuv apparatlarini hisoblash;
- ✚ turli tipdagi bir va ko'p apparatli bug'latish moslamalari uchun issiqlik va moddiy balansni tuzish;
- ✚ rektifikatsion moslamalarni hisoblash; quritish jarayonini hisoblash, quritish moslamasi uchun havo va issiqlik sarfini hisoblash.

Farmatsevtik biotexnologiya- asosan vaksinalar, gormonlar, fermentlar, interferonlar, antibiotiklar, aminokislotalar, vitaminlar, alkaloidlar, polisaxaridlar va shu kabi boshqa biologik aktiv moddalarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Dori preparatlari vrachlarning universal quroli deb ta'kidlaydi akademik Ivan Pavlov. Chunki hozirgi vaqtda vrachlarning 90% bemorlarni dori preparatlari bilan davolaydi. Dorivor moddalar ishlab chiqarish bo'yicha, yaqin kelajakda farmatsevtik biotexnologiya - an'anaviy texnologiyalarni siqib chiqaradi va prinsipial yangi imkoniyatlar ochib beradi.

Bugungi kunda biotexnologik usullar yordamida, gen-injenerli oqsillar (interferonlar, interleykinlar, insulin, grippga qarshi vaksinalar va h.k.), fermentlar, diagnostika mahsulotlari (narkotiklarga test sistemalar, dorivor moddalar, gormonlar va h.k.), vitaminlar, antibiotiklar, bioparchalanuvchan plastmassalar, biomassa materiallari va boshqa ko'plab modda va preparatlar ishlab chiqarilmoqda.

Zamonaviy farmatsevtik biotexnolog o'zining professiyasi doirasida, boshqa BFM qatorida dori-darmonlarni ishlab-chiqarish uchun zarur bo'lgan biotexnologik jarayonlarni yaxshi bilishi shart. Bioobyektlar asosida olinadigan dorivor moddalarni nomenklaturasi tobora kengayib bormoqda. Bunday dorivor moddalarga quyidagilar kiradi:

Davolovchi dorivor moddalar: aminokislotalar va ular asosida yaratilgan preparatlar; antibiotiklar; fermentlar; qon va plazma o'rnini bosadigan gidrolizatlar; gormonlar (steroidlar va polipeptid tabiatli); alkaloidlar.

Profilaktika uchun ishlatiladigan moddalar: vaksinalar; interferonlar; zardoblar; immunomodulyator; normofloralar.

Diagnoz qo'yish uchun ishlatiladigan moddalar: fermentli va ummunli diagnostikumlar; monoklonal antitelolar va immobillangan hujayralar asosida tayyorlangan moddalar.

Ma'lumki, mikrobiologik tekshirish natijalariga asoslangan xolda yuqumli kasalliklarga aniq tashhis qo'yish mumkin. Bunda shu kasalliklarga sabab bo'lgan mikroob sof holda ajratib olinib, uning hamma xususiyatlari o'rganib chiqiladi. Shuning uchun tibbiyot institutlarining barcha fakultetlari talabalariga yuqumli kasalliklarning qo'zg'atuvchilariga batafsil tavsif berildi hamda ular qo'zgatadigan kasalliklarning mikrobiologik diagnostikasi keng yoritildi. O'quv-uslubiy

majmuada bakteriyalar, viruslar, rikketsiyalar, spiroxetalar, xlamidiyalar, mikoplazmalar, zamburug'lar, sodda jonivorlar va boshqa mikroorganizmlar qo'zg'atadigan kasalliklar, ularni bakteriologik, virusologik va immunologik tekshirish usullari bayon etildi. So'ngi yillarda ko'payib borayotgan hamda tashhis ko'yishda muammoli hisoblangan hujayra ichi bakteriyalari (xlamidiya, rikketsiyalar) va mikoplazma infeksiyalarining morfobiologik xossalari va laboratoriya diagnostikasi batafsil berildi. O'quv-uslubiy majmuada xususiy qismida esa bakteriyalar, zamburug'lar, viruslar, spiroxetalar va patogen eng sodda bir hujayrali jonivorlar morfologiyasi, antigenlik xususiyatlari hamda ular paydo qiladigan kasalliklarning laboratoriya tashhisi, profilaktikasi va davolash usullari bayon etildi. O'quv-uslubiy majmuada klinik mikrobiologiya asoslari mavzusi birinchi bor yoritilib, unda xavfli jarohatlar va kuyish, turli a'zo va to'qimalar zararlanishining etiologik omillari, bronxo'pka, ichakning shartli-patogen infeksiyalari hamda urologik kasalliklar, disbakterioz va kasalxona ichi (yatrogen) infeksiyalari to'g'risida to'liq ma'lumotlar berildi. Mikrobiologiya fani tibbiyot fanlari uzluksiz rivojlanayotgan hozirgi davrida molekulyar biologiya, genetika, gen texnologiyasi va immunologiya, biotexnologiya asoslari bilan boyib bormoqda. Mikrobiologiya va immunologiya fani yuqumli kasalliklarning etiologiyasi, patogenezini, diagnostikaning samaradorligini oshishi, davolash va oldini olishdagi chora - tadbirlarni o'rgatishi, provizorlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadga erishish va o'quv jarayonini tuzishda ishchi dastur katta rol o'ynaydi.

Fanning maqsad va vazifalari Hozirgi kunda umumiy mikrobiologiyadan mikroorganizmlarning tuzilishi, hayot jarayonini, molekulyar, hujayra bosqichlarida o'rganilmoqda. Ishchi dasturda mikroorganizmlarning tasnifi, rejasi, morfologiyasi, fiziologiyasi, patogen mikroorganizmlarni o'stirish uchun ozuqa muhitlar tayyorlash jarayoni, ekologiyasi, tashqi muhit faktorlarining mikroorganizmlarga ta'siri, immunobiologik tibbiy preparatlar to'g'risidagi ta'limotlar yoritiladi. Mikrobiologiya fanida yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilari: bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar, sodda jonivorlarning morfologiyasi, fiziologiyasi ularning yuqumli kasallik patogenezidagi o'rni, kasalliklarning klinikasi, epidemiologiyasi, spetsifik diagnostikasi, davolash, oldini olish usullari o'rgatiladi. Ishchi dasturda farmatsevtik mikrobiologiya asoslari: dorivor o'simliklarning, xom-ashyoning mikroorganizmlar ta'sirida o'zgarishi, dori tayyorlash jarayonida mikroorganizmlar bilan ifloslanishi, dori ishlab chiqarishda aseptika, antiseptika, dezinfeksiyaning mohiyati, immun preparatlar tayyorlash texnologiyalariga alohida o'rin berilgan. Ishchi idasturda mikrobiologiya fanining asoslari zamon talablari asosida o'z aksini topgan.



OLINGAN BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Farmatsevtik biotexnologiya fani nimani o'rganadi?
2. Biotexnologiya so'zining ma'nosi
3. Farmatsevtik biotexnologiya fanining mohiyati
4. Antibiotik so'zining ma'nosi.
5. Mikrobiologiya fani nimani o'rgatadi?
6. Mikrobiologiya fani qaysi fanlar bilan uzviy bog'liq?

VENNA DIAGRAMMASI

**Farmatsevtik
injenering**

Biotexnologiya



- * **VENNA DIAGRAMMASI**– 2-3 jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- Diagramma Venna tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik gurhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar
- Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar
- Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki (XX) yoki uch (XXX) doiralarni uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi



« **BILAMAN * BILISHNI XOHLAYMAN * BILIB OLDIM** » **TRENINGI**

“BILAMAN * BILISHNI XOHLAYMAN * BILIB OLDIM” treyningi bo'yicha yakka tartibda mavzuni o'zlashtirish jarayonida quyidagi jadvalni to'ldiring*:

| MAVZUNING AHAMIYATI | | |
|----------------------------|---------------------------|--------------------|
| BILAMAN | BILISHNI XOHLAYMAN | BILIB OLDIM |
| | | |

* “BILAMAN * BILISHNI XOHLAYMAN * BILIB OLDIM”
treyningi muayyan mavzular bo'yicha olgan bilim darajasini baholashga yordam beradi. Usuldan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: olgan bilimi bo'yicha tushunchaga egalik darajasi aniqlanadi; mavzu bo'yicha bilimlarni boyitishga bo'lgan ehtiyoji o'rganiladi; sud kimyogar olgan bilimi bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildiradi va o'zi xulosa chiqaradi.

8- SEMINAR MASHG'ULOTI.

Farmatsevtik kimyo, toksikologik kimyo va farmakognoziya modullarning farmatsevtika sohasidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga farmatsevtik kimyo, toksikologik kimyo va farmakognoziya modullari haqida o'rgatish.

Maqsadiy vazifalar: darsning ohirida talaba bilishi kerak:

1. Farmatsevtik kimyo moduli haqida ma'lumotga ega bo'lish
2. Toksikologik kimyo moduli haqida ma'lumotga ega bo'lish
3. Farmakognoziya moduli va rivojlanish istiqbollari haqida ma'lumotga ega bo'lish

Seminar mashg'ulotini o'tkazish uchun zarur asbob-uskunalar:

Seminar mashg'uloti jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo'llaniladi: Darslik, ma'ruza matni, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali materiallarlar, skotch, qog'oz, marker.

Kimyo va farmakognoziya modullarining rivojlanish istiqbollari: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 apreldagi “Dorivor o'simliklar asosidagi dori vositalarini va biologik faol qo'shimchalarini mahalliy korxonalarda ishlab chiqarishni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida”gi 32-sonli yig'ilish bayonida belgilangan vazifalarni ijrosini taminlash borasida respublikamizda dorivor o'simliklar sohasidagi izlanishlar va isloxlarga alohida e'tibor berilmoqda. Shuning uchun hozirgi kunda maxalliy o'simlik mahsulotlari asosida dori vositalarini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga tadbiriq etish farmatsevtika sohasini ustivor vazifarardan bir hisoblanadi. Farmakognoziya fani aynan dorivor o'simliklar, o'simlik mahsulotlari, qisman xayvonlardan olinadigan mahsulotlar hamda shu dorivor mahsulotlarni biologik faol moddalar va ularni taxlilini o'rganadigan fandır. Farmakognoziya fani mutaxassislovchi fan sifatida bo'lajak farmatsevtiklarga ularning ish faoliyati uchun zarur bo'lgan bilimlarni berib, ulardan tabiatda o'suvchi dorivor o'simliklarni topish va aniqlay olishni, dorivor o'simlik mahsulotlarini yig'ish vaqti, quritish va saqlashning tejamli usullarini bilish hamda mahsulotlarni farmakognostik taxlilining turli usullaridan foydalanib taxlil qila bilishni talab etadi.

Farmakognoziya grekcha Farmacon - zahar, dori, gnosis - bilim so'zidan olingan bo'lib, asosan dorivor o'simliklardan, qisman hayvonlardan olinadigan dorivor mahsulotlarni o'rgatadigan fandır. Farmakognoziya tibbiyot fani bilan uzviy bog'langan bo'lib, insoniyat taraqqiyotida, uning salomatligini saqlash, mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lib, 19 asrda boshqa fanlardan alohida fan bo'lib ajralib chiqqandır. Shundan keyin bu juda tezlikda rivojlana boshladi va bu sohada dunyoga mashhur qator olimlar etishib chiqdilar.

Fanning maqsadi va vazifalari Farmakognoziya fanining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: Fitopreparatlar yaratish uchun zarur bo'lgan biologik faol moddalar hamda dori turlari tayyorlash manbai sifatida dorivor o'simliklarni o'rganish. Shu maqsadda ularning

kimyoviy tarkibi tekshiriladi hamda asosiy ta'sir etuvchi biologik faol moddalar yig'ildigan organlari va vaqti aniqlanadi. Tabiiy sharoitda yo'qolib ketish xavfi bo'lgan va kamayib ketayotgan muhim dorivor o'simliklarni muhofaza qilish maqsadida ularni asrab qolish va plantatsiyalarda o'stirish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Respublikamizda yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish maqsadida ularni ko'plab o'sadigan joylarini izlab topib, xaritaga tushirish, zahirasini aniqlash, yillik yig'ish miqdorini rejalash hamda dorivor mahsulotni yig'ish, quritish, saqlash va transportda jo'natish tadbirlarini ishlab chiqish. Dorivor mahsulotlarga me'yoriy- hujjatlarni (MX) tuzish. Buning uchun dorivor mahsulotlarning chinligini, sifati hamda biologik faol moddalarini aniqlash usullarini mukammallashtirish, qayta ko'rib chiqish yoki yangi usullar yaratish.

Fitopreparatlar va dorivor o'simliklar xazinasini boyitish maqsadida yangi dorivor o'simliklar izlab topish va yangi, samarali fitopreparatlar yaratish. Shu maqsadda xalq orasida va an'anaviy tabobatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarni hamda tibbiyotda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning boshqa turlarini o'rganishni tashkil qilish.

| 28 | Sifat nazorati - namunalar tanlash, spetsifikatsiyalar, tahlil o'tkazish bilan bog'liq GMP ning bir qismi, shu bilan birga barcha tegishli tahlillar o'tkazilmaguncha mahsulot sotuvga chiqarilmasligini | Контроль качества является частью GMP, относящейся к отбору проб, спецификациям, анализу, а также ко всем организационным, документальным и разрешительным процессам, чтобы гарантировать, что продукт не будет выставлен на | Quality control is part of GMP related to sampling, specifications, analysis, and all organizational, documentary and approving processes to ensure that the product is not put up for sale until all relevant analyzes have been completed and the raw materials and materials a set of measures to ensure that it is not used until quality has been verified and |

| | | | |
|----|---|---|--|
| | <p>kafolatlovchi tashkiliy, hujjatli va ruxsat beruvchi jarayonlarning barchasi o'tkazilganligi va xom ashyo va materiallar sifati o'rnatilgan ravishda tekshirilib ijobiy natijalar olinmagunga qadar ishlatilmasligini va tayyor mahsulot sotuvga ruxsat olmagunga qadar chiqarilmasligini kafolatlovchi tadbirlar majmuasi.</p> | <p>продажу до тех пор, пока не будут выполнены все соответствующие анализы, а сырье и материалы комплекс мер, гарантирующих, что он не будет использоваться до тех пор, пока качество не будет проверено и не будут получены положительные результаты, и что готовый продукт не будет выпущен до тех пор, пока он не будет одобрен для продажи.</p> | <p>positive results are obtained, and that the finished product is not released until it is approved for sale.</p> |
| 29 | <p>Validatsiya bu shunday rasmiylashtirilgan tekshirishki, bunda tanlangan tekshirish jarayonini amalga oshirishda mazkur mahsulotga avvaldan tanlangan spetsifikatsiya bo'yicha olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning to'laqonli haqqoniy ekanligi haqida yuqori darajada kafillik berish mumkin bo'lgan jarayonlar majmuidir.</p> | <p>Валидация - это формализованная проверка, которая представляет собой набор процессов, которые можно использовать для выполнения выбранного процесса проверки, чтобы гарантировать, что информация, доступная для продукта в соответствии с предварительно выбранной спецификацией, является полностью аутентичной.</p> | <p>Validation is a formalized validation that is a set of processes that can be used to carry out a selected validation process to ensure that the information available for a product in accordance with a pre-selected specification is fully authentic.</p> |
| 30 | <p>Dori moddolari (substansiyalar) - ishlatishga ruhsat berilgan tabiiy va sun'iy biologik moddalar.</p> | <p>Лекарственные вещества (вещества) - природные и искусственные биологические вещества, использование которых разрешено.</p> | <p>Medicinal substances (substances) - natural and artificial biological substances, the use of which is permitted.</p> |
| 31 | <p>Dori shakli deb bir yoki bir nechta dori moddalariga maxsus ishlov berib va uni bemor qabul qiladigan qulay</p> | <p>Лекарственная форма - это специальная обработка одного или нескольких лекарственных веществ и их приготовление в форме, удобной для приема</p> | <p>A dosage form is a special treatment of one or more medicinal substances and their preparation in a form convenient for the patient to take, that is, a dosage form is the use of this drug</p> |

| | | | |
|----|--|---|---|
| | shaklga keltirilishiga aytiladi, ya'ni dori shakli bu dori preparatini tayyor holatga keltirib ishlatilishidir. | пациентом, то есть лекарственная форма представляет собой использование этого лекарства в готовом состоянии. | in a finished state. |
| 32 | Yarim tayyor mahsulot - dori vositasi bo'lishdan avval ishlab chiqarish jarayonining keyingi bosqichlarini o'tishi lozim bo'lgan qisman ishlov berilgan xom ashyo yoki dori moddasi | Полуфабрикат - сырье-полуфабрикат или лекарственное вещество, которое должно пройти следующие этапы производственного процесса, прежде чем стать лекарственным средством. | Semi-finished product is a semi-finished raw material or medicinal substance that must go through the following stages of the manufacturing process before becoming a medicinal product. |
| 33 | Dori vositalari - profilaktika, diagnostika va davolash uchun foydalanishga ruxsat berilgan bir yoki bir necha dori moddalari (substansiyasi), tabiiy va sun'iy ravishda olingan qo'shimcha moddalardir.. | Лекарственные средства - это одно или несколько лекарственных веществ (веществ), натуральных и искусственно полученных добавок, которые разрешено использовать для профилактики, диагностики и лечения. | Medicines are one or more medicinal substances (substances), natural and artificially obtained additives, which are allowed to be used for prevention, diagnosis and treatment. |
| 34 | Biofarmasiya - Farmasiya sohasida yangi yo'nalish hisoblanib, bu yo'nalishning ochilishiga asosiy sabab dorishunos olimlarning, chunonchi dori tehnologiyasi bilan shug'ullanuvchi olimlarning dori shakli turlari va ularning so'rilishi, qondagi konsentratsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik masalalari asosida qiziqishlari va tajribalari hosilasidir. | Биофармация - это новое направление в области фармации, основной причиной открытия которого являются интересы и опыт ученых-фармацевтов, в том числе тех, кто занимается лекарственными технологиями, о взаимосвязи между типами лекарственных средств, их абсорбцией и концентрацией в организме. кровь. является продуктом. | Biopharmacy is a new direction in the field of pharmacy, the main reason for the discovery of which is the interests and experience of pharmaceutical scientists, including those involved in drug technologies, on the relationship between types of drugs, their absorption and concentration in the body. blood. is a product. |
| 35 | Bakalavriat – ko'p mamlakatlarda oliy | Бакалавриат - это первая ступень высшего | Bachelor's degree is the first stage of higher education in many |

| | | | |
|----|--|--|---|
| | ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekistonda bakalavriat mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan tayanch oliy ta'limdir. | образования во многих странах. В Узбекистане степень бакалавра - это базовое высшее образование, дающее фундаментальные и практические знания в области специализации. | countries. In Uzbekistan, a bachelor's degree is a basic higher education that provides fundamental and practical knowledge in the field of specialization. |
| 36 | Magistratura (lot. magistratus — boshliq) — O'zbekistonda aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oliy ta'lim. | Степень магистра (лат. Magistratus - руководитель) - это высшее образование в Узбекистане, которое дает фундаментальные и практические знания по конкретной специальности и длится не менее 2 лет на основе степени бакалавра. | A master's degree (lat. Magistratus - head) is a higher education in Uzbekistan, which provides fundamental and practical knowledge in a specific specialty and lasts at least 2 years on the basis of a bachelor's degree. |
| 37 | Aspirantura – uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar (fan nomzodlari) tayyorlash shakli. | Послевузовское образование - неотъемлемая часть системы непрерывного образования, форма подготовки высококвалифицированных научных и научно-педагогических кадров (кандидатов наук). | Postgraduate education is an integral part of the lifelong education system, a form of training highly qualified scientific and scientific-pedagogical personnel (candidates of science). |
| 38 | Doktorantura — oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar (fan d-rlari) tayyorlash shakli. | Докторантура - это форма подготовки высококвалифицированных научных и научно-педагогических кадров (докторов наук). | Doctoral studies are a form of training highly qualified scientific and scientific-pedagogical personnel (doctors of science). |
| 39 | Ilmiy faoliyat - yangi bilimlarni olish va qo'llashga qaratilgan intellektual faoliyat bo'lib, texnologik, muhandislik, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar va boshqa soha muammolarni hal qilish, fan, texnika va ishlab chiqarishning yagona tizim sifatida | Научная деятельность - интеллектуальная деятельность, направленная на получение и применение новых знаний, направленная на решение технологических, инженерных, экономических, социальных, гуманитарных и других задач, обеспечивающих функционирование науки, | Scientific activity - intellectual activity aimed at obtaining and applying new knowledge, aimed at solving technological, engineering, economic, social, humanitarian and other problems that ensure the functioning of science, technology and production as a single system. |

| | | | |
|----|--|---|--|
| | ishlashini ta'minlashga qaratiladi. | техники и производства как единой системы. | |
| 40 | Ilmiy konferentsiya - bu tadqiqotchilar o'z ishlarini namoyish etadigan va muhokama qiladigan ilmiy faoliyatni tashkil etish shakli. | Научная конференция - это форма организации научной деятельности, в которой исследователи представляют и обсуждают свою работу. | A scientific conference is a form of organizing scientific activity in which researchers present and discuss their work. |

IV. ILOVALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI TOSHKENT FARMATSEVIKA INSTITUTI

Ro'yhatga olindi:
№ BD - 60911000-2.24
2021 yil "31" 08



MUTAXASSISLIKKA KIRISH MODUL DASTURI

Bilim sohasi: 900000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi: 910000 – Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishi: 60911000 – Dori vositalarini standartlashtirish,
sertifikatsiyalash va sifat menejmenti

TOSHKENT –2021

Tuzuvchilar:

Jalilov F.S. - Toshkent farmatsevtika instituti, Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti kafedrası dotsenti, farm.f.n.

Jabbarova Sh.A. - Toshkent farmatsevtika instituti, Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti kafedrası assistenti

Taqrizchilar:

Usmonaliyeva Z.U. -Toshkent farmatsevtika instituti, Toksikologik kimyo kafedrası mudiri, farm.f.n., dotsent

Xamdamov M.M. -Dori vositalarini standartlashtirish ilmiy markazi direktori, PhD

Modul dasturi Toshkent farmatsevtika institutida ishlab chiqilgan.

Modul dasturi Toshkent farmatsevtika instituti Kengashida ko`rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2021 yil "25" 08 dagi " 1."-sonli bayonnoma)

O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamalakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, PQ-4310 "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-moduli tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini ijrosini ta'minlash maqsadida, yuqori darajada ma'naviy va ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash ilmiy asoslangan, xalq manfaatlariga javob beruvchi dasturni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Mutaxassislikka kirish moduli o'quv rejaning umum kasbiy modular blokiga taaluqli bo'lib, 1 kursda o'qitiladi. Kimyo va biologiya fanlari bu modulni o'zlashtirishda zamin hisoblanadi. Bu mutaxassislik modullari uchun zamin bo'lib, ularning kirish qismi hisoblanadi.

Modulni o'rganish jarayoni farmatsevtika tarixi, soha qonun hujjatlari normalari, mutaxassislik modullarini farmatsevt tahlilchi mutaxassisligini o'zlashtirishdagi o'rni farmatsevtika faoliyati va tashkilotlar, o'z mutaxassisliklari bo'yicha kasbiy faoliyat turlari va mazmuni haqida tushuncha beradi.

2. O'quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. Modulning maqsadi:

Modulni o'qitishning asosiy maqsadlari: talabalarni tanlangan mutaxassislik rekvizitlari bilan tanishtirish, o'quv dasturi, mutaxassislikni o'zlashtirish jarayonida individual modullarning o'rni va bilimlari, mutaxassislarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan asosiy talablar, farmatsevtik ishlab chiqarishda va boshqa tibbiy va farmatsevtika tashkilotlarida aholini sifatli dori-darmon bilan ta'minlash bilan shug'ullanadigan korxonalarda kelajakdagi kasbiy faoliyatlari to'g'risida fikrlarni shakllantiradi.

2.2. Modulning vazifalari:

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

- talabalarni institut ta'limi tizimi va o'ziga xos xususiyatlari, institut tarixi va an'analarini o'zlashtirish;
- sohaning rivojlanishining tarixiy jihatlarini o'zlashtirish;
- Sohaga xos bo'lgan terminologiyaning asosiy tushunchalari va asoslari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish;
- talabalarni farmatsevtika sohasidagi faoliyat turlari va sohadagi kasbiy tayyorgarlikning o'ziga xos xususiyatlari bilim va ko'nikmaga ega bo'lish;
- olgan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash, uni tashviqot va targ'ibot qilish malakasini egallash.

2.3. Modul bo'yicha talabalarining bilim ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Talaba:

- institut tarkibi (bo'limlarning funktsiyalari bilan birga);
- bitiruv malakaviy ishlari va bitiruv malakaviy ishlarini yozishga bo'lgan talablar;
- ushbu yo'nalish bitiruvchisining malaka xususiyatlari;
- dori vositalarining aylanishi sohasida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar va ta'riflar;
- dorilarni yaratish va tadqiq qilishning asosiy bosqichlari;
- farmatsevtning farmatsevtika faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar;
- farmatsevtika mahsulotlari sifatining asosiy ko'rsatkichlarini baholash usullari;
- yangi bilimlarni olish usullari v.b. haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- ilmiy adabiyotlar va boshqa axborot manbalarini izlash bo'yicha farmatsevtika faoliyati;
- olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish;
- olingan bilimlardan institutda muvaffaqiyatli o'qish uchun foydalanish;
- farmatsevtika faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish;
- zamonaviy modulning asosiy muammolarini hal etish;

- mustaqil ravishda va guruh sifatida tadqiqotlar o'tkazish;
- olingan bilimlardan asosiy muammolarni, farmatsevtika, metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti sohasi rivojlantirish yo'nalishlarini va istiqbollarini tushunishda foydalanish v.b. *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
- farmatsevtika biznesini zamonaviy axborot bilan ta'minlash manbalaridan foydalanish usullari;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, oliy ta'limning maxsus terminologiyasidan va lug'atdan foydalangan holda yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish;
- o'quv, ma'lumotnoma, adabiyotlar bilan ishlash, ma'lumotni tizimlashtirish va undan aniq kasbiy muammolarni hal qilishda foydalanish ko'nikmalari;
- global farmatsevtika bozorida ro'y berayotgan global jarayonlar va muammolarni tushunish;
- Faoliyatning turli sohalarida metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti hamda farmatsevtik bilimlarning asoslaridan foydalanish, ijtimoiy, etnik, konfessiyaviy va madaniy farqlarni bardosh bilan qabul qiladigan jamoada ishlash;
- kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilish;
- olingan bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

3. Asosiy qism

3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

1- mavzu. Modulning maqsadi va vazifalari. Mutaxassislikka kirish modulini umumiy tavsifi. Kasbiy faoliyat sohasi. Bitiruvchining ilmiy, tashkiliy va ishlab chiqarish faoliyati. Bitiruvchining malaka xususiyatlari. Butun o'quv jarayoni davomida o'rganilgan modullarning qisqacha tavsifi. "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti " ixtisosligi uchun maxsus modullar. Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (farmatsevtika sohasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim yo'nalishi istiqboli

2- mavzu. Farmatsevtika sohasi va uning rivojlanish tarixi. Farmatsevtika sohasi, tarixi. Farmatsevtika va tibbiy ramzlar va emblemalar. Ibtidoiy jamiyat va qadimgi dunyo davrida tibbiyot va farmatsevtika. O'rta asr oxirlarida farmatsevtika va tibbiyot. Uyg'onish va Islohot davrida dorixonalar va tibbiyot.

3-mavzu. O'zbekistonda farmatsevtika sohasining rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sohasining rivojlanish tarixi, uning bosqichlari va bugungi kuni.

4-mavzu. O'zbekistonda farmatsevtika ta'limining shakllanishi. Toshkent farmatsevtika institutning tashkiliy tuzilmasi. Institut tarixi va rivojlanish yo'nalishlari. Toshkent farmatsevtika institutning tashkiliy tuzilmasi. Institut tarixi va rivojlanish yo'nalishlari. O'quv jarayonining turlari va shakllari. Institutda talabalar ishini tashkil etish. Bitiruvchilarni yakuniy davlat attestatsiyasi.

5-mavzu. Farmatsevtik faoliyat haqida tushuncha. Farmatsevtik faoliyat turlari. Farmatsevtik faoliyat haqida tushuncha. Farmatsevtik faoliyat turlari. Farmatsevtik faoliyatni qonuniy asoslari. Farmatsevtikdagi asosiy tushunchalar va ularning ta'rifi. Original dori vositalari. Generik dori vositalari.

6 - mavzu. Sifat tushunchasi. Farmatsevtikada sifat. Farmatsevtikada sifat tushunchasi. Asosiy atamalar. Dori vositalari sifatini ta'minlash tizimi bu eng avvalo dori vositalarining xavfsizligi, xom ashyo va oraliq mahsulot sifati, texnologik jarayon, asbob-uskunalar, tahlil usullari, mutaxassislar kvalifikatsiyasi, me'yoriy xujjatlar va xokazo (GMP, GLP, GCP, GDP, GPP, GRP, GXP), dori vositalari sifati, faolligi, xavfsizligi, sifatini ta'minlash, sifatni ta'minlash tizimi, dori vositalari sifat mezonlari, standart operatsion jarayon, sifat spetsifikatsiyasi, nazorat strategiyasi, farmatsevtik sifat tizimi)

7 - mavzu. Farmatsevtikada metrologiya. «Metrologiya to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (1993 yil 28 dekabr). Asosiy atamalar. Farmatsevtik taxlilda metrologik usullarning qo'llanilishi. Taxlil natijalarining ishonchlilik. O'lchash xatoliklari. Mhlarining

metrologik nazorati, tekshirilayotgan ko'rsatkichlarni aniqlash, ularni baholash, tahlil qilish, tahlil usullarini va asboblarni tanlash, ularning davlatlararo standartlar, davlat standartlari talablariga javob berishini aniqlash. Metrologik ekspertiza maqsad va vazifalari, ekspertizadan o'tishi kerak bo'lgan hujjatlar, O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablar.

8-mavzu. O'zbekistonda dori vositalarini standartlash va sertifikatlash tizimi va rivojlanish istiqbollari. Dori vositalarining sifatiga qoyilgan talablar. O'zbekistonda dori vositalarini standartlash tizimi va rivojlanish istiqbollari. Standart. Standart namunalar. Standartlash usullari, me'yoriy hujjatlari. Dori vositalarining sifatini baholash va nazorat qilish. Dori vositalarining sifatini baholashning asosiy bosqichlari va usullari. Sertifikatsiya tushunchasi, obekti, subekti va maqsadi. Sertifikatsiyalash uchun asosiy talablar. Mahsulotni sertifikatlashdagi bosqichlari. Sertifikatlash shartlari. Majburiy sertifikatlash. Ixtiyoriy sertifikatlash. Standartlash va sertifikatlash moduli.

9-mavzu. O'zbekiston Respublikasida sanoat farmatsiyasining rivojlanish istiqbollari. Zamonaviy sharoitda O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatining rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatining shakllanishi. Sanoat farmatsiyasining rivojlanishidagi milliy xususiyatlar. Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarini. Ularning tuzulishi. Sanoat miqyosida ishlab chiqariladigan dori turlari tahlilining o'ziga xosligi.

10-mavzu. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha mutaxassis haqida umumiy ma'lumotlar va uning va vazifalari. Umumiy ma'lumotlar, kasbiy standartga kiruvchi mehnat vazifalarining ta'rifi, Umumlashtirilgan mehnat vazifalari tavsifi. Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va sanoat ob'ektlari namunalarini tanlash va hisobga olish bo'yicha ishlarni olib borish. Dori vositalari, xom ashyo va qadoqlash materiallari, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish vositalarini sinovlarini (laboratoriya ishlarini) boshqarish.

11-mavzu. Dori vositalari sifatini ta'minlash va boshqarish modulining mohiyati. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida dori vositalarining sifatini ta'minlash bo'yicha mutaxassis. Dori vositalari sifatini ta'minlash va boshqarish modulining mohiyati, maqsad va vazifalari. Dori vositalari sifatini ta'minlash va boshqarish modulini o'rganishdan asosiy maqsad bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sohasi uchun xalqaro standartlarni joriy etishni o'rgatadi. Umumiy ma'lumotlar, kasbiy standartga kiruvchi mehnat vazifalarining ta'rifi, Umumlashtirilgan mehnat vazifalari tavsifi. Dori vositalarini ishlab chiqarishda farmatsevtika sifat tizimi bilan bog'liq ishlarni bajarish. Dori vositalarini sanoat ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni birga olib borish va ishlab chiqish. Dori vositalarini ishlab chiqarish uchun farmatsevtik sifat tizimi jarayonlarini boshqarishni tashkil etish.

12-mavzu. Dori vositalarini ishlab chiqarish validatsiyasi moduli. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) bo'yicha mutaxassis. Dori vositalarini ishlab chiqarish validatsiyasi modulining mohiyati, maqsad va vazifalari. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) bo'yicha mutaxassis haqida umumiy ma'lumotlar va uning va vazifalari Umumiy ma'lumotlar, kasbiy standartga kiruvchi mehnat vazifalarining ta'rifi, Umumlashtirilgan mehnat vazifalari tavsifi. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) ni amalga oshirish. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) ni boshqaruvi

13-mavzu. Farmatsevtik injenering va biotexnologiya modullari, asosiy termin va tushunchalari, me'yoriy hujjatlar. Farmatsevtik injenering va biotexnologiya modullari, tarixi, unda qo'llaniladigan asosiy termin va tushunchalar. Dori moddasi, dori turi va dori preparati tushunchalari. Dorilarni tayyorlashga, sifatini baholashga taalluqli me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish. Dori tayyorlash jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalar, ishlash prinsiplari.

14-mavzu. Tibbiy-biologik modullarining mohiyati, maqsad va vazifalari. Farmakologiya va klinik farmatsiya modulining tuzilishi, nazariy asoslari, ob'ektlari va terminologik tizimi. Farmakologiyaning qisqacha tarixi, vazifalari va muammolari. Farmakologik terminlar. Mikrobiologiya haqida tushuncha va rivojlanish tarixi. Umumiy bakteriologiya: bakteriyalar klassifikatsiyasi va morfologiyasi

15-mavzu. Farmatsevtik kimyo va farmakognoziya modullarning farmatsevtika sohasidagi o'rne va rivojlanish istiqbollari. Farmatsevtik kimyoning tuzilishi, nazariy asoslari, ob'ektlari va terminologik tizimi. Zamonaviy farmatsevtik kimyoning qisqacha tarixi, vazifalari va muammolari. Dori vositalarni olish usullari. Farmatsevtik tahlilda qo'llaniladigan reaktivlar, indikatorlar, titrlangan, bufer. eritmalarni tayyorlash va titrini aniqlash usullari. Dori moddalarining umumiy farmakopeyaviy tahlil usullari. Dori moddalarining tasvirlanishi va eruvchanligini aniqlash usullari. Dori moddalarining chinligini aniqlashning xususiy va umumiy usullari. Umumiy va xususiy yot moddalarni aniqlash usullari. Farmakognoziya moduli dorivor o'simliklarni izlab topish, morfologiyasini o'rganish, biofaol moddalarni kimyoviy va sifat reaksiyalarini o'rganadi. O'simliklarni biofaol moddalariga qarab tasniflanishi, qo'llanilishi kabi vazifalar tushuntiriladi.

16 -mavzu. Toksikologik kimyo modulining mohiyati, maqsad va vazifalari. Toksikologik kimyo tuzilishi, nazariy asoslari, ob'ektlari va terminologik tizimi. Zamonaviy toksikologik kimyoning qisqacha tarixi, vazifalari va muammolari. Toksikologik kimyoda ishlatiladigan usullar.

17 -mavzu. Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va Farmatsevtik ishlab chiqarishda marketing va menejment modullarning mohiyati, maqsad va vazifalari. Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va Farmatsevtik ishlab chiqarishda marketing va menejment modullarning mohiyati, maqsad va vazifalari hamda muammolari. Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va Farmatsevtik ishlab chiqarishda marketing va menejment modullarning farmatsevtik ishlab chiqarish sohasidagi o'rne va rivojlanish istiqbollari

18-mavzu. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari va kelgusidagi istiqbollari ta'lim. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari va kelgusidagi istiqbollari ta'lim. Talabalar ilmiy jamiyati. Iqtidorli talabalar bo'limi. Davlat stipendiyalari. Kurs ishi va bitiruv ishini yozish va dizayniga qo'yiladigan talablar, malaka ishlari.

3.2. Moduldagi seminar mashg'ulotlari mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

3.2.3. Seminar mashg'ulotlarining mavzular ro'yhati:

1-mavzu. Modulning maqsadi va vazifalari. Mutaxassislikka kirish modulini umumiy tavsifi

2-mavzu. Farmatsevtika sohasi va uning rivojlansh tarixi O'zbekistonda farmatsevtika sohasining rivojlanish bosqichlari

3-mavzu. O'zbekistonda farmatsevtika ta'limining shakllanishi. Toshkent farmatsevtika institutning tashkiliy tuzilmasi. Institut tarixi va rivojlanish yo'nalishlari

4 - mavzu. Sifat tushunchasi. Farmatsevtikada sifat. Farmatsevtikada metrologiya

5- mavzu. O'zbekistonda dori vositalarini standartlash va sertifikatlash tizimi va rivojlanish istiqbollari. O'zbekiston Respublikasida sanoat farmatsiyasining rivojlanish istiqbollari

6-mavzu. Dori vositalarini ishlab chiqarish sohasida dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha va sifatini ta'minlash, validatsiyalash (kvalifikatsiyalash) mutaxassislar haqida umumiy ma'lumotlar va uning va vazifalari

7-mavzu. Farmatsevtik injenering, biotexnologiya va tibbiy-biologik modullarining mohiyati, maqsad va vazifalari

8-mavzu. Farmatsevtik kimyo, toksikologik kimyo va farmakognoziya modullarning farmatsevtika sohasidagi o'rne va rivojlanish istiqbollari

9-mavzu. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari va kelgusidagi istiqbollari ta'lim

3.2.4. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Seminar mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'yidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Seminar mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;

-O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;

- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lg'a kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

O'quv amaliyotni o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan:

- farmatsevtika biznesini zamonaviy axborot bilan ta'minlash manbalaridan foydalanish usullari;
- Kasbiy faoliyatni axloqiy me'yorlar va farmatsevtika etikasi va deontologiyasining axloqiy tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshirish
- zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, oliy ta'limning maxsus terminologiyasidan va lug'atdan foydalangan holda yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish;
- o'quv, ma'lumotnoma, adabiyotlar bilan ishlash, ma'lumotni tizimlashtirish va undan aniq kasbiy muammolarni hal qilishda foydalanish ko'nikmalari;
- global farmatsevtika bozorida ro'y berayotgan global jarayonlar va muammolarni tushunish;
- Faoliyatning turli sohalarida metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti hamda farmatsevtik bilimlarning asoslaridan foydalanish, ijtimoiy, etnik, konfessiyaviy va madaniy farqlarni bardosh bilan qabul qiladigan jamoada ishlash;
- kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining a sosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilish;
- olingan bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yhati:

UK 1¹. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandard vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va axloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UKK 1³. Zamonaviy kompyuter vositalari, tarmoq texnologiyalari, ma'lumotlar bazalari va bilimlardan foydalangan holda ilmiy va professional ma'lumotlarni qidirishning amaliy qobiliyatiga ega;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Farmatsevtik hujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

UKK 4. Faoliyatning turli sohalarida farmatsevtik bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UKK 5. Kasbiy faoliyatni axloqiy me'yorlar va farmatsevtika etikasi va deontologiyasining axloqiy tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshirish qobiliyati;

UKK 6. Faoliyatini aks ettirish asosida o'zini takomillashtirish va o'zini rivojlantirish qobiliyati, yangi vaziyatlarga moslashish, to'plangan tajribani haddan tashqari baholay olish, uning imkoniyatlarini tahlil qilish, yangi g'oyalarni (ijodkorlik) shakllantirishga moyilik.

Modul davomida o'quv(klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar: Mutaxassislikka kirish modulidan o'quv(klinik) amaliyot rejalashtirilmagan

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yhati:

1. Hozirgi zamon farmatsevtika modullarining rivojlanish tarixi
2. O'zbek farmatsevt olimlariuning soha rivojiga qo'shgan hissasi

¹UK- umumiy kompetentsiya

²UKK – umumiy kasbiy kompetentsiya

3. Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti sohasi rivojiga hissa qo'shgan olimlar
4. Rivojlangan davlatlarda farmatsevtik sifat tizimida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar
5. O'zbekiston farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarini va ularning turlari
6. Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarini sifat bo'limlari tashkiliy tuzulishi
7. Sifat bo'yicha xalqaro va milliy tashkilotlar
8. Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti sohasining jahon hamjamiyatidagi rivojlanish istiqboli

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan modulning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modullar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, biologik tekshiruv asboblari, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqotishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan modullar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- keys (real vaziyatli masalalar asosida case-study) echish.
- grafik organayzerlarni ishlab chiqish va to'ldirish;
- maqola va tezis yozish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo'llash.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Mutaxassislikka kirish moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajer, mulyaj va simulyasion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning (fanning) bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va farmatsevtik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- CASE (real farmatsevtik vaziyatlar va farmatsevtik vaziyatli masalalar asosida case-study) echish;
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.
- Talabani mustaqil ishi o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kengaytirilgan ma'lumotlarni yig'ish, buning uchun axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish, olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish va aniq dori vositasining sifatini nazorat qilishda qo'llay olishdan iborat bo'lib, uning turlari va shakllari turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar talabani mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha kafedrada ishlab chiqilgan va muntazam yangilanib boradigan uslubiy qo'llanmalarda keng yoritilgan.

– Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbaalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.
Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: "Mutaxassislikka kirish modulidan kurs ishi (loyihasi) rejalashtirilmagan

Ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Mutaxassislikka kirish modulidan ishlab chiqarish amaliyotini rejalashtirilmagan

Modul bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish turlari va baholash mezonlari

Mutaxassislikka kirish moduli bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN) – 3 kredit:

- yakuniy nazorat (YaN)– 0 kredit(o'tkazilishi majburiy)

Modulga ajratilgan kreditlar nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

JORIY NAZORAT (JN)

JN talabani modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nima va kompetensiyalarni egalash darajasini aniqlash va baholab boorish ko'zda tutiladi. Noorganik kimyo moduli bo'yicha joriy nazorat og'zaki, o'rgatuvchi nazorat testlari, masalar yechish, o'rgatuvchi nazorat testlari, vaziyatli masalalar shaklida o'tkaziladi.

Baholashda talabani modul darajasi, laboratoriya mashg'uloti materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limninginteraktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi hisobga olinadi. Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100 ball, o'tish bali 55 ball.

JNda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, songgi JN uchun yakuniy nazotargacha bo'lgan muddat beriladi.

JN da talaba ajratilgan kreditni toliq to'plashi shart, shundagina u yakuniy nazoratga (YaN) kiritiladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda JNni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishi boshlanganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo'yicha JN da saralsh balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik arzdor talabalarga semester tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun biro y muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

| Ball | ECTS baho | ECTS ning ta'rifi | | Baho | Ta'rifi |
|-------------|------------------|--------------------------|---|-------------|----------------|
| 86-100 | A | "a'lo" – a'lo natija, | modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga | 5 | a'lo |

| | | | | | |
|-------|---|---|---|---|--------|
| | | <p>minimal hatoliklar bilan</p> | <p>ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni echishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetentsiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p> | | |
| 81-85 | B | <p>"juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan</p> | <p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni</p> | 4 | yaxshi |

| | | | | | |
|-------|---|--|---|--|--|
| | | | <p>o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetentsiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>seminar mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini etarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p> | | |
| 71-80 | C | "yaxshi" – o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan | <p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetentsiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan</p> | | |

| | | | | | |
|-------|---|--|---|---|-----------|
| | | | <p>ish natijalarini etarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p> | | |
| 60-70 | D | "qoniqarli" – sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan | <p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida etarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetentsiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda etarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p> | 3 | qoniqarli |
| 56-59 | E | "o'rta" – minimal natijaga teng | <p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol hatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus</p> | | |

| | | | | | |
|-------|----|---|---|---|------------|
| | | | <p>ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetentsiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda etarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p> | | |
| 31-55 | FX | "qoniqarsiz" – minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur | <p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;</p> <p>amaliy ko'nikmalarga va kompetentsiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.</p> | 2 | qoniqarsiz |
| 0-30 | F | "mutloq qoniqarsiz" – to'liq qayta o'zlashtirishi lozim | <p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy hatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa;</p> <p>mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa;</p> <p>amaliy ko'nikmalarga va kompetentsiyalarga ega bo'lmasa, o'z hatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.</p> | | |

YAKUNIY NAZORAT (YaN)

YaN modul yakunida test va og'zaki shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalari va nazariy bilimlari tekshiriladi. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

YaNda saralash balini (55) yig'olmagan talaba YaNdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JN da to'liq kreditni yig'gan bo'lsa ham).

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

